

87.3.17-2  
7.08

A.E. MAMATOV,  
M.M. MIRXOLIQOV, A.S. ASQAROV

**FRANSUZ  
TILINING AMALIY  
GRAMMATIKASI**

TOSHKENT

81.2 F2-2

F-58

7/30  
9.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

A.E.MAMATOV, M.M.MIRXOLIQOV, A.S.ASQAROV

# FRANSUZ TILINING AMALIY GRAMMATIKASI

*O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2015 ..

TerDU ARM  
№ 393663

**UO'K:811.111(076.5)**

**KBK:81.2 Fr-2**

**F-58**

**F-58      A.E.Mamatov, M.M.Mirxoliqov, A.S.Asqarov.  
Fransuz tilining amaliy grammatikasi. –T.:  
«Fan va texnologiya», 2015, 192 bet.**

**ISBN 978-9943-990-73-9**

**UO'K:811.111(076.5)**

**KBK:81.2 Fr-2**

**Mas'ul muharrir:**

**R.H.Shirinova – f.f.n. dos.**

**Taqrizchilar:**

**J.A.Yoqubov – f.f.d., prof.;**

**B.S.Ermatov – f.f.n., dos.**

**ISBN 978-9943-990-73-9**

**© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.**

---

---

## SO‘Z BOSHI

Mazkur o‘quv qo‘llanma nafaqat universitetlar va oliy ta‘lim muassasalarining gumanitar fakultetlari talabalari uchun, balki fransuz tilini mukammal o‘rganish istagida bo‘lgan barcha xohlovchilar uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanma fransuz tili morfologiyasi haqida batafsil ma‘lumot beradi. Unda fransuz tilidagi mavjud asosiy va yordamchi so‘z turkumlarining har biriga alohida va atroflicha ta‘rif berilib, ushbu tilga xos bo‘lgan qonun-qoidalar o‘zbek va rus tillariga qiyoslangan tarzda bayon qilingan.

Fransuz tilida ot va sifatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ulardagi rod va son kategoriyalarining berilishi, ularga tegishli muhim qoida va istisnolar qo‘llanmada alohida bayon qilinib, ko‘plab misollar yordamida ochib berilgan.

Fe‘llarning tuslanishi, fransuz tilida zamonlarning qo‘llanilishi o‘zbek va rus tillaridagi zamonlar bilan solishtirilib o‘rganilgan. Fe‘llar tuslanishidagi alohida jihatlarni ko‘rsatish maqsadida qo‘llanma oxirida ilova keltirilgan.

*Mualliflar.*

## FRANSUZ TILI MORFOLOGIYASI HAQIDA MA'LUMOT

O'zbek tilida bo'lgani kabi fransuz tilida ham barcha so'z turkumlari asosiy va yordamchi so'z turkumlariga bo'linadi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

Asosiy so'z turkumlari	Yordamchi so'z turkumlari
1. Ot	1. Artikl
2. Sifat	2. Olmoshli sifatlar yoki determinativlar: a) ko'rsatish sifatleri b) egalik sifatleri c) noaniq sifatlar
3. Son	3. Fe'loldi kishilik olmoshlari
4. Olmosh (fe'loldi kishilik olmoshlaridan tashqari)	4. Yordamchi ravishlar
5. Fe'l	5. Predlog
6. Ravish (yordamchi ravishlardan tashqari)	6. Bog'lovchi
7. Undov so'zlar	7. Yuklamalar

### OT – LE NOM

Jonli va jonsiz predmetlarning, harakatning, sifatning, mavhum tushunchalarning nomlarini bildiruvchi so'z turkumi ot deb ataladi.

Fransuz tilidagi otlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Jonli va jonsiz predmetlarning nomlari – **fille, chien, livre, table**.
2. Atoqli otlar: **Jacques, Paul, Paris, Seine, Tachkent** va turdosh otlar: **garçon, ville, rivière, fenêtre**.
3. Anliq otlar: **crayon, porte, clé, table** va mavhum otlar: **patience, sourire, peur, amour, amitié**.
4. Shaxs va predmetni ifodalovchi otlar: **enfant, feuille, papier** va jamlovchi otlar: **foule, groupe, feuillage**.
5. Sanaladigan otlar: **cahier, pomme, allumettes** va sanalmaydigan otlar. Sanalmaydigan otlar o'z navbatida predmetlarni ifodalovchi

otlarga - **eau, sucre, farine, viande** hamda mavhum otlarga ajraladi - **force, patience, musique.**

6. Sodda otlar: **plume, garde, stylo, porte** va murakkab otlar: **porte-plume, avant-garde.**

Bizga ma'lumki, o'zbek tilida rod tushunchasi mavjud emas. Rus tilida esa 3 ta rod mavjud – mujskoy, jenskiy va sredniy rodlar. Fransuz tilidagi otlar esa ikkita rodga bo'linadi. **Ular le masculin** (mujskoy rod) va **le féminin** (jenskiy rod)dir. Lug'atlarda qisqartirib **m** va **f** deb yoziladi. Shuni yodda tutish lozimki, rus tilidagi otning rodi har doim ham fransuz tilidagi otning rodi bilan mos kelavermaydi.

Jonli predmetlarda otlarning rodi quyidagi yo'llar bilan ifodalangan bo'ladi:

1. Ot qo'shimchasini o'zgartirish yo'li bilan;
2. Maxsus suffikslar qo'shish yo'li bilan;
3. Determinativlarni (aniqlovchini) o'zgartirish yo'li bilan;
4. Maxsus so'zlarni qo'llash yo'li bilan.

## FRANSUZ TILIDA OTLARNING JENSKIY RODINI YASASH USULLARI

Asosiy qoidaga binoan, otlarning jenskiy rodi mujskoy rod shakliga –e qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan yasaladi. Bunda so'z oxiridagi o'qilmaydigan undosh tovush talaffuz qilinadi. O'z navbatida artikl ham jenskiy rod artikli bilan almashtiriladi. Masalan:

un délégué – une déléguée  
un étudiant – une étudiante  
un marchand – une marchande  
un candidat – une candidate  
un lauréat – une lauréate

-e qo'shimchasi qo'shilishi natijasida so'zlarning yozilishida bir qator o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Bular quyidagilardan iborat:

1. Mujskoy rodga –**er, -ier** bilan tugaydigan otlar jenskiy rodga – **ère, -ière** qo'shimchalarini oladi. Masalan:  
un étranger – une étrangère  
un boulanger – une boulangère

un jardinier – une jardinière

un écolier – une écolière

2. Mujskoy rodida –**f** bilan tugovchi otlar jenskiy rodida –**ve** qo‘shimchasini oladi. Masalan:

un veuf – une veuve

3. Mujskoy rodida –**et** bilan tugovchi otlarga hamda **chat, sot** otlariga jenskiy rodida –**e** qo‘shilganda **t** harfi ikkilanadi. Masalan:

le cadet – la cadette

un chat – une chatte

un sot – une sotte

4. Mujskoy rodida –**x** bilan tugovchi otlar jenskiy rodida –**se** qo‘shimchasini oladi. Masalan:

un époux – une épouse

5. Mujskoy rodida –**en, -ien, -on** bilan tugovchi otlarga jenskiy rodida –**e** qo‘shilganda **n** harfi ikkilanadi. Masalan:

un européen – une européenne

un musicien – une musicienne

un patron – une patronne

**Yodda tuting!** Mujskoy rodida –**ain, in** ga tugovchi otlarga hamda –**an** bilan tugovchi ko‘pgina otlarga jenskiy rodida –**e** qo‘shilganda –**n** harfi ikkilanmaydi. Masalan:

un Américain – une Américaine

un cousin – une cousine

un courtisan – une courtisane

Ammo un paysan so‘zi jenskiy rodida **une paysanne** shaklini oladi.

## MAXSUS SUFFIKSLAR YORDAMIDA OTLARNING JENSKIY RODINI HOSIL QILISH

1. Mujskoy rodida –**eur** bilan tugovchi otlar jenskiy rodida –**euse** suffiksini oladi. Masalan:

un vendeur – une vendeuse

un nageur – une nageuse

un menteur – une menteuse

un acheteur – une acheteuse

2. Mujskoy rodga **-teur** ga tugovchi otlar jenskiy rodga **-trice** suffiksini oladi. Masalan:

un organisateur – une organisatrice

un directeur – une directrice

un admirateur – une admiratrice

un protecteur – une protectrice

**Yodda tuting!** Ayrim otlar bu qoidalardan mustasnodir. Masalan:

un empereur – une impératrice

un chanteur – une chanteuse (une chanteuse de talent)

3. Mujskoy rodga **-e** bilan tugovchi bir qator otlar jenskiy rodga **-esse** suffiksini oladi. Bular quyidagilar:

un maître – une maîtresse

un traître – une traîtresse

un hôte – une hôtesse

un prince – une princesse

un poète – une poétesse

un nègre – une négresse

un compte – une comptesse

un tigre – une tigresse

une âne – une ânesse

un Suisse – une Suisse

## DETERMINATIVLARNI O'ZGARTIRISH YO'LI BILAN OTLAR JENSKIY RODNING YASALISHI

Mujskoy rodga **-e** ga tugovchi shaxslarni ifoda qiluvchi otlarning (shuningdek **enfant** so'zining) jenskiy rodi ularning determinativlarini, ya'ni artiklini, ko'rsatish yoki egalik olmoshini almashtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Masalan:

le Russe – la Russe

un artiste – une artiste

un élève – une élève

cet enfant – cette enfant



ce camarade – **cette** camarade  
mon secrétaire – **ma** secrétaire

Fransuz tilida yigirmaga yaqin otlar mujskoy roddagi o'zagini saqlagan holda jenskiy rodga maxsus formaga ega bo'ladi:

un compagnon – une copine  
un vieillard – une vieille  
un gouverneur – une gouvernante  
un serviteur – une servante  
un speaker – une speakerine  
un héros – une héroïne  
un favori – une favorite  
un neveu – une nièce  
un roi – une reine  
un tsar – une tsarine  
un copain – une copine

**Eslatma:** Fransuz tilida bir qator otlar borki, ular har ikkala rodga tegishli bo'lishi mumkin, ammo ular mazmun jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Bular quyidagilar:

Mujskoy rod	Jenskiy rod
un aide - yordamchi	une aide - yordam
un crêpe - krep (yupqa g'ijim gazmol)	une crêpe - blinchik
un guide - yo'l boshlovchi, gid	une guide - tizgin, jilov
un manche - sop, dasta	une manche - eng
un radio - radist	la radio - radio
un vapeur - paroxod	la vapeur - bug'
un voile - choyshab, o'rin yopinchi <i>g'i</i>	une voile - elkan

### JENSKIY RODNING MAXSUS SO'ZLAR YORDAMIDA IFODALANISHI

Fransuz tilida shunday otlar borki, ularning jenskiy rodini ifodalash uchun butunlay boshqa o'zakli so'zlardan foydalanamiz. Bular shaxsni va jonivorlarni ifodalovchi quyidagi otlardir:

un homme – une femme  
un garçon – une fille  
un mari – une femme  
un père – une mère

un compère – une commère  
un papa – un maman  
un oncle – une tante  
un frère – une soeur  
un coq – une poule  
un loup – une louve  
un boeuf- une vache  
un bouc – une chèvre  
un mouton – une brebis  
un porc – une laie, une truie  
un poulain – une pouliche  
un perroquet – une perruche  
le taureau – la vache  
le dindon – la dinde  
le jars – l'oie  
un canard – une cane  
le sanglier – la laie  
le cerf – la biche  
le chevreuil – la chevrette  
le singe – la guenon  
le mulot – la mule  
un chameau – une chamelle  
un agneau – une agnelle  
un daim – une daine  
un lévrier – une levrette  
le lièvre – la hase  
le bélier – la brebis

### FAQAT BIR RODLI OTLAR

Shaxsni ifodalovchi, xususan kasb-hunarni bildiruvchi bir qator otlar faqat mujskoy rodnda bo'ladi. Bular quyidagilar:

un auteur	un historien	un amateur
un compositeur	un ingénieur	un chef
un architecte	un juge	un défenseur
un écrivain	un médecin	un sauveur
un professeur	un sculpteur	un témoin

Bu otlarning jenskiy rodini yasash uchun ularning oldiga **femme** soʻzini qoʻshish kerak boʻladi. Masalan:

Parmi les déléguées plusieurs institutrices, quelques **femmes** médecins, deux **femmes** écrivains.

## FRANSUZ TILIDA OTLAR KOʻPLIGINING YASALISHI

Asosiy qoidaga binoan otlarning koʻplik shakli otlarning birlik shakliga **-s** qoʻshimchasini qoʻshish yoʻli bilan yasaladi. Bunda birlik shaklidagi artikl ham koʻplik shakli bilan almashtiriladi. Masalan:

un livre – des livres  
le cahier – les cahiers

Otlarning koʻpligini hosil qilishda quyidagi holat va eslatmalarga alohida eʼtibor berishimiz lozim:

1. Birlikda **-s, -x, -z** qoʻshimchasi bilan tugagan otlar koʻplikda oʻzgarmaydi. Masalan:

un fils – des fils  
une voix – des voix  
un nez – des nez

2. Birlikda **-au, -eau, -eu** qoʻshimchasi bilan tugaydigan otlar koʻplikda **-x** qoʻshimchasini oladi. Masalan:

un tuyau – des tuyaux  
un tableau – des tableaux  
un cheveu – des cheveux

**Yodda tuting!** un landau – des landaus

un sarrau – des sarraux, des sarraux  
un pneu – des pneus  
un bleu – des bleus

3. Birlikda **-ou** qoʻshimchasi bilan tugaydigan quyidagi otlar koʻplikda **-x** qoʻshimchasini oladi. Masalan:

un bijou – des bijoux  
un caillou – des cailloux  
un chou – des choux

un genou – des genoux  
un hibou – des hiboux  
un joujou – des joujoux  
un pou – des poux

4. Birlikda **-ou** qo'shimchasi bilan tugaydigan boshqa otlar ko'plikda asosiy qoidaga binoan **-s** qo'shimchasini oladi. Masalan:

un trou – des trous  
un clou – des clous

5. Birlikda **-al** qo'shimchasi bilan tugaydigan otlar ko'plikda **-aux** qo'shimchasini oladi. Masalan:

un journal – des journaux  
un fanal – des fanaux  
un arsenal – des arsenaux  
des signal – des signaux

6. Birlikda **-al** qo'shimchasi bilan tugaydigan quyidagi otlarning ko'pligi asosiy qoidaga binoan **-s** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:

le bal – les bals  
le carnaval – les carnivals  
le festival – les festivals  
le chacal – les chacals  
le cal – les cals  
le récital – les récitals  
le régál – les régals

7. Birlikda **-ail** qo'shimchasi bilan tugaydigan quyidagi 8 ta ot ko'plikda **-aux** qo'shimchasini oladi:

un bail – des baux  
un corail – des coraux  
un émail – des émaux  
un fermail – des fermaux  
un soupirail – des soupiraux  
un travail – des travaux  
un vantail – des vantaux  
un vitrail – des vitraux

8. Birlikda –**ail** qo‘shimchasi bilan tugaydigan boshqa otlar ko‘plikda asosiy qoidaga binoan – **s** qo‘shimchasini oladi. Masalan:  
un détail – des détails  
un chandail – des chandails

9. Bir qator otlar ko‘plikda butunlay boshqacha formaga egadir:  
le ciel – les cieux  
un aïeul – des aïeux  
un oeil – des yeux

Yuqoridagi otlarning asosiy qoidaga binoan yasalgan ko‘plik formalari ham mavjud. U holda bu so‘zlarning ma‘nosi o‘zgarib ketadi.  
**Qiyoslang:**

des aïeux – o‘tgan bobokalonlar; des aïeuls - buvi va buva.  
les cieux – osmon, falak, osmon gumbazi; les ciels – osmon aks ettirilgan rasmning bir bo‘lagi.  
les yeux – ko‘z (ko‘rish organi); les oeils-de-bœuf – eshitadigan tuyruk.

### QO‘SHMA OTLARNING KO‘PLIGINI HOSIL QILISH

Agar qo‘shma ot bitta so‘zdan iborat bo‘lsa, uning ko‘pligi asosiy qoidaga binoan oxiriga –**s** harfini qo‘shish yo‘li bilan yasaladi. Masalan:

un bonbon	des bonbons
un portefeuille	des portefeuilles

Quyidagi otlar bundan mustasno:

monsieur	messieurs
madame	mesdames
un bonhomme	des bonshommes

Agar qo‘shma ot ikkita otdan tashkil topgan bo‘lsa, har ikkala ot ham ko‘plik shaklida qo‘yiladi:

un chou-fleur	des choux-fleurs
---------------	------------------

Agar qo'shma ot otdan va sifatdan tashkil topgan bo'lsa, ularning har ikkalasi ham ko'plik shaklida qo'yiladi:

un coffre-fort                      des coffres-forts

Agar qo'shma ot bir-biriga predlog orqali bog'langan ikkita otdan tashkil topgan bo'lsa, faqat birinchi ot ko'plik shaklida qo'yiladi:

une pomme de terre              des pommes de terre

Agar qo'shma ot fe'ldan va otdan tashkil topgan bo'lsa, faqat ot ko'plik shaklida qo'yiladi:

un porte-plume                      des porte-plumes

Agar qo'shma ot ravishdan va otdan tashkil topgan bo'lsa, faqat ot ko'plik shaklida qo'yiladi:

une avant-garde                      des avant-gardes

Quyidagi qo'shma otlar yozuvda ko'plikda o'zgarмайdi:

un réveille matin                      des réveille-matin

un abat-jour                              des abat-jour

un sans-travail                              des sans-travail

## OTNING GAPDAGI VAZIFASI

Ot gapda quyidagi vazifalarni bajarib keladi:

1) ega vazifasini:

*Mon frère dessine bien.*

2) ot kesim vazifasini:

*Son père est ingénieur.*

3) fe'lning to'ldiruvchisi vazifasini:

a) vositasiz to'ldiruvchi:

*Je prends un livre.*

- b) vositali to'ldiruvchi:  
Il s'adresse à son maître.  
Il parle de son voyage.
- 4) hol vazifasini:  
a) o'rin holi:  
Il entre dans la chambre.  
b) payt holi:  
Il vous téléphonera le matin.
- v) holat holi:  
Elle chante comme un oiseau.
- g) sabab holi:  
Elle pleure de chagrin.
- 5) otning to'ldiruvchisi vazifasini:  
Un kilo de pommes.  
Le livre de ma sœur.
- 6) izohlovchi vazifasini:  
Mon ami, élève de la huitième, m'aidera.
- 7) undalma vazifasini:  
Enfants, écoutez-moi!

### OTNING GAPDAGI O'RNI

Ot gapda quyidagi o'rinlarni egallaydi:

- 1) Ega vazifasidagi ot fe'ldan oldin qo'yiladi:  
Le professeur entre dans la salle.
- 2) Ot kesim vazifasidagi ot bog'lovchi fe'ldan keyin qo'yiladi:  
Mon père est ingénieur.
- 3) To'ldiruvchi vazifasidagi ot fe'l-kesimdan keyin qo'yiladi:  
Nicolas achète un journal.  
Elle s'adresse à son amie.

4) Hol vazifasidagi ot gapning boshiga yoki oxiriga qo'yilishi mumkin:

*Dans un mois, ils reviendront.*

Ils reviendront *dans un mois.*

5) Otning to'ldiruvchisi vazifasidagi ot aniqlanayotgan otdan keyin qo'yiladi:

*Une poésie de Navoï.*

*Le livre du professeur.*

6) Izohlovchi vazifasidagi ot aniqlanayotgan otdan keyin qo'yiladi:

*Mon cousin, étudiant, vous expliquera cette règle.*

*Les participants de la conférence, médecins, poètes, artistes, écrivains, ont soutenu la décision du gouvernement.*

## ARTIKL – L'ARTICLE

Fransuz tilida shahar va kishilarning ismlaridan tashqari barcha otlar artikl bilan qo'llaniladi. Artikl quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Artikl otning rodini bildirib keladi:

le livre, la table

le cahier, la chaise

le garçon, la fille

l'homme, la femme

2. Artikl otning sonini bildirib keladi:

le crayon – les crayons

la veste – les vestes

le tableau – les tableaux

3. Artikl otning aniq ma'noda (article défini) olinganligini ko'rsatadi:

le mur, le tableau, les femmes

la rose, la fenêtre, les hommes

4. Artikl otning noaniq ma'noda (article indéfini et partitif) olinganligini ko'rsatadi:

un enfant, un article, un chien

une forêt, un rencontre, une table



des livres, des cahiers, des crayons  
du beurre, de l'eau, du courage

## ARTIKL FORMALARI – FORMES DE L'ARTICLE

	Article défini	Article indéfini	Article partitif
Masculin singulier	le	un	du
Féminin singulier	la	une	de la
Pluriel pour le 2 genre	les	des	

**Eslatma:** Shuningdek aniq artiklning **l'** ko'rinishdagi qisqartma artikl shakli (l'homme, l'eau) hamda **au, aux, du, des** ko'rinishdagi tutash artikl shakllari ham mavjud (parler au directeur, aux enfants, parler du héros, des actrices).

Aniq artikl (**article défini**) predmetning (narsa, jonzot yoki mavhum tushunchaning) eng umumlashgan ma'nosini, ya'ni turini, rodini aniqlab keladi. Masalan:

La forêt protège les cours d'eau.

Le chien est l'ami de l'homme.

Il aime les enfants.

La patience est une qualité précieuse.

L'eau est nécessaire à la vie.

Le beurre doit être conservé au froid.

La lune est un satellite de la terre.

Noaniq artikl (**article indéfini**) predmetning (shaxs yoki narsaning) noaniq ma'noda olinganligini ko'rsatadi. Masalan:

Une forêt protège notre village contre les vents du Nord.

Nous sommes aperçus qu'un chien nous suivait.

Qism bildiruvchi artikl (**article partitif**) noaniq artiklning bir turi bo'lib, u sanalmaydigan otlar oldida qo'llaniladi va butunning bir qismini, ba'zan mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Masalan:

Tu achèteras du beurre.  
Versez de l'eau dans ce vase.  
Il a de la patience.

Agar gap biror noma'lum miqdor haqida ketsa, unda o'sha narsaning nomi qism bildiruvchi artikl bilan ishlatiladi:

Voulez-vous du miel ou des bonbons?  
Achète du papier et de l'encre.

Agar ot o'zining aniqlovchisi yoki to'ldiruvchisi bilan qo'llanilgan bo'lsa, unda ham qism bildiruvchi artikl ishlatiladi:

La femme leur versa du thé très fort, presque noir.  
Il sortit de sa poche une tabatière qui contenait du tabac très noir.

Agar sanalmaydigan ot oldida miqdor anglatuvchi so'z kelsa, qism bildiruvchi artikl tushib qoladi va **de** predlogi qo'yiladi. Masalan:

Achète-moi un kilo de beurre, une bouteille d'eau minérale, un peu de saucisson et beaucoup de viande.

Il apporte un seau d'eau.

Elle prend une tasse de café.

Shuningdek qism bildiruvchi artikl sanaladigan hamda sanalmaydigan otlar ishtirokida yasalgan juda ko'p fe'lli birikmalar tarkibiga kiradi. Bu holda sanalmaydigan otlar butunlay boshqa tabaqaga, ya'ni sanaladigan otlar tabaqasiga mansub bo'lib qoladi. Qism bildiruvchi artikl **faire** va **avoir** fe'llari ishtirokida tuzilgan shaxssiz iboralar tarkibiga kirib tabiat hodisalarini bildiradi. Masalan:

Il fait du vent.

Il y a de la pluie.

Il fait du brouillard.

Il y a du brouillard.

Qism bildiruvchi artikl **faire** fe'lli bilan birga qo'llanilib, biror ish bilan mashg'ullikni bildiradi. Masalan:

faire du sport, du ski, du canotage, de la bicyclette, etc.

faire de la musique, du théâtre, du cinéma, etc.

faire de la propagande, de la politique.

Qism bildiruvchi artikl **avoir** fe'li ishtirokida tuzilgan ko'plab fe'lli iboralarning tarkibiga kiradi. Masalan:

avoir du succès

avoir du courage

avoir de la volonté

avoir de la patience

avoir du caractère

avoir de l'instruction

Shuningdek, qism bildiruvchi artikl boshqa juda ko'p fe'llar bilan ham qo'llanilib, turli birikmalar hosil qiladi:

mettre de l'ordre dans (sur) qch

faire du feu

faire du bruit

faire de la lumière

voir du pays

gagner du temps

### TUTASH ARTIKL - L'ARTICLE CONTRACTÉ

Fransuz tilida tutash artikllar ham mavjud, ular aniq artiklar va predloglar birikuvidan iborat bo'ladi.

à predlogi o'zidan keyin keladigan **le, les** aniq artikllari bilan birikib quyidagi tutash artikllarni hosil qiladi:

à + **le** = **au**

à + **les** = **aux**

Je parle au camarade Qodirov. (à + le)

Je parle aux élèves de ma classe. (à + les).

Il va au (à + le) cinéma.

Ils vont aux (à + les) magasins.

**Eslatma:** à predlogi **la, l'** artikllari va boshqa determinativlar bilan birikmaydi:

Je parle à cet élève.

Vous allez à l'école.

Nous parlons à sa mère.

Ils vont à leurs places.

De predlogi ham o'zidan keyin keladigan **le, les** artikllari bilan birikib quyidagi tutash artikllarni hosil qiladi:

**de + le = du**

**de + les = des**

Je reviens **du** magasin. (de + le)

Ce sont les livres **des** étudiants. (de + les)

Il rentre **du** cinéma.

Je pense toujours **des** amis.

## ARTIKLNING QO'LLANMASLIK HOLLARI

Artikllar quyidagi hollarda qo'llanilmaydi:

1) agar otdan oldin boshqa determinativlar yoki sanoq son turgan bo'lsa:

notre chambre, cet article, deux garçons

2) kishilarning, hayvonlarning, shaharlarning nomlari oldida:

Marie, Elisabeth, Anvar, Barbos, Tachkent, Paris

3) oy, hafta kunlari va **midi, minuit** so'zlari oldida:

*Janvier* est le mois le plus froid de l'année.

Nous quittons Paris *lundi*.

Chaque jour je me couche à *minuit*.

4) gapda quyidagi vazifalarni bajarib kelgan otlar oldida:

a) kasb, mashg'ulotni ifodalab kelayotgan ot kesim oldida:

Sa mère est *institutrice*.

Mon frère est *étudiant*.

**Eslatma:** agar ot kesimning aniqlovchisi mavjud bo'lsa, artikl qo'llaniladi:

Son père est *un bon ingénieur*.

b) undalma vazifasidagi ot oldida:

*Enfants*, écoutez-moi attentivement!

*Garçons*, ne faites pas de bêtise!

c) izohlovchi vazifasidagi ot oldida:  
Son père, *ouvrier*, assista à cette manifestation.

d) aniqlovchi vazifasidagi predlogli ot oldida:  
une brosse à *dents*  
un cabinet *de travail*  
une montre *en argent*

5) juda ko'p turg'un birikmalarda:

a) fe'lli turg'un birikmalarda:  
avoir faim, avoir soif, avoir peur, avoir besoin de

b) ravishli turg'un birikmalarda:  
à peine, de bonne heure, avec plaisir, avec peine, par cœur

**Eslatma:** Agar otdan oldin aniqlovchi bo'lsa artikl qo'llaniladi.  
Qiyoslang:

avec plaisir – avec un grand plaisir  
avec peine – avec une grande peine

6) viveska, plakat, e'lon, sarlavhalarda:  
Hôtel National  
Défense de fumer!  
Grammaire française

**Eslatma:** Ba'zan sarlavhalarda artikl qo'llaniladi. Masalan: Le Monde, Le Figaro, L'Humanité.

## NOANIQ VA QISMNI BILDIRUVCHI ARTIKLLARNING DE PREDLOGI BILAN ALMASHTIRILISHI

Un, une, des noaniq hamda qismni bildiruvchi **du, de la, de l'** artikllari fe'llarning bo'lishsiz shaklidan keyin **de** predlogi bilan almashtiriladi:

Bo'lishli forma  
J'ai *un* père  
J'ai *une* mère

Bo'lishsiz forma  
Je n'ai pas **de** père  
Je n'ai pas **de** mère

J'ai *des* parents  
J'ai *du* pain  
J'ai *de la* viande

Je n'ai pas *de* parents  
Je n'ai pas *de* pain  
Je n'ai pas *de* viande

**Eslatma:** Inkor gaplarda aniq artikl saqlanib qoladi:

J'aime les pommes  
J'aime la viande  
J'ai le livre que vous demandez.

Je n'aime pas les pommes  
Je n'aime pas la viande  
Je n'ai pas le livre que vous demandez.

Qismni bildiruvchi **du**, **de la**, **de l'** artikllari hamda noaniq artiklning ko'plik shakli **des** quyidagi hollarda ishlatilmaydi:

a) miqdorni anglatuvchi otlar va ravishlardan hamda **plein** sifatidan keyin:

un kilo **de** pain  
une tasse **de** café  
beaucoup **de** pommes  
un bouquet **de** fleurs  
un groupe **de** touristes  
combien **de** pionniers  
plein **de** livres

b) **accompagner** (kuzatib bormoq), **charger** (zimmasiga yuklamoq), **couvrir** (qoplamoq), **entourer** (o'rab olmoq, qurshamoq, atrofida bo'lmoq), **orner** (bezamoq, bezatmoq, yasatmoq), **nourrir** (ovqat bermoq, boqmoq, edirmoq), **remplir** (to'ldirmoq, to'latmoq, to'lg'izmoq) kabi fe'llardan keyin turgan otlar oldida:

les tables couvertes **de** nappes  
les murs ornés **de** tableaux  
un toit couvert **de** neige

**Eslatma:** Noaniq artiklning birlik shakli yuqorida ko'rsatilgan fe'llardan keyin ishlatiladi:

la table couverte **d'**une nappe blanche

Noaniq artiklning **des** ko'plik shakli ega yoki to'ldiruvchi vazifasida ko'plikda kelgan ot oldida sifat ishlatilgan bo'lsa **de** predlogi bilan almashtiriladi:

**De** grands arbres entouraient notre maison.

**De** belles fleurs ornaient cette chambre.

Je vois **de** belles maisons.

Je lis **de** nouveaux livres.

## DETERMINATIVLAR

Determinativlar yordamchi so'zlar bo'lib, xuddi artiklga o'xshab otdan oldin qo'yiladi va uning rodi va sonini bildirib keladi. Artiki kabi ular ham ot bilan bitta ritmik guruhni tashkil qiladi va mustaqil qo'llanilmaydi.

Determinativlarning to'rt xil turi mavjud. Bular:

1. Ko'rsatish sifatleri
2. Egalik sifatleri
3. So'roq sifati
4. Noaniq sifatlari

Determinativlar otlardan asliy sifatlari va tartib sonlari bilan ajratilishlari mumkin. Masalan:

**Ce** grand tableau.

**Ma** petite sœur.

**Leur** deuxième leçon.

**Chaque** grand écrivain.

## KO'RSATISH SIFATLARI ADJECTIFS DEMONSTRATIFS

Ko'rsatish sifatlari otning rodini va sonini bildiradi va ko'rsatishni ifodalaydi. Ko'rsatish sifatlari quyidagi shakllari mavjud:

Birlik		Ko'plik	
Mujskoy rod	Jenskiy rod	Mujskoy rod	Jenskiy rod
<b>ce</b>			
	<b>cette</b>		
<b>cet</b>		<b>ces</b>	

## KO'RSATISH SIFATLARINING QO'LLANILISHI

Ko'rsatish sifatining **ce** shakli mujskoy rod birlikdagi undosh harflar yoki **h aspiré** (nafas chiqarish yo'li bilan talaffuz qilinadigan **h** harfi) bilan boshlanadigan otlar oldida qo'yiladi:

**ce** héros  
**ce** stylo  
**ce** crayon

Ko'rsatish sifatining **cet** shakli mujskoy rod birlikdagi unli harflar yoki **h muet** (talaffuz qilinmaydigan **h** harfi) bilan boshlanadigan otlar oldida qo'yiladi:

**cet** arbre  
**cet** institut  
**cet** enfant  
**cet** herbe

Ko'rsatish sifatining **cette** shakli jenskiy rod birlikdagi otlar oldida qo'yiladi:

**cette** table  
**cette** classe  
**cette** université  
**cette** habitude

Ko'rsatish sifatining **ces** shakli mujskoy va jenskiy rod ko'plikdagi otlar oldida qo'yiladi:

<b>ce</b> héros	<b>ces</b> héros
<b>ce</b> stylo	<b>ces</b> stylos
<b>ce</b> crayon	<b>ces</b> crayons
<b>cet</b> arbre	<b>ces</b> arbres
<b>cet</b> institut	<b>ces</b> instituts
<b>cet</b> enfant	<b>ces</b> enfants
<b>cet</b> herbe	<b>ces</b> herbes
<b>cette</b> table	<b>ces</b> tables
<b>cette</b> classe	<b>ces</b> classes



cette université  
cette habitude

ces universités  
ces habitudes

Mazmunni kuchaytirish maqsadida ba'zan otga ko'rsatish sifatlaridan tashqari **ci** va **là** yuklamalari ham qo'shiladi:

Ce livre-**ci**

bu kitob

Cette page-**là**

bu bet

Ces règles-**ci**

bu qoidalar

Ikkita predmetlar bir-biriga qiyoslanayotgan paytda **ci** yuklamasi yaqinroqdagi predmetni, **là** yuklamasi esa uzoqroqdagi predmetni ko'rsatadi:

*Cet écolier-ci est appliqué et cet écolier-là est paresseux.*

Bu o'quvchi tirshoq, u o'quvchi esa dangasa.

### EGALIK SIFATLARI PRONOMS POSSESSIFS

Egalik sifatlari yordamchi so'zlar bo'lib, xuddi artikl singari otning rodini va sonini aniqlab keladi. Egalik sifatlari determinativlar ham deb ataladi, chunki ular otning oldida qo'llanilib, artiklning o'rnini egallaydi hamda otning nafaqat rodini va sonini, balki qaysi shaxsga tegishli ekanligini ham ko'rsatadi. Egalik sifatlarining quyidagi shakllari mavjud:

Shaxs	Rod	Yagona ega		Ko'p ega	
		1 ta predmet	Ko'p predmet	1 ta predmet	Ko'p predmet
1	m.r. j.r.	mon ma	mes	notre	nos
2	m.r. j.r.	ton ta	tes	votre	vos
3	m.r. j.r.	son sa	ses	leur	leurs

Masalan: **mon livre** - mening kitobim, **ton cahier** - sening daftaring, **son chien** - uning kuchugi, **notre professeur** - bizning o'qituvchimiz, **votre maison** - sizning uyingiz, **leur devoir** - ularning

vazifasi, **ma robe** – mening ko‘ylagim, **ta chaise** – sening stuling, **sa balle** – uning koptogi; **mes leçons** – mening darslarim, **tes frères** – sening akalaring, **ses rues** – uning ko‘chalari, **nos amis** – bizlarning do‘stlarimiz, **vos parents** – sizlarning ota-onalaringiz, **leurs camarades** – ularning o‘rtoqlari.

**Eslatma:** Jenskiy rodga unli harf bilan yoki **h** harfi bilan boshlanuvchi otlar oldida mujskoy rod egalik sifatleri qo‘llaniladi. Masalan:

**mon amie** – mening dugonam, **ton école** – sening maktabing, **son heure** – uning vaqti.

## EGALIK SIFATLARINING QO‘LLANILISHI

Fransuz tilida egalik sifatleri rus va o‘zbek tillariga qaraganda ko‘proq ishlatiladi. Masalan:

**Chaque matin je lis *mon* journal.**

Har kuni ertalab men gazeta o‘qiyman.

**Chaque matin je prends *mon* café.**

Har kuni ertalab men kofe ichaman.

Qarindoshlikni bildiruvchi otlar oldida ham odatda egalik sifatleri qo‘llaniladi. Masalan:

**Ecris-tu souvent à *ton* frère?**

Akangga tez-tez xat yozib turasanmi?

**Je parle à *ma* sœur.**

Men singlimga gapiryapman.

**Il explique la règle à *son* frère.**

U ukasiga qoidani tushuntiryapti.

**Les parents aiment *leurs* enfants.**

Ota-onalar farzandlarini yaxshi ko‘rishadi.

Rus tilidagi egalik sifatlarining **свой, своя, свои** shakllari egalik qiluvchining har qanday shaxsiga tegishli bo‘lishi mumkin. Fransuz tilidagi **son, sa, ses** egalik sifatleri esa faqat 3-shaxs birlikdagi egaga, **leur, leurs** shakllari esa faqat ko‘plikdagi egagagina taalluqlidir. Agar egalik qiluvchi shaxs 1-yoki 2-shaxs (birlik yoki ko‘plikda) bo‘lsa, bu shakllar **uning, ularning** (*ego, ee, ux*) ma‘nosiga ega bo‘ladi. Qiyoslang:

Rus tilida		Fransuz tilida	
Я взял Ты взял Он взял	<i>свою</i> тетрадь.	J'ai pris <i>mon</i> Tu as pris <i>ton</i> Il a pris <i>son</i>	cahier.
Мы взяли Вы взяли Они взяли	<i>свою</i> тетрадь.	Nous avons pris <i>notre</i> Vous avez pris <i>votre</i> Ils ont pris <i>leur</i>	cahier.
Я взял Ты взял Он взял	<i>свои</i> тетради.	J'ai pris <i>mes</i> Tu as pris <i>tes</i> Il a pris <i>ses</i>	cahiers.
Мы взяли Вы взяли Они взяли	<i>свои</i> тетради.	Nous avons pris <i>nos</i> Vous avez pris <i>vos</i> Ils ont pris <i>leurs</i>	cahiers.

**Аmmo:**

Я взял *ego* (*ee*) книги.

J'ai pris *son* livre.

Они взяли *ego* (*ee*) тетради.

Ils ont pris *ses* cahiers.

### QUEL SO'ROQ SIFATI L'ADJECTIF INTERROGATIF QUEL

**Quel** so'roq sifati ham, barcha determinativlar singari artiklning o'rnini egallaydi, rodda, sonda va orfografiyada o'zgaradi, ammo talaffuzda o'zgarmaydi.

**Quel** so'roq sifatining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

Mujskoy rod			Jenskiy rod	
birlik	quel?	qaysi?	quelle?	qaysi?
ko'plik	quels?	qaysi?	quelles?	qaysi?

**Quel** so'roq sifati o'zi aniqlab kelayotgan so'z bilan rodda, sonda moslashadi:

Une porte-plume

Quel porte-plume?

Une place

Quelle place ?

Des patins

Quels patins ?

Des pommes

Quelles pommes ?

## QUEL SO'ROQ SIFATINING ISHLATILISHI

Quel so'roq sifati quyidagi vazifalarda ishlatilishi mumkin:

1) ot kesim vazifasida. Bu holda **quel** bog'lovchi fe'ldan oldin qo'yiladi:

Quel est votre village natal?

Quelle est la capitale de l'Ouzbékistan ?

Quelles sont les villes principales de l'Ouzbékistan ?

2) ega rolidagi otning aniqlovchisi vazifasida. Bunda **quel** otdan oldin qo'yiladi:

Quel mois vient après le mois de janvier?

Quelle saison vient après le printemps ?

Quelles fleuves arrosent l'Ouzbékistan ?

3) vositasiz to'ldiruvchi otning aniqlovchisi vazifasida. Bu holda **quel** to'ldiruvchidan oldin qo'yiladi:

Quelles leçons avez-vous aujourd'hui?

Quelle langue étrangère étudiez-vous ?

Quels auteurs français connaissez-vous ?

### SIFAT L'ADJECTIF

Predmetning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? so'roqlariga javob beruvchi so'z turkumi *sifat* deb ataladi. Fransuz tilida asliy va nisbiy sifatlarning mavjud. Asliy sifatlarning predmetlarning o'zgaruvchan xususiyatlarini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, asliy sifatlarning darajalarga ega bo'lib, bu xususiyatning oz yoki ko'pligini bildiradi. Masalan:

**long – plus long, moins long, aussi long, le plus long** va hokazo.

Barcha tillarda bo'lgani kabi fransuz tilidagi nisbiy sifatlarning boshqa so'z turkumlaridan, ko'pincha otlardan yasaladi va ular predmetning o'zgarmas xususiyatlarini ifoda etadi. Masalan:

**la langue française, une boîte métallique**

Nisbiy sifatlar darajaga emas. Ular gapda aniqlovchi vazifasini bajarib keladi:

**C'est un livre français.**

Rus va o'zbek tilidagi nisbiy sifatlarning ko'pincha fransuz tilida mos keluvchi shakllari mavjud emas, shuning uchun ular fransuz tiliga predlogli ot sifatida tarjima qilinadi. Masalan:

Yog'och stol  
Tilla soat

**Une table de bois**  
**Une montre en or**

### SIFATLARNING JENSKIY RODI

Sifatlar sonda va rodda o'zgaradi. Masalan:

beau – belle  
nouveau – nouvelle  
fou – folle  
mou – molle

Yuqoridagi sifatlar mujskoy rodda 2 ta formaga ega bo'lishlari mumkin: **beau – bel, nouveau – nouvel, fou – fol, mou – mol**. Bu sifatlarning 2-formasi mujskoy rodda unli harf bilan yoki h harfi bilan tugagan otlar oldida ishlatiladi. Masalan:

un *beau* platon – un *bel* arbre  
un *vieux* monsieur – un *vieil* homme  
un *fou* rire – une *fol* espoir

Mazkur sifatlarning jenskiy rodi 2-formadan yasaladi:

bel – belle  
nouvel – nouvelle  
fol – folle  
mol – molle

Asosiy qoidaga binoan, sifatlarning jenskiy rodi mujskoy rod formasiga – e harfini qo‘shish yo‘li bilan yasaladi. Bunda so‘z oxiridagi o‘qilmaydigan undosh talaffuz qilinadi. Masalan:

un cahier bleu – une robe bleue  
un tableau noir – une nuit noire  
un petit garçon – une petite fille  
un grand écrivain – une grande ville

Sifatlarning jenskiy rodini yasashga doir bir qator muhim holatlarni yodda tutishimiz lozim. Jumladan:

1. Mujskiy rodga –e bilan tugovchi sifatlar jenskiy rodga o‘zgarmaydi:

un large pont – une large rue  
un foulard rouge – une pomme rouge

2. Mujskoy rodga –eux bilan tugovchi sifatlar jenskiy rodga –euse qo‘shimchasini oladi:

un homme heureux – une femme heureuse  
un étudiant paresseux – une étudiante paresseuse

3. Mujskoy rodga er, –ier bilan tugovchi sifatlar jenskiy rodga –ère, –ière qo‘shimchasini oladi:

un vent léger – une robe légère  
un touriste étranger – une population étrangère  
le monde entier – la journée entière

4. Mujskoy rodga –f bilan tugovchi sifatlar jenskiy rodga –ve qo‘shimchasini oladi:

un garçon naïf – une question naïve  
un costume neuf – une robe neuve

5. Mujskoy rodga –et, –el, –eil, –ien, –on bilan tugovchi sifatlarda jenskiy rodga oxirgi undosh ikkilanadi:

un frère cadet – une soeur cadette  
un refus formel – une réponse formelle  
un paysan européen – une langue européenne  
un monument ancien – une ville ancienne

un bon caractère – une bonne note

Eslatma: Mujskoy rodida **-et** bilan tugovchi quyidagi sifatlar jenskiy rodida **-ète** qo‘shimchasini oladi:

un jour inquiet – une situation inquiète

un homme concret – une réponse concrète

un tableau complet – une table complète

un désir secret – une porte secrète

un écolier discret – une femme discrète

un film indiscret – une question indiscrète

6. Mujskoy rodida **-al, -in, -ain, -un** bilan tugovchi sifatning jenskiy rodi asosiy qoidaga binoan **-e** qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan yasaladi:

un problème national – une fête nationale

un appartement voisin – une chambre voisine

un paysan américain – une compagnie américaine

un équipage commun – une tâche commune

7. Mujskoy rodida **-eur** bilan tugovchi sifatlar jenskiy rodida **-euse** qo‘shimchasini oladi:

un rire moqueur – une voix moqueuse

un élève rêveur – une expression rêveuse

Eslatma: Mujskoy rodida **-eur** bilan tugovchi ba’zi bir sifatlar jenskiy rodida asosiy qoidaga binoan **-e** qo‘shimchasini oladi:

meilleur – meilleure

antérieur – antérieure

postérieur – postérieure

supérieur – supérieure

inférieur – inférieure

intérieur – intérieure

extérieur – extérieure

8. Mujskoy rodida **-teur** bilan tugovchi sifatlar jenskiy rodida **-trice** qo‘shimchasini oladi:

un ton protecteur – une ombre protectrice

un homme créateur – une femme créatrice

9. Mujskoy rodida **-gu** bilan tugovchi sifatlar jenskiy rodida **-ë** qo'shimchasini oladi:

aigu – aiguë

10. Fransuz tilida ba'zi bir sifatlarning jenskiy rodi o'ziga xos usulda yasaladi, ularni yod olish zarur:

long – longue

frais – fraîche

sec – sèche

blanc – blanche

franc- franche

public – publique

grec – grecque

turc – turque

caduc - caduque

sot – sotte

favori – favorite

doux – douce

roux – rousse

faux - fausse

jaloux – jalouse

gentil – gentille

bas – basse

gros – grosse

gras – grasse

épais – épaisse

jumeau – jumelle

## SIFATLARNING KO'PLIK FORMASI LE PLURIEL DES ADJECTIFS

1. Asosiy qoidaga binoan sifatlarning ko'pligi birlik shakli oxiriga – s harfini qo'shish yo'li bilan yasaladi:

une belle place – des belles places

un vase bleu – des vases bleus

un projet fou – des projets fous

2. Birlikda – s, - x harflari bilan tugaydigan sifatlar ko'plikda o'zgarmaydi:



un gros bouquet – des gros bouquets  
un homme roux – des hommes roux  
un élève paresseux – des élèves paresseux

3. Birlikda –**eau** qo‘shimchasi bilan tugaydigan sifatlar ko‘plikda –  
**eaux** qo‘shimchasini oladi:  
un beau parc – des **beaux** parcs

4. Birlikda –**al** qo‘shimchasi bilan tugaydigan sifatlar ko‘plikda –  
**aux** qo‘shimchasini oladi:  
un conseil amical – des conseils **amicaux**  
un vent tropical – des vents **tropicaux**

Eslatma: Birlikda –**al** qo‘shimchasi bilan tugaydigan quyidagi  
sifatlar ko‘plikda asosiy qoidaga binoan –**s** qo‘shimchasini oladi:

banal – banals  
natal – natals  
final – finals  
glacial – glacials  
fatal – fatals  
frugal – frugals  
naval – navals

## SIFAT DARAJALARI DEGRES DE COMPARAISON DES ADJECTIFS

Sifatlar uch xil darajaga ega:

1. oddiy daraja – le positif
2. qiyosiy daraja – le comparatif
3. ortirma daraja – le superlatif

Sifatlarning qiyosiy darajasi sifat oldiga **aussi, plus, moins** ravishlarini, sifatdan keyin esa **que** bog‘lovchisini qo‘shish yo‘li bilan yasaladi. Masalan:

L’hiver est *aussi* beau *que* l’été.  
L’été est *plus* chaud *que* le printemps.  
Le printemps est *moins* chaud *que* l’été.

Sifatlarning orttirma darajasini hosil qilish uchun **plus, moins** ravishlarini aniq artikllarning biri bilan sifatning oldiga qo'yish kerak, sifatdan keyin esa **de** predlogini qo'yish lozim. Masalan:

L'été est *la plus* chaude saison *de* l'année.  
 C'est l'étudiant *le plus* actif *de* nous tous.  
 Le 22 juin est le jour *le plus* long *de* l'année.  
 Dildora est une fille *la moins* belle *de* ses copines.

Bir qator sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalari o'ziga xos ko'rinishga ega. Ularni eslab qoling:

le positif	le comparatif	le superlative
bon, -ne	meilleur	le (la, les) meilleur (e)
mauvais, -e	pire plus mauvais	le (la, les) pire le (la, les) plus mauvais (e)
petit, -e	plus petit moindre	le (la, les) plus petit (e) le (la, les) moindre

Masalan:

En 2005 la récolte était *bonne*.  
 En 2005 la récolte a été *meilleure* que l'année passée.  
 Cette année la récolte sera *la meilleure* (de tous les ans).  
 Mom verger est *petit*.  
 Ce verger est *plus petit que* le tien.  
 Son verger est *le plus petit de* tous les vergers.

**Plus petit (le plus petit)** aniq predmetlar haqida gap ketganda qo'llaniladi. **Moindre (le moindre)** esa mavhum ma'noga ega. Gaplarni qiyoslang:

**Ma chambre est plus petite que la vôtre.**  
 Mening xonam sening xonangga qaraganda kichikroq.  
**Il n'avait pas la moindre envie de plaisanter.**  
 Uning hazillashishga zarracha ham ishtiyoqi yo'q edi.  
**L'écriture de Karim est mauvaise.**  
**L'écriture de Zoïr est plus mauvaise (pire) que celle de Karim.**  
**L'écriture de Rahim est la mauvaise (la pire) de notre groupe.**

## SIFATNING GAPDAGI VAZIFASI LE RÔLE DE L'ADJECTIF

Sifat gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) *aniqlovchi vazifasini*:

Il nous a raconté une histoire *intéressante*.

2) *ot kesim vazifasini*:

L'histoire qu'il nous a racontée est *intéressante*.

## SIFATNING GAPDAGI O'RNI PLACE DE L'ADJECTIF

Aniqlovchi vazifasida kelgan sifat otdan oldin ham, otdan keyin ham qo'yilishi mumkin.

1) Ko'p ishlatiladigan sifatlar odatda otdan oldin qo'yiladi:

un *bon* garçon

un *beau* paysage

un *gentil* garçon

une *grande* maison

un *jeune* homme

un *joli* jardin

un *mauvais* caractère

une *petite* table

une *longue* vie

un *nouveau* travail

un *ancien* village

une *grosse* somme

2) Odatda, quyidagi sifatlar otdan keyin qo'yiladi:

a) rang, shakl, millatni bildiruvchi sifatlar:

un chien *jaune*

une table *ronde*

un livre *français*

b) ko'p bo'g'inli sifatlar:

un pays *pittoresque*

une situation *extraordinaire*

c) sifatdoshlardan yasalgan sifatlar:

une nouvelle *importante*

un soldat *blessé*

d) o'zidan keyin biror-bir to'ldiruvchiga ega bo'lgan sifatlar:

une maison *haute de trois étages*

3) ot bir necha sifatlar yordamida aniqlanayotgan bo'lsa, ularning biri otdan oldin, boshqasi esa otdan keyin qo'yiladi:

Ils sont entrés dans une *grande* salle *propre*.

4) otdan oldin yoki otdan keyin qo'yilganligiga qarab ayrim sifatlar quyidagi iboralarda o'z ma'nosini o'zgartirib yuboradilar:

un homme *grand*

baland bo'yli odam

un homme *brave*

jasur odam

un homme *pauvre*

kambag'al odam

un homme *honnête*

halol odam

les mains *propres*

toza qo'llar

un *grand* homme

buyuk odam

un homme *brave*

halol odam

un *pauvre* homme

baxtsiz odam

un *honnête* homme

vijdonli, odobli odam

les *propres* mains

o'z qo'llari

5) Ot kesim vazifasida kelgan sifat har doim yordamchi fe'ldan keyin qo'yiladi:

Sa sœur est *heureuse*.

## SIFATLARNING MOSLASHUVI ACCORD DES ADJECTIFS

Aniqllovchi vazifasida kelgan sifat o'zi tegishli bo'lgan ot bilan sonda va rodda moslashadi:

Elle a acheté une très *belle* robe.

Les étudiants lisent des articles *intéressants*.

La radio annonce les nouvelles *intéressantes*.

Ot kesim vazifasida kelgan sifat ega bilan sonda va rod-da moslashadi:

Sardor est très *capricieux*.

Dildora est si *belle*.

Les étudiants de notre groupe sont très *attentifs*.

Bir necha otlarga tegishli bo'lgan sifatlar ko'plikda qo'yiladi:

a) agar otlarning ikkalasi ham mujskoy rod-da bo'lsa, sifat mujskoy rod ko'plikda qo'yiladi:

Elle a acheté un chapeau et un paletot *neufs*.

Anvar a tiré de sa serviette un cahier et un livre *bleus*.

b) agar otlarning ikkalasi ham jenskiy rod-da bo'lsa, sifat jenskiy rod ko'plikda qo'yiladi:

On lui a montré une robe et une jupe *neuves*.

Le malade regardait les feuilles et l'herbe *vertes*.

c) agar otlarning ikkalasi ham turli rodlarda bo'lsa, sifat mujskoy rod ko'plikda qo'yiladi:

La fillette a acheté un chapeau et une robe *neufs*.

A la façon de français nous avons lu un livre et une revue *intéressants*.

## SON NOM DE NOMBRE

Fransuz tilida ham sonlar ikkiga bo'linadi: sanoq sonlar va tartib sonlar.

Sanoq sonlar predmetlarning yoki shaxslarning sonini ifodalaydi:

Il a mangé *trois* pommes.

*Vingt* étudiants sont venus à la réunion.

Tartib sonlar predmetlarning yoki shaxslarning tartibini ifodalaydi:

Sarvar a gagné la *deuxième* place à la compétition.

Je le vois pour la *première* fois.

Sanoq sonlarning oldida artikl ishlatilmaydi:

Cette chambre a *quatre* fenêtres.

Bu xonaning to'rtta derazasi bor.

**Eslatma:** Sanoq sonli ot oldida aniq artikl yoki determinativ qo'yilishi mumkin. Bunda u barchasi, hammasi, ikkovi ham kabi ma'nolarga ega bo'ladi:

Les quatre fenêtres de cette chambre donnent sur la rue.

Bu xonaning to'rtta derazasining hammasi ko'chaga qaragan edi.

Sanoq sonlar sodd sanoq sonlarga va qo'shma sanoq sonlarga bo'linadi.

0 dan 16 gacha, 20 dan 60 gacha bo'lgan o'nliklar, 100, 1000 sonlari sodd sanoq sonlardir.

17 dan 19 gacha, 21 dan boshlab o'nliklar va birliklar, 200 dan 900 gacha bo'lgan yuzliklar, yuzliklar, o'nliklar va birliklar qo'shma sanoq sonlardir.

## SANOQ SONLAR

1 – un	11 – onze	21 – vingt et un
2 – deux	12 – douze	22 – vingt-deux
3 – trois	13 – treize	30 – trente
4 – quatre	14 – quatorze	40 – quarante
5 – cinq	15 – quinze	50 – cinquante
6 – six	16 – seize	60 – soixante
7 – sept	17 – dix-sept	70 – soixante-dix
8 – huit	18 – dix-huit	80 – quatre-vingts
9 – neuf	19 – dix-neuf	90 – quatre-vingt-dix
10 – dix	20 – vingt	100 – cent

### Eslatma:

1. Faqat o'nliklar va birliklar bir-biri bilan chiziqcha orqali bog'lanadi:

**vingt-trois, cinquante-deux**

Ammo:

**deux cent vingt, trois mille quatre cent deux**

2. 21, 31, 41, 51, 61 sonlarida **un** soʻzidan oldin hamda 71 sonida **onze** soʻzidan oldin **et** bogʻlovchisi qoʻyiladi:

**vingt et un, trente et un, quarante et un, cinquante et un, soixante et un, soixante et onze.**

3. 81 dan boshlab esa **et** bogʻlovchisi qoʻshilmaydi:  
**quatre-vingt-un, quatre-vingt-onze, cent un.**

4. Vaqtni koʻrsatuvchi iboralarda à predlogi ishlatiladi:  
**à quelle heure ?** – soat nechada ?

**A cinq heures** – soat 5 da.

**A 11 heures** – soat 11 da.

**A quelle heure dînez-vous ?** Nous dînons à 5 heures.

### Sanoq sonlar talaffuzi va yozilishining oʻziga xos xususiyatlari

#### Talaffuzdagi xususiyatlar

*cinq, six, sept, huit, neuf, dix* sonlarida oxirgi undosh oʻqiladi, agar:

1) ular mustaqil ishlatilgan boʻlsa:

*cinq, sept, huit, neuf*

2) ular unli harflar bilan boshlanadigan otlar oldida qoʻllanilgan boʻlsa:

**cinq avions**

**sept enfants**

**neuf élèves**

*six, dix* sonlarida oxirgi undosh [s] shaklida talaffuz qilinadi, ammo qoʻshilishda oxirgi undosh [z] kabi talaffuz qilinadi:

**six arbres**

**dix images**

*neuf* sonidagi f harfi *heure* va *an* otlari bilan birikmada [v] kabi talaffuz qilinadi:

**neuf heures**

**neuf ans**

3) otlar undosh harflar bilan boshlansa oxirgi undosh talaffuz qilinmaydi:

**dix cahiers**

20 – vingt soʻzidagi oxirgi **t** oʻqilmaydi, ammo 21 dan 29 gacha boʻlgan sonlarda oxirgi **t** oʻqiladi:

**vingt et un, vingt-deux**

### **Yozilishdagi xususiyatlar**

1) *mille* soni hech qachon sonda oʻzgarmaydi, ammo uning *mil* koʻrinishi boʻlib, u eramizning sanalarida yoziladi:

**deux mille habitants**

**mil neuf cent soixante-deux**

2) *million* va *milliard* sonlari har doim koʻplikda *s* qoʻshimchasini oladi. Toʻldiruvchi unga *de* predlogi bilan bogʻlanadi:

trois millions *de* roubles

deux milliards *d'*habitants

3) *quatre-vingts* soni agar oʻzidan keyin boshqa son kelmasa *s* harfini oladi:

**quatre-vingts personnes**

ammo:

**elle a quatre-vingt-deux ans**

4) *cent* soni agar oʻzidan keyin boshqa son kelmasa koʻplikda *s* harfini oladi:

trois cents visiteurs

ammo:

deux cent vingt ouvriers

## **TARTIB SONLAR**

Tartib sonlar sodda va qoʻshma tartib sonlarga boʻlinadi.

Tartib sonlar sanoq sonlarning oxiriga **-ième** qoʻshimchasini qoʻshish yoʻli bilan yasaladi:



1 – unième	11 – onzième	21 – vingt et unième
2 – deuxième	12 – douzième	22 – vingt-deuxième
3 – troisième	13 – treizième	30 – trentième
4 – quatrième	14 – quatorzième	40 – quarantième
5 – cinquième	15 – quinzième	50 – cinquantième
6 – sixième	16 – seizième	60 – soixantième
7 – septième	17 – dix-septième	70 – soixante-dixième
8 – huitième	18 – dix-huitième	80 – quatre-vingtième
9 – neuvième	19 – dix-neuvième	90 – quatre-vingt-dixième
10 – dixième	20 – vingtième	100 – centième

Odatda tartib sonlar oldida aniq artikl yoki qandaydir determinativ ishlatiladi:

la deuxième question  
notre troisième excursion

### Tartib sonlarni yasashdagi o'ziga xos xususiyatlar

1) –e harfiga tugovchi sanoq sonlarga – ième suffiksi qo'shilganda –e tushib qoladi:

quatre – quatrième  
onze – onzième  
douze – douzième

2. *un, une* sanoq soniga *premier, première* tartib soni to'g'ri keladi:  
Qo'shma tartib sonlarda, *unième* shakli qo'llanilib, u boshqa songa *et bog'lovchisi* yordamida birikadi:  
*vingt et unième*

3. Sonlarning oxirida talaffuz qilinmaydigan *s, x* harflari *z* tarzida talaffuz etiladi:  
*troisième*  
*dixième*

4. *Cinq* soniga qo'shimcha qo'shilganda *u* harfi qo'shiladi:  
*cinq – cinquième*

5. *Neuf* soniga qo'shimcha qo'shilganda *f* harfi *v* ga o'zgaradi:  
*neuf - neuvième*

6. **Deuxième** tartib soni bilan bir qatorda **second, seconde** tartib soni ham mavjud bo'lib, u faqat ikkita predmet haqida so'z yuritilgandagina ishlatiladi:

Ouvrez **la seconde** fenêtre !

C'est **ma seconde** mère.

### Sanoq sonlarning tartib sonlar o'rnida qo'llanilishi

Quyidagi hollarda tartib sonlar sanoq sonlar bilan almashtiriladi:

1) sanalarni ifodalashda:

le *sept* janvier

ettinchi yanvar

le *huit* mars

sakkizinchi mart

**Istisno:** premier

le *premier* mai

birinchi may

le *premier* octobre

birinchi oktyabr

2) sahifa, jild, bob, paragraf, nomerlarni ifodalashda (otdan keyin):

page *quatre*

to'rtinchi sahifa

tome *deux*

ikkinchi tom

chapitre *cinq*

beshinchi bob

numéro *dix*

o'ninchi raqam

3) monarxlarning nomlarini ifodalashda:

Louis *seize*

Pierre *trois*

**Ammo:**

Pierre *premier*

### Sonning gapdagi vazifasi

Sanoq son gapda quyidagi vazifalarni bajarib keladi:

1) *ega vazifasini:*

**Deux et trois font cinq.**

2) *aniqlovchi vazifasini:*

**Je mange deux pommes.**

3) *ot kesim vazifasini:*

**Nous sommes dix dans notre groupe.**

Tartib son gapda quyidagi vazifalarni bajarib keladi:  
*aniqlovchi vazifasini:*

**C'est notre deuxième leçon.**

### **Sonning gapdagi o'rni**

Sanoq sonlar odatda gapda quyidagi o'rinlarga qo'yiladi:

a) *otdan oldin:*

**trois cerises, vingt étudiants**

b) agar sanoq son tartib son ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, u holda *otdan keyin:*

**la page cinq**

**Istisno: sanalarda**

**le cinq mars**

Tartib sonlar odatda *otdan oldin* qo'yiladi:

**le deuxième acte**

**la cinquième leçon**

### **OLMOSH PRONOM**

Shaxs va predmetlarni ko'rsatuvchi, ammo uni atamaydigan so'z turkumiga olmosh deyiladi. Olmosh otning o'rnini yoki butunlay bir fikrni ifodalab keladi va gapda ot bajaradigan vazifalarni ado etadi.

Olmoshlar o'z ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1) kishilik olmoshlari (o'zlik olmoshlarini ham qo'shib)

2) ko'rsatish olmoshlari

3) egalik olmoshlari

4) nisbiy olmoshlar

5) so'roq olmoshlar

6) noaniq olmoshlar

## KISHILIK OLMOSHLARI (PRONOMS PERSONNELS)

Fransuz tilida quyidagi kishilik olmoshlari mavjud:

1). **Urgʻusiz kishilik olmoshlari (Pronoms personnels coinjoints atones).** Urgʻusiz kishilik olmoshlari har doim fe'l bilan birga keladi va gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

Son	Shaxs	Ega (sujet)	Vositasiz toʻldiruvchi (COD)	Vositali toʻldiruvchi (COID)(datif)
Sing.	1	je	me	me
	2	tu	te	te
	3	il, elle	le, la	lui
Pl.	1	nous	nous	nous
	2	vous	vous	vous
	3	ils, elles	les	leur

Urgʻusiz kishilik olmoshlari har doim fe'ldan oldin, agar gapda yordamchi fe'l mavjud bo'lsa, yordamchi fe'ldan oldin qo'yiladi. Masalan:

Je vais à l'école.

Il ne les attend pas.

Vous aide-t-il?

Il m'a prévenu.

Ne les attendez pas.

Urgʻusiz kishilik olmoshlari infinitivdan oldin qo'yiladi:

Nous allons de **vous** téléphoner.

Ils viennent de **le** rencontrer.

Buyruq gaplarning bo'lishli formasida esa urgʻusiz kishilik olmoshlari fe'ldan keyin qo'yiladi. **Me** olmoshi o'rnida urgʻuli **moi** kishilik olmoshi ishlatiladi:

Attendez-nous.

Répondez-lui.

Ecrivez-leur.

Accompagnez-moi.

## «LE» SREDNIY ROD KISHILIK OLMOSHI PRONOM PERSONNEL «LE» NEUTRE

«Le» sredniy rod kishilik olmoshi artiklsiz otlar yoki sifatlar oʻrnida ishlatiladi. Masalan:

**Sont-ils étudiants? – Oui, ils le sont.**

Ular talabami? Ha (ular talaba).

**Etes-vous contents? – Nous le sommes.**

Hursandmisiz? Hursandmiz.

Le olmoshi butun bir gapning oʻrnida kela oladi. U holda olmosh u, bu, shu, oʻsha (cela, ceci) tarzida tarjima qilinadi:

**Comprenez-vous tout ce qu'il dit en français? – Oui, je le comprends.**

Uning fransuzcha aytayotgan hamma gapini tushunyapsizmi? – Ha, uni tushunyapman.

Le sredniy rod kishilik olmoshi har doim feʼldan oldin keladi. Masalan:

Je **le** sais. Il ne **le** fera pas. L'avez-vous entendu? Ne l'est-ce pas? Ne **le** dis à personne!

Lekin buyruq maylining boʻlishli formasida **le** sredniy rod kishilik olmoshi feʼldan keyin qoʻyiladi:

Faites-**le!** Répétez-**le!**

### 2. Urgʻuli kishilik olmoshlari (Pronoms personnels toniques)

Urgʻuli kishilik olmoshlarining quyidagi formalari mavjud:

Singulier			Pluriel		
1re pers.	2e pers.	3e pers.	1re pers.	2e pers.	3e pers.
moi	toi	lui, elle	nous	vous	eux, elles

Urgʻuli kishilik olmoshlari gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. *Ega*:

*Lui et moi nous sommes amis.*

Moi aussi je le connais.

2. *Vositasiz to 'ldiruvchi:*

Je les ai rencontrai hier, *lui* et sa femme.

C'est *toi* que je cherche.

3. *Vositali to 'ldiruvchi:*

C'est à *elles* que je m'adresse.

Nous ne sommes pas contents *de vous*.

Urg'uli kishilik olmoshlari quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. *Elliptik (qisqargan, noto 'liq) gaplarda fe 'lsiz:*

Qui est de service aujourd'hui? – **Moi**.

Qui avez-vous vu? – **Lui**.

2. *Egani, vositasiz yoki vositali to 'ldiruvchini ta'kidlab ko 'rsatish uchun;*

**Moi**, je le connais bien.

Je le connais bien, **lui**.

3. *Ajratib ko 'rsatish uchun:*

C'est **elle** qui me l'a dit.

Ce sont **eux** que je cherche.

4. *Gapda ikkita ega yoki ikkita to 'ldiruvchi mavjud bo 'lsa:*

Mon ami et **moi** nous aimons la peinture.

On vous invite **toi** et **lui**.

5. *Même, seul, aussi so 'zlari bilan birga:*

Ils le savent **eux-mêmes**.

**Moi** seul connais son adresse.

**Lui** aussi veut visiter ce musée.

6. *Predlogli to 'ldiruvchi sifatida turli predloglar bilan:*

Nous allons chez **eux**.

Je compte sur **toi**.

Ils sont partis sans **lui**.

7. *qiyoslashda*:

Il écrit plus vite que **toi**.

**Eslatma:** à predlogi bilan ishlatiladigan fe'llarning ko'pchiligi urg'usiz kishilik olmoshi (pronom personnel conjoint datif) ishlatilishini talab qiladi. Bu olmoshlar à predlogidan keyin kelayotgan otlarning o'rnini egallaydi. Masalan:

Je téléphone à **mon ami**. Je **lui** téléphone.

J'écris à **ma soeur**. Je **lui** écris.

Il parle à **mes parents**. Il **leur** parle.

Ammo à predlogi bilan ishlatiladigan *penser, s'intéresser, s'adresser, aller, courir, faire attention* fe'llari à predlogidan keyin urg'uli kishilik olmoshlari ishlatilishini talab qiladi. Masalan:

Je pense à **mon ami**. Je pense à **lui**.

Adressez-vous à **cette personne**. Adressez-vous à **elle**.

Je m'intéresse à **ses camarades**. Je m'intéresse à **eux** (à **elles**).

Fransuz tilida yana urg'uli kishilik olmoshlaridan «**soi**» o'zlik olmoshi (**le pronom réfléchi**) ham mavjud. U asosan «**se**» olmoshining urg'uli ko'rinishi bo'lib, eganing umumiy ma'noda olinganini ifodalaydi:

L'égoïste pense qu'à **soi**.

Agar ega noaniq olmosh bo'lsa yoki *chacun, personne, nul, tout le monde* so'zlari bilan ifodalangan bo'lsa «**soi**» qo'llaniladi:

On doit avant tout être exigeant envers **soi-même**.

Chacun travaillait pour **soi**.

«**Soi**» olmoshi shaxssiz fe'ldan keyin ishlatiladi:

Il ne faut penser qu'à **soi**.

«**Soi**» olmoshi bo'lishsiz formadagi fe'l bilan ishlatiladi:

n'aimer que **soi**

avoir confiance en **soi**

**Eslatma:** Agar ega ma'lum bo'lsa, urg'uli kishilik olmoshlari ishlatiladi. Masalan:

L'égoïste ne pense qu'à *soi*.  
Paul ne pensait qu'à *lui*.

## TO'LDIRUVCHI VAZIFASIDAGI OLMOSHLARNING GAPDAGI O'RNI

Agar gapda vositasiz va vositali to'ldiruvchi vazifasida ikki olmosh kelsa ular fe'ldan oldin, 1-vositali to'ldiruvchi, 2-vositasiz to'ldiruvchi qo'yiladi. Masalan:

Il *me le* montrera.  
Il ne *te le* dira pas.  
Vous *les a-t-il* rendus?  
Il va *nous l'*expliquer.

Agar to'ldiruvchi vazifasidagi olmoshlarning har ikkisi ham 3-shaxsda bo'lsa, tartib aksinchadir, ya'ni oldin vositasiz to'ldiruvchi, keyin esa vositali to'ldiruvchi qo'yiladi. Masalan:

Il *la leur* expliquera.  
Il *les lui* a achetés.

## BUYRUQ MAYLIDA OLMOSHLARNING O'RNI

Buyruq maylida ikkala olmosh fe'ldan keyin qo'yiladi, bunda birinchi bo'lib vositasiz to'ldiruvchi vazifasidagi olmosh, so'ngra vositali to'ldiruvchi vazifasidagi olmosh qo'yiladi:

Promets-*le-moi*!  
Donnez-*les-nous*!  
Montre-*la-lui*!

Buyruq maylining inkor formasida esa aksincha, oldin vositali to'ldiruvchi, keyin vositasiz to'ldiruvchi vazifasidagi olmoshlar qo'yiladi:

Ne *me le* promets pas!  
Ne *nous les* donnez pas!  
Ne *la lui* montre pas!

## « ON » OLMOSHI

On gumon olmoshi o'zbek tiliga asosan tarjima qilinmaydi:



*On sonne. Qo'ng'iroq chalinyapti.*  
*On chante. Kuylashayapti.*

Ammo ayrim hollarda (ko'pincha og'zaki nutqda) gap kim haqida borayotganligiga qarab **on** gumon olmoshi ham o'sha shaxsdagi olmosh bilan tarjima qilinishi mumkin. Masalan:

**Les étudiants aiment les sports: on joue au football, au tennis.**  
Talabalar sportni sevadilar: ular futbol, tennis o'ynaydilar.

Shu jumladagi **on** gumon olmoshi 3-shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshi (ular) ma'nosida qo'llanilgan.

### «Y» KISHILIK OLMOSHI

«Y» kishilik olmoshi «à» yoki «sur» predloglari bilan kelgan predmet nomlarini bildiruvchi vositali to'ldiruvchilarni ifodalaydi, uning o'rni egallaydi va fe'ldan oldin qo'yiladi. Masalan:

Je penserai <u>à cette affaire.</u>	Men bu ish haqida o'ylayman.
J'y penserai.	Men u haqida o'ylayman.
Je compte <u>sur son aide.</u>	Men uning yordamiga ishonaman.
J'y compte.	Men unga ishonaman.

«Y» kishilik olmoshi butun bir gapni ham ifodalab kelishi mumkin, bunda u (**à cela**- bu haqda) degan ma'noni ifodalaydi:

**Je penserai à ce que vous dites. J'y penserai. (y = à cela)**

Fe'loldi olmoshlari kabi «y» olmoshi doimo fe'ldan oldin keladi (buyruq maylidan tashqari):

**J'y pense.**  
**Je n'y ai pas pensé.**  
**Y as-tu pensé?**

Agar gapda to'ldiruvchi vazifasidagi yana bir fe'loldi olmoshi bo'lsa, «y» olmoshi undan so'ng qo'yiladi:

**Je les y ai aidés.**  
**Il ne s'y intéresse pas.**  
**T'y es-tu habitué?**

**Diqqat!** Vositali to‘ldiruvchilar oldida o‘zidan keyin à predlogini talab qiluvchi fe‘l va fe‘lli iboralarni yodlang, chunki bu to‘ldiruvchilarni «y» olmoshi bilan almashtirish mumkin:

**répondre** à qch – biror narsaga javob bermoq

**penser** à qch – o‘ylamoq

**réfléchir** à qch – fikrlamoq

**consentir** à qch – rozi bo‘lmoq

**toucher** à qch – tegmoq

**aider** qn, à qch – yordam bermoq

**faire attention** à qch – diqqat qilmoq, e’tibor qaratmoq

**s’abonner (être abonné)** à qch – obuna bo‘lmoq, yozilmoq

**obliger** qn à qch – birovni biror narsaga majbur qilmoq

**être prêt** à qch – tayyor bo‘lmoq

**s’intéresser** à qch – qiziqmoq

**s’habituer** à qch – ko‘nikmoq

**se préparer** à qch – tayyorlanmoq

**participer** à qch – qatnashmoq, ishtirok etmoq

**prendre part** à qch – qatnashmoq, ishtirok etmoq

«Y» olmoshi buyruq maylida fe‘ldan keyin keladi, ammo buyruq maylining inkor formasida fe‘ldan oldin qo‘yiladi:

Réponds-y!

N’y réponds pas!

Penses-y!

N’y pense pas!

Aidez-les-y!

Ne les y aidez pas!

Habituez-vous-y!

Ne vous y habituez pas!

Prépare-t’y!

Ne t’y prépare pas!

### «EN» KISHILIK OLMOSHI

«En» olmoshi gap predmet va hayvonlar haqida ketayotganda «de» predlogi yordamida kiritilgan vositali to‘ldiruvchilarni ifodalaydi va fe‘ldan oldin qo‘yiladi:

Je suis sûr de son amitié. J’en suis sûr.

«En» kishilik olmoshi butun bir gapni ham ifodalab kelishi mumkin, bunda u (**de cela**- bu haqda) degan ma’noni ifodalaydi:

Je suis sûr de ce que je dit. J’en suis sûr. (**en – de cela**)

## «EN» OLMOSHINING O'RNINI

Barcha fe'loldi olmoshlari kabi «en» olmoshi doimo fe'ldan oldin keladi (buyruq maylidan tashqari):

Il *en* parle.

Il n'*en* parle pas.

*En* a-t-il parlé?

Agar gapda to'ldiruvchi vazifasidagi yana bir fe'loldi olmoshi bo'lsa, «en» olmoshi undan so'ng qo'yiladi:

Je m'*en* occupe.

Il ne leur *en* a pas parlé.

Vous *en* servez-vous?

**Diqqat!** Vositali to'ldiruvchilar oldida o'zidan keyin de predlogini talab qiluvchi fe'l va fe'lli iboralarni yodlang, chunki bu to'ldiruvchilarni «en» olmoshi bilan almashtirish mumkin:

**parler** de qch – biror narsa haqida gapirmoq

**profiter** de qch – foydalanmoq

**souffrir** de qch – qiynalmoq

**s'approcher** de qch – yaqinlashmoq

**se servir** de qch – foydalanmoq

**s'occuper** de qch – shug'ullanmoq, band bo'lmoq

**se moquer** de qn, de qch – birovning, biror narsaning ustidan kulmoq

**s'inquêter** de qch – xavotir olmoq, xavotirlanmoq

**se passer** de qch – eplamoq, amallashtirmoq, kifoyalanmoq

**orner** de qch – bezamoq

**couvrir** de qch – yopmoq, qoplamoq

**remplir** de qch – to'latmoq

**entourer** de qch – o'ramoq

**avoir peur** de qch – qo'rqmoq

**avoir honte** de qch – uyalmoq

**avoir envie** de qch – xohlamoq

**être content** de qch – xursand bo'lmoq

**être sûr** de qch – ishonchi komil bo'lmoq

**être fier** de qch – mag'rurlanmoq

être étonné (surpris) de qch – hayron bo'lmoq, ajablanmoq  
 s'étonner de qch – lol qolmoq, ajablanmoq  
 être plein de qch – to'la bo'lmoq  
 être satisfait de qch – qanoatlanmoq  
 être responsable de qch – javobgar bo'lmoq, mas'ul bo'lmoq  
 être confus de qch – hafsalasi pir bo'lmoq

«En» olmoshi buyruq maylida fe'ldan keyin keladi, ammo buyruq maylining inkor formasida fe'ldan oldin qo'yiladi:

Parlons-*en*! N'*en* parlons pas!  
 Profites-*en*! N'*en* profite pas!  
 Parle-lui-*en*! Ne lui *en* parle pas!  
 Servez-vous-*en*! Ne vous *en* servez pas!  
 Sers-t'*en*! Ne t'*en* sers pas!

**Eslatma:** «en» olmoshi oldida **moi, toi** urg'uli kishilik olmoshlari **me, te** urg'usiz kishilik olmoshi bilan almashadi:  
 Sers-t'*en*! Parle-*m'en*!

### KO'RSATISH OLMOSHLARI PRONOMS DEMONSTRATIFS

Fransuz tilida ko'rsatish olmoshlarining sodda va qo'shma shakllari mavjud. Ular quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

Shakllar	Birlik			Ko'plik	
	muj.r.	jen.r.	sr.r.	muj.r.	jen.r.
Sodda shakli	celui	celle	ce	ceux	celles
Qo'shma shakli	celui-ci celui-là	celle-ci celle-là	ceci cela, ça	ceux-ci ceux-là	celles-ci celles-là

Qo'shma shakllarning mujskoy va jenskiy rodida **ci, là** yuklamalari *celui-ci celui-là* shaklida olmoshga chiziqcha orqali bog'lanadilar, sredniy rodida esa *ceci, cela* shaklida olmosh bilan qo'shilib ketadilar.

### Ko'rsatish olmoshlarining ishlatilishi

Mujskoy va jenskiy rod ko'rsatish olmoshlari shaxsni yoki predmetni bildiruvchi otlarning o'rnini egallaydilar va bu otlarning rodi va sonini qabul qiladilar. Masalan:

Voici mes deux camarades.  
Ce camarade-ci étudie le français.  
*Celui-ci* étudie le français.  
Ce camarade-là étudie l'anglais.  
*Celui-là* étudie l'anglais.

Ko'rsatish olmoshlarining sodda shakllari **celui, celle, ceux, celles** mustaqil ishlatilmaydi, ular doimo o'zlari to'ldirib kelayotgan so'zlar oldida keladilar, bu so'zlar esa quyidagilar bilan ifoda qilinishi mumkin:

a) *ergashgan aniqlovchi gap bilan:*

Jeune de France, vous étiez de *ceux* qui se battaient sur les barricades de la Commune de Paris (J. Duclos).

Fransiya yoshlari, sizlar Parij kommunasi barrikadalarida kurashganlar safida bo'ldingiz.

b) *de predlogli to'ldiruvchi bilan:*

Rendez à la bibliothèque mes livres et *ceux* de mes camarades.

Kutubxonaga mening kitoblarimni va o'rtoqlarimning kitoblarini topshiring.

**Eslatma:** *de* predlogli to'ldiruvchi oldidagi ko'rsatish olmoshlari o'zbek va rus tillariga tarjima qilinganda, o'zlari o'rnini egallab kelayotgan ot bilan almashtiriladi.

### Sredniy rod ko'rsatish olmoshlarining ishlatilishi

Sredniy roddagi ko'rsatish olmoshlari aniq bir otning o'rnini egallamaydilar, ular faqat so'z yuritilayotgan predmetni ko'rsatadilar.

Ce ko'rsatish olmoshi yordamchi so'z bo'lib, quyidagi hollarda qo'llaniladi:

a) être fe'lidan oldin ega vazifasida:

C'est un grand savant.

Ce sont de grandes découvertes.

So'roq formada **ce** ko'rsatish olmoshi être fe'lidan keyin keladi va unga chiziqcha bilan bog'lanadi.

Est-*ce* ton livre ?

Est-*ce* le dictionnaire de Pierre ?

Ammo ko'plikda u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Est-ce que *ce* sont vos livres ?

b) nisbiy olmosh oldida to'ldiruvchi vazifasida:

Vous devez savoir *ce* que vous avez appris.

Achetez *ce* dont vous avez besoin.

Ko'rsatish olmoshlarining *ceci*, *cela*, *ça* shakllari mustaqil so'zlar bo'lib, ot-predmetlarning yoki to'liq bir fikrning o'rini egallashlari mumkin:

Il n'aimait ni *ceci*, ni *cela*.

Ko'rsatish olmoshining *ça* shakli ko'pincha og'zaki nutqda ishlatiladi:

Antoine pose son doigt sur le bouton. Antuan barmog'ini chipqonga tegizdi.

– *Ça* te fait mal ? – Shu ering og'riyaptimi?

### Ko'rsatish olmoshlarining gapdagi vazifasi

Sodda va qo'shma ko'rsatish olmoshlari gapda ot bajargan barcha vazifalarni bajarishi mumkin. Ular gapda quyidagi vazifalarda keladilar:

a) *ega vazifasida*:

*Cela* ne me regarde pas.

*Celui-ci* se retourne.

b) *ot kesim vazifasida*:

Ce n'est pas mon cahier, c'est *celui* de mon frère.

c) *vositasiz yoki vositali to'ldiruvchi vazifasida*:

J'ai dit *cela* à mon ami.

On ne parle plus de *cela*.

d) *hol vazifasida*:

Il rentra dans la maison, *celle* qui ce trouvait au bout de la rue.

### EGALIK OLMOSHLARI PRONOMS POSSESSIFS

Eng avvalo fransuz tilida mavjud bo'lgan va yordamchi so'zlar hisoblangan, faqat otlar bilangina ishlatiladigan egalik determinativlari

(*egalik sifatлари va ularning qo'llanilishiga qarang*) hamda mustaqil ishlatiladigan egalik olmoshlarini farqlash lozim. Egalik olmoshlarining quyidagi shakllari mavjud:

	Shaxs	Birlik (bitta tegishli buyum)		Ko'plik (ko'p tegishli buyum)	
		muj.r.	jen.r.	muj.r.	jen.r.
Bitta egalik qiluvchi	1.	le mien	la mienne	les miens	les miennes
	2.	le tien	la tienne	les tiens	les tiennes
	3.	le sien	la sienne	les siens	les siennes
Ko'p egalik qiluvchi	1.	le nôtre	la nôtre	les nôtres	les nôtres
	2.	le vôtre	la vôtre	les vôtres	les vôtres
	3.	le leur	la leur	les leurs	les leurs

Egalik olmoshlari o'zlari o'rmini egallab kelayotgan otlar bilan sonda va rodda, predmetning egasi bilan esa shaxsda va sonda moslashadilar. Egalik olmoshlaridan oldin har doim rod va sonni ifodalovchi aniq artikl qo'yiladi:

- Bravo , d'Artagnan. Ton avis est *le mien* (mon avis).
- J'ai oublié ma montre à la maison, où est *la vôtre* (votre montre) ?

Vous avez fini vos exercices. Ont-ils fini *les leurs* (leurs exercices) ?

### Egalik olmoshlarining ishlatilishi

Egalik olmoshlari ilgari so'z yuritilgan predmet yoki shaxsni ko'rsatib, egalik determinativi bilan qo'llanilgan ot o'rmini egallaydi:

N'oublie jamais que ma maison est *la tienne*.

Vos cahiers sont plus propres que *les leurs*.

### Egalik olmoshlarining gapdagi vazifasi

Egalik olmoshlari gapda ot bajargan barcha vazifalarni bajarishi mumkin. Ular gapda quyidagi vazifalarda keladilar:

a) *ega vazifasida*:

Votre train part à six heures, *le nôtre* part plus tard.

b) *ot kesim vazifasida:*

Le journal que vous lisez est *le mien*.

c) *vositasiz to 'ldiruvchi vazifasida:*

Le maître corrige mes fautes et *les siennes*.

d) *vositali to 'ldiruvchi vazifasida:*

Tu écriras à tes parents et moi, j'écrirai *aux miens*.

e) *hol vazifasida:*

Il passe toujours les vacances d'été dans son village et parfois dans *le nôtre*.

### NISBIY OLMOSHLAR PRONOMS RELATIFS

Nisbiy olmoshlar sodda o'zgaraydigan va qo'shma o'zgaruvchan nisbiy olmoshlarga bo'linadi. «**Qui**», «**que**», «**quoi**», «**dont**», «**où**» sodda nisbiy olmoshlar hisoblanadi.

O'zgaruvchan nisbiy olmoshlarning quyidagi shakllari mavjud:

Birlik		Ko'plik	
mujskoy rod	jenskiy rod	mujskoy rod	jenskiy rod
lequel	laquelle	lesquels	lesquelles

Qo'shma nisbiy olmoshlar *le, la, les* aniq artikllarining va *quel* so'roq sifatining birikuvi natijasida hosil bo'lgan. Ikkala qism bir-biriga qo'shib yoziladi hamda ular rodda va sonda o'zgaradi.

Bu shakllar turli predloglar bilan ishlatilishi mumkin:  
*avec lequel, chez laquelle, pour lesquels, dans lesquelles.*

Bu qo'shma nisbiy olmoshlar *de* va *à* predloglari bilan tutashib ketadi va quyidagi shakllarni hosil qilishi mumkin:

Birlik		Ko'plik	
mujskoy rod	jenskiy rod	mujskoy rod	jenskiy rod
		de + artikl	
duquel	de laquelle	desquels	desquelles
		à + artikl	
auquel	à laquelle	auxquels	auxquelles



## Sodda nisbiy olmoshlarning ishlatilishi

«**Qui**» nisbiy olmoshi o'zidan oldin kelgan shaxsning va predmetlarning nomlarini ifodalab, gapda *ega vazifasini* bajarib keladi. Masalan:

Regardez le camarade *qui* entre.

Kirayotgan o'rtoqqa qarang.

C'est un cadeau *qui* lui fera certainement plaisir.

Bu unga juda ham xush yoqadigan sovg'adir.

Agar «**qui**» biror predlog bilan kelsa, u *vositali to'ldiruvchi vazifasini* bajaradi va faqat shaxsnigina ifodalaydi. Masalan:

L'étudiant à *qui* j'ai montré mon article, est notre ami.

Maqolamni ko'rsatgan talaba bizning do'stimiz bo'ladi.

«**Que**» nisbiy olmoshi o'zidan oldin kelgan shaxsning va predmetlarning nomlarini ifodalab, gapda *vositasiz to'ldiruvchi vazifasini* bajarib keladi. Masalan:

La jeune fille *que* vous avez vue est une bonne étudiante.

Siz ko'rgan qiz juda yaxshi talabadir.

Lis les livres *que* je t'ai donnés.

Men senga bergan kitoblarni o'qi.

«**Quoi**» nisbiy olmoshi sredniy roddagi olmosh hisoblanib, uning oldidan har doim **ce** ko'rsatish olmoshi qo'yiladi. U gapda *vositali to'ldiruvchi vazifasini* bajaradi. Masalan:

C'est **ce** à *quoi* elle emploie son temps.

Mana u o'z vaqtini nimaga sarflaydi.

«**Quoi**» nisbiy olmoshi **ce** ko'rsatish olmoshisiz **voici** va **voilà** so'zlaridan keyin ham ishlatilishi mumkin:

Voilà de *quoi* il est capable.

Mana u nimaga qodir.

«**Dont**» nisbiy olmoshi shaxsning va predmetlarning nomlarini ifodalab, **de qui**, **de quoi**, **duquel** o'rniga ishlatiladi. U o'tning, fe'lining, sifatning, miqdor ravishining, sonning to'ldiruvchisi bo'lib kelishi mumkin. Masalan:

Achète le manuel *dont* tu as besoin. (*dont* – avoir besoin de fe'lining to'ldiruvchisi).

La salle *dont* les fenêtres sont hautes, est grande. (les fenêtres de la salle)

L'étudiant *dont* vous avez entendu la réponse, est mon ami. (la réponse de l'étudiant)

**Eslatma:** Agar *dont* olmoshidan oldin shaxsni ifodalovchi ot kelsa, uning o'rniga **de qui** so'zini ham ishlatish mumkin:

Il a vu le professeur *dont* vous parlez.

Il a vu le professeur *de qui* vous parlez.

Agar **dont** olmoshidan oldin predmetni ifodalovchi ot kelsa, unda faqat **dont** nisbiy olmoshi qo'yiladi:

Il a vu le film *dont* vous parlez.

**Eslatma.** «*Dont*» nisbiy olmoshi har doim o'zi o'rnini egallab kelayotgan otdan keyin keladi va u hech qachon undan boshqa bir predlogli ot bilan ajratilmasligi kerak. Aks holda **dont** olmoshi o'rniga **duquel, de laquelle, desquels, desquelles** olmoshlari ishlatiladi:

La rivière au bord *de laquelle* se trouve notre village est profonde.

Le parc au centre *duquel* vous voyez ce monument est immense.

**Où (d'où)** olmoshi faqat predmetlarning o'rnini egallaydi va *o'rin yoki payt holi vazifasida* ishlatiladi:

Le maire avait arraché le feuillet *où* l'adresse était écrite. (Mérimée)

Il courut à l'écurie *d'où* il revint bientôt. (Mérimée)

Il arriva devant la porte au moment *où* son ami sortait.

### Qo'shma nisbiy olmoshlarning ishlatilishi

Nisbiy olmoshlarning qo'shma shakli shaxs va predmetlarni ifodalovchi otlarning o'rnini egallaydi. Ular asosan kesimning vositali to'ldiruvchisi sifatida ishlatiladi:

Il a pris une feuille de papier *sur laquelle* il a écrit son nom.

Elle lui posa des questions *auxquelles* il ne répondait pas.

Agar so'z shaxs haqida borayotgan bo'lsa, vositali to'ldiruvchi vazifasida *lequel* olmoshini yoki *qui* olmoshini predloglar bilan ishlatish mumkin:

L'homme *à qui* j'ai écrit une lettre.

L'homme *auquel* j'ai écrit une lettre.

Les enfants *pour* qui nous avons acheté ces jouets.  
 Les enfants *pour lesquels* nous avons acheté ces jouets.

Ammo so'z predmetlar haqida borganida faqat qo'shma nisbiy olmoshlar ishlatiladi:

Le village *derrière lequel* se trouve la forêt...

La place au milieu de *laquelle* se trouve un théâtre...

### Nisbiy olmoshlarning yig'ma jadvali

Gapdagi vazifasi	Olmoshning shakli	Nimaning o'rmini egallaydi
Ega	qui	Shaxs va predmetlarni
Fe'lning vositasiz to'ldiruvchisi	que	Shaxs va predmetlarni
Fe'lning vositali to'ldiruvchisi	à qui, pour qui, de qui, avec qui...	Faqat shaxslarni
	à quoi, de quoi, avec quoi	Predmetlarni va butun bir gapni
	auquel, pour lequel, duquel, dont	Shaxs va predmetlarni
Otning to'ldiruvchisi	dont, duquel	Shaxs va predmetlarni
O'rin yoki payt holi	où, d'où	Faqat predmetlarni

### SO'ROQ OLMOSHLARI PRONOMS INTERROGATIFS

So'roq olmoshlari ham xuddi nisbiy olmoshlar kabi shaklga ega, faqat ularda **dont** shakli mavjud emas va bu shakl hech qachon so'roq gaplarda ishlatilmaydi.

Nisbiy olmoshning **où** va **d'où** shakllari esa so'roq gaplarda ravishdir.

### So'roq olmoshlarining ishlatilishi

So'roq olmoshlari mustaqil ravishda yoki so'roq oborotlari bilan ishlatilishi mumkin. Agar so'roq egaga taalluqli bo'lsa *est-ce qui* oboroti ishlatiladi, agar so'roq kesimga yoki gapning ikkinchi darajali bo'lagiga taalluqli bo'lsa *est-ce que* oboroti qo'llaniladi.

## Qui, que, quoi sodda so‘roq olmoshlarining gapdagi vazifasi

So‘roq oladigan gap bo‘laklari	<i>Pour les personnes</i> Shaxslar uchun	<i>Pour les choses</i> Predmetlar uchun
Sujet – Ega	<i>qui – kim</i>	<i>qu’est-ce qui</i>
<i>Complément d’objet direct</i> Vositasiz to‘ldiruvchi	<i>qui</i>	<i>que</i>
<i>Complément d’objet indirect et complément prépositionnel</i> Vositali va predlogli to‘ldiruvchi	<i>qui est-ce que</i>	<i>qu’est-ce que</i>
	<i>à qui – kimga</i> <i>de qui – kimdan</i> <i>avec qui – kim bilan</i>	<i>à quoi – nimaga</i> <i>de quoi – nimadan</i> <i>avec quoi – nima bilan</i>

Ex: *Qui est-ce qui* est absent aujourd’hui?

*Qu’est-ce qui* est tombé toute à l’heure?

*Qui* cherche-t-il?

*Qui est-ce que* cherche-t-il?

*Que* cherches-tu?

*Qu’est-ce que* cherches-tu?

*A qui* posez-vous cette question?

*A quoi* s’intéresse-t-il?

*De qui* parlez-vous?

*De quoi* est-il mécontent?

*Avec qui* voyage Paul?

*Avec quoi* écrivez-vous?

**Eslatma :** Hatto 3-shaxs ko‘plikdagi egaga so‘roq qo‘yilganda **qui** – ega bo‘lsa, fe‘l 3-shaxs birlikda qo‘yiladi:

Les enfants jouent.

**Qui joue?**

Les élèves écrivent.

**Qui est-ce qui écrit ?**

**Que** nisbiy olmoshdan farqli ravishda faqat predmetlargagina tegishlidir.

**Que** (faqat **est-ce qui** so‘roq oboroti bilan) ega vazifasida qo‘llaniladi. Bunda gapda to‘g‘ri so‘z tartibi saqlanib qoladi:

*Qu’est-ce qui* se trouve au centre de Tachkent?

**Que** vositasiz to'ldiruvchi vazifasida qo'llanilganda so'z tartibi teskari bo'ladi, **est-ce que** oboroti bilan qo'llanilsa, gapda to'g'ri so'z tartibi saqlanib qoladi:

*Que* corrige le professeur ?

*Qu'est-ce que* le professeur corrige ?

*Qu'*a-t-il écrit ?

*Qu'est-ce qu'*il a écrit ?

**Quoi** olmoshi faqat predmetlarga va butun bir gappa taalluqlidir va u turli predloglar bilan vositali to'ldiruvchi vazifasida ishlatiladi:

**De quoi ? à quoi ?** – teskari so'z tartibi

**De quoi est-ce que ?** – to'g'ri so'z tartibi

**à quoi est-ce que ?** – to'g'ri so'z tartibi

*Avec quoi* coupe-t-il la viande ?

*Avec quoi est-ce qu'*il coupe la viande ?

*De quoi* parle-t-il ?

*De quoi est-ce qu'*il parle ?

**Qui** va **quoi** so'roq olmoshlari to'liqsiz gaplarda hamda mustaqil gaplarda ishlatilishi mumkin:

– Le connaissez-vous ?

– *Qui* ?

– Il part à l'étranger ?

– *Quoi* ?

**Que** olmoshi hech qachon mustaqil ravishda ishlatilmaydi.

### QO'SHMA SO'ROQ OLMOSHLARI PRONOMS INTERROGATIFS COMPOSÉS

Qo'shma so'roq olmoshlarining quyidagi shakllari mavjud:

Birlik		Ko'plik	
mujskoy rod	jenskiy rod	mujskoy rod	jenskiy rod
lequel	laquelle	lesquels	lesquelles

Bu shakllar turli predloglar bilan ishlatilishi mumkin:  
*avec lequel, chez laquelle, pour lesquels, dans lesquelles.*

Bu qo'shma so'roq olmoshlari *de* va *à* predloglari bilan tutashib ketadi va quyidagi shakllarni hosil qilishi mumkin:

Birik		Ko'plik	
mujskoy rod	jenskiy rod	mujskoy rod	jenskiy rod
	de + artikl		
duquel	de laquelle	desquels	desquelles
	à + artikl		
auquel	à laquelle	auxquels	auxquelles

Qo'shma so'roq olmoshlari shaxslar, hayvonlar, predmetlar haqida so'rashga xizmat qiladilar. Ular gapda *ega*, *vositasiz to'ldiruvchi*, *vositali to'ldiruvchi* va hol vazifasida keladi.

<i>Question directe</i> —To'g'ri so'roq	<i>Question indirecte</i> —Ergash gap bilan ifodalangan so'roq
1. <i>Lequel de ces enfants vous plaît?</i> – Bu bolalardan qaysi biri sizga yoqadi?	1. <i>Dites lequel de ces enfants vous plaît.</i>
2. <i>Laquelle de vos amies voyez-vous plus souvent?</i> – Dugonalaringizdan qaysi birini tez-tez ko'rib turasiz?	2. <i>Dites laquelle de vos amies vous voyez plus souvent.</i>
3. <i>A laquelle de vos amis écrivez-vous?</i> – Dugonalaringizdan qaysinisiga xat yozasizlar?	3. <i>Dites à laquelle de vos amis vous écrivez.</i>
4. <i>Dans ce bureau il y a beaucoup de tiroirs. Dans lequel sont vos lettres?</i> Bu yozuv stolida ko'p tortmalar bor. Sizning xatlaringiz qaysi birida?	4. <i>Dites dans lequel de ces tiroirs sont vos lettres.</i>

Yuqoridagi misollarda so'roq olmoshi 1-gapda *ega*, 2-gapda *vositasiz to'ldiruvchi*, 3-gapda *vositali to'ldiruvchi*, 4-gapda *o'rin holi vazifasida* kelgan. Ular ikki va undan ortiq shaxs, predmetlar ichidan tanlovni ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Ex: *Lequel de ces deux jeunes gens est votre frère?*

*Lequel de ces livres vous plaît mieux?*

*Laquelle de ces robes choisit-tu?*

*Auquel* de vos amis voulez-vous faire ce cadeau?  
*Duquel* de vos étudiants êtes-vous le plus content?  
*Avec lequel* de ces stylos préférez-vous écrire?  
*Chez lequel* de tes parents est-tu allé te reposer cet été?

## NOANIQ SIFATLAR VA OLMOSHLAR ADJECTIFS ET PRONOMS INDÉFINIS

Fransuz tilida otlardan oldin qo'llaniladigan noaniq sifatlar va mustaqil tarzda ishlatiladigan noaniq olmoshlar farqlanadi.

*noaniq sifatlar*

**Aucun élève n'a pu résoudre ce problème.**

Hech qaysi o'quvchi bu masalani echa olmadi.

**Chaque homme aime son pays.**

Har bir kishi o'z mamlakatini sevadi.

*noaniq olmoshlar*

**Aucun n'a pu résoudre ce problème.**

Hech kim bu masalani echa olmadi.

**Chacun aime son pays.**

Har kim o'z mamlakatini sevadi.

### Noaniq sifatlarning va olmoshlarning shakllari

Ba'zi bir noaniq sifatlar va olmoshlar bir hil shaklga, ba'zi birlari esa har xil shaklga ega. Quyidagi jadvalda bir xil shaklga ega bo'lgan noaniq sifatlar va olmoshlar aks ettirilgan:

Noaniq sifatlar		Noaniq olmoshlar	
birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
aucun, -e <i>hech qanaqa, hech qanday, hech qaysi</i>	-	aucun, -e <i>hech kim, hech kimsa, hech narsa, kimdir</i>	-
autre <i>boshqa, o'zga, bo'lak</i>	autres <i>boshqalar, o'zgalar</i>	autre <i>boshqasi, boshqa kishi, biri</i>	autres <i>boshqalar, boshqa kishilar, birovlar</i>
certain, -e <i>aniq, shubhasiz to'g'ri, chin,</i>	certain, -es	-	certain, -es <i>allakim, birov, ba'zibir, ba'zi</i>

<p><i>haqiqiy, mh'tabar, muayyan, tayinli, rasmiy, qaror topgan, muqarrar, dadil, qat'iy, ishonchli</i></p> <p>même</p> <p><i>ayni, xuddi, ham, bir, o'zi, xuddi o'zi, o'zginasi</i></p> <p>nul, nulle</p> <p><i>arzimas, arzimagan, arzimaydigan, ahamiyatsiz: e'tibori, nufuzi, sabmog'i yo'q, e'tiborsiz, notavon; hech, hech qanday, hech qanaqa, hech bir, hech qanday</i></p> <p>tout, -e</p> <p><i>hamma, turli, butun bir, har, har bir</i></p>	<p>mêmes</p> <p>nuls, nulles</p> <p>tous, toutes</p>	<p>même</p> <p><i>o'sha, o'zlari</i></p> <p>nul, nulle</p> <p><i>hech kim</i></p> <p>tout, -e</p> <p><i>to'liq, hamma, butun, barcha; har, bo'yi, davomida; juda, butunlay</i></p>	<p>mêmes</p> <p>nuls, nulles</p> <p>tous, toutes</p>
---	--	--	--

### Har xil shakliga ega bo'lgan noaniq sifatlar va olmoshlar

Noaniq sifatlar		Noaniq olmoshlar	
birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
chaque <i>har, har bir</i>		chacun, -e <i>har kim, har bir odam, har kimsa</i>	
quelque <i>qandaydir</i>	quelques <i>bir qancha, bir nechta</i>	quelqu'un, ...une <i>kimdir, kim bo'lsa ham, birov, biror</i>	quelques-uns, ...unes <i>ba'zi birlari,</i>



		<i>kishi, birortasi, allakim</i>	<i>ba'zilar; ayrim kishilar; kimlardir</i>
--	--	----------------------------------	--

### Faqat olmosh sifatida ishlatiladigan shakllar

<b>on</b>	- rus va o'zbek tillariga tarjima qilinmaydi
<b>personne</b>	- hech kim
<b>quelque chose</b>	- biror narsa, nima bo'lsa ham; nimadir; nimalardir
<b>rien</b>	- hech narsa, hech nima
<b>tout le monde</b>	- hamma, barcha

### Ayrim noaniq sifatlar ishlatilishining o'ziga xos xususiyatlari

1) *aucun, chaque, plusieurs, quelque, nul* sifatlari har doim artiklsiz otdan oldin keladi, qolganlari esa artiklli otlar oldida qo'yiladi:

*Chaque jour il faisait de la gymnastique.*

*Plusieurs enfants font leurs études dans les écoles musicales.*

**Eslatma:** *Aucun, nul* sifatlari inkor gaplarda *pas* inkor yuklamasi o'rnida ishlatiladi:

Tu n'as *aucune* raison de te fâcher.

Elle n'obtient de lui *nulle* réponse.

2) *Même* sifati otdan oldin kelsa *aynan o'sha* ma'nosini ifoda qiladi:  
Le *même* professeur entra dans la salle d'étude.

*Même* kishilik olmoshidan keyin qo'llanilgan bo'lsa, "o'zi" ma'nosini bildiradi:

Il faisait tout *lui-même*.

3) *Tout* sifati artiklli yoki artiklsiz otlar oldida ishlatilishi mumkin:  
a) aniq artiklli yoki determinativli (ko'rsatish yoki egalik determinativlari) ot oldida *tout* sifati "hamma", "barcha" ma'nosini ifoda etadi:

*Toute* la France fête le 14 Juillet.

*Tout* notre ville assiste au jour de la propreté.

b) noaniq artiklli ot oldida *tout* sifati “butun”, “to‘liq” ma’nosini ifoda etadi:

Ils ont mangé *tout* un kilo de glace.

J’ai passé *toute* une année au village natal.

c) artiklsiz ot oldida *tout* sifati “har bir” ma’nosini ifodalaydi:

*Tout* citoyen ouzbek a droit au travail et au repos.

*Toute* femme ouzbeke a des droits égaux à ceux de l’homme.

### Ayrim noaniq olmoshlar ishlatilishining o‘ziga xos xususiyatlari

1) *Aucun, nul, personne, rien* noaniq olmoshlari inkor gaplarda *pas* inkor yuklamasi o‘rnida ishlatiladi:

Il ne pouvait répondre d’*aucun* de ses collègues.

Elle n’obtint de lui *nulle* réponse.

Il n’y avait *personne* dans la rue.

Sardor ne voulait *rien* écouter.

2) *On* noaniq olmoshi faqat ega vazifasida 3-shaxs birlikdagi fe’l oldida qo‘llaniladi va u o‘zbek va rus tillariga tarjima qilinmaydi. U bilan qo‘llanilgan fe’l esa 3-shaxs ko‘plikda tarjima qilinadi:

*On* partira de bonne heure. Ertalab vaqtlı jo‘nab ketishadi.

*On* frappa à la porte. Eshikni taqillatishdi.

Ba‘zan *et, que, si* bog‘lovchilaridan keyin ohangdorlik uchun *l’on* shakli ishlatiladi:

A mesure que *l’on* avançait la foule devenait moins grosse.

3) Birlikdagi *tout* noaniq olmoshi *hamma* ma’nosini ifoda qiladi va uning jenskiy rod shakli mavjud emas:

Patience vainc *tout*.

*Tout* est bien qui finit bien.

Ko‘plikda esa bu olmosh ham mujskoy rod, ham jenskiy rod, ham *tous, toutes* shaklida qo‘llaniladi; *tous* shaklidagi oxirgi s harfi talaffuz qilinib, [tus] o‘qiladi:

*Tous* travaillaient avec enthousiasme.

Voici les meilleurs ouvrières de notre usine. *Toutes* dépassent le plan.

Tous o'rnida ko'pincha *tout le monde* qo'shma olmoshi ishlatiladi:  
 Tous sont présent.  
 Tout le monde est présent.

**Eslatma:** *tout le monde* qo'shma olmoshi bilan qo'llanilgan fe'l 3-shaxs birlikda qo'yiladi.

### Noaniq sifatlilar va olmoshlarning gapdagi vazifasi

Noaniq olmoshlar gapda quyidagi vazifalarni bajarib keladi:

- 1) *ega*;
- 2) *vositasiz va vositali to'ldiruvchi*.

Ega	Vositasiz to'ldiruvchi	Vositali to'ldiruvchi
<i>Chacun</i> doit savoir cette règle.	Je vois <i>quelqu'un</i> dans la cour.	Je ne dit à <i>personne</i> mon secret.
Har kim bu qoidani bilishi kerak.	Men hovlida kimnidir ko'ryapman.	Men o'z sirimni hech kimga aytmayman.

Noaniq sifatlilar esa gapda aniqllovchi vazifasini bajarib keladi:

Il fait la gymnastique *chaque* jour.

*Nul* homme ne pourra le faire.

Donnez-moi *un autre* livre.

Je me suis rappelé *certain*s détails de cette histoire.

### FE'L LE VERBE

Ma'lumki, ish-harakatning nomini bildirib kelgan so'z turkumi fe'l deyiladi. Fransuz tilini o'rganishda fe'llarga juda katta ahamiyat qarati-lishi lozim, chunki fransuz tilidagi fe'llar turli guruhlariga mansubligi va har bir guruh o'ziga xos tuslanishga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

Fransuz tilidagi fe'llar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh o'zining tuslanish qoidasiga hamda o'zining shaxs-son qo'shimchasiga egadir.

1-guruhga noaniq shaklda **-er** qo'shimchasi bilan tugaydigan fe'llarni kiritamiz (**aller** – bormoq va **envoyer** – yubormoq, jo'natmoq fe'llari bundan mustasno), 2-guruhga esa **-ir** qo'shimchasi bilan

tugaydigan va asosan tabiat hodisalarini ifoda etadigan fe'llar kiradi. 3-guruh fe'llariga **-endre, -ondre, -âtre, -frir, -vrir, -uire, -eindre, -aindre, -oindre, -ire, -ir** va boshqa bir qator qo'shimchalar, shuningdek **-er** qo'shimchasi bilan tugaydigan **«aller»** – «bormoq», **«envoyer»** – «yubormoq, jo'natmoq» fe'llarini ham kiritamiz. 3-guruh fe'llari noto'g'ri tuslanuvchi fe'llar deyiladi. Buning sababi, 3-guruh fe'llarini tuslash uchun ma'lum bir qoida hamda maxsus shaxs-son qo'shimchalari mavjud bo'lsa ham, deyarli barcha 3-guruh fe'llari bu qoidaga bo'ysunmaydi. Shu tufayli ham 3-guruh fe'llarining tuslanishini alohida-alohida o'rganish va ularni yodda saqlab qolish zarur bo'ladi.

O'zbek va rus tillarida bo'lgani kabi, fransuz tilidagi fe'l ham, shaxs, son, zamon, mayl va nisbat kategoriyalariga egadir. Fransuz tilidagi fe'llarda uchta shaxs, ikkita son, sodda va murakkab zamonlar, to'rtta mayl va ikkita nisbat mavjud.

Mayllar	Sodda zamonlar	Qo'shma zamonlar
Darak mayli Indicatif	Présent, Imparfait, Passé simple, Futur simple, Futur dans le passé	Passé composé, Plus-que-parfait, Passé antérieur, Futur antérieur
Buyruq mayli Impératif		
Shart mayli Conditionnel	Conditionnel présent	Conditionnel passé
Istak mayli Subjonctif	Présent du Subjonctif, Imparfait du Subjonctif	Passé du Subjonctif, Plus-que-parfait du Subjonctif

Fransuz tilidagi barcha zamonlar quyidagi to'rtta asosiy shakldan yasaladi:

- Infinitif
- Présent de l'indicatif
- Passé simple
- Participe passé

## Asosiy va ulardan yasaladigan shakllar jadvali

Asosiy shakllar	Yasaladigan zamonlar
1. Infinitif	Futur simple Futur dans le passé Conditionnel présent
2. Présent de l'indicatif	Imparfait de l'indicatif Subjonctif présent Impératif
3. Passé simple	Imparfait du Subjonctif
4. Participe passé + yordamchi fe'l (barcha qo'shma zamonlar)	Passé composé Plus-que-parfait Passé antérieur Futur antérieur Conditionnel passé Subjonctif passé Subjonctif plus-que-parfait

### HOZIRGI ZAMON DARAK MAYLI PRÉSENT DE L'INDICATIF

Hozirgi zamon (Présent de l'indicatif) hozir, ayni paytda sodir bo'layotgan ish-harakatni ifoda etadi. Fe'llarni bu zamonda tushlash uchun ularning o'zagini topib olamiz va har bir guruh fe'llari uchun xos bo'lgan shaxs-son qo'shimchalarini qo'shamiz.

### FE'LLARNING PRÉSENT DE L'INDICATIF QO'SHIMCHALARI

	1-guruh fe'llari qo'shimchasi		2-guruh fe'llari qo'shimchasi		3-guruh fe'llari qo'shimchasi	
	son, shaxs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik	birlik
1	-e	-ons	-is	-issons	-s	-ons
2	-es	-ez	-is	-issez	-s	-ez
3	-e	-ent	-it	-issent	-t	-ent

**Eslatma:** 1 va 3-guruh fe'llarining birlikdagi qo'shimchalari hamda ko'plikdagi **-ent** qo'shimchasi o'qilmaydi.

Fe'llarning o'zagi 1-guruh fe'llaridan **-er**, 2-guruh fe'llaridan **-ir**, 3-guruh fe'llaridan esa **-ir**, **-tre**, **-re**, **-er** va boshqa qo'shimchalarni o'z ichiga olib olinib qoldirish yo'li bilan topiladi.

Shuni eslatib o'tish joizki, 3-guruh fe'llarining o'zaklarida juda ko'p o'ziga xos o'zgarishlar sodir bo'ladiki, ularni faqat yodda saqlab o'qish lozimdir. 1, 2-guruh fe'llariga qo'shimchalar qo'shilganda deyarli o'zgarishlar yuz bermaydi.

## 1-GURUH FE'LLARINING HOZIRGI ZAMONDA TUSLANISH NAMUNASI

**parler** - «gapirmoq» fe'li

shaxs	Forme affirmative Bo'lishli forma	Forme négative Bo'lishsiz forma	Forme interrogative So'roq forma
1.	Je parle	Je ne parle pas	Est-ce que je parle?
2.	tu parles	tu ne parles pas	parles-tu?
3.	il parle elle parle	il ne parle pas elle ne parle pas	parle-t-il? parle-t-elle?
1.	nous parlons	nous ne parlons pas	parlons-nous?
2.	vous parlez	vous ne parlez pas	parlez-vous?
3.	ils parlent elles parlent	ils ne parlent pas elles ne parlent pas	parlent-ils? parlent-elles?

Bir qator 1-guruh fe'llari **Présent** zamonida o'ziga xos tuslanishga ega. Bu xoslik bevosita fe'l o'zagiga tegishlidir. Bunday o'zgarishlar oxiridan hisoblaganda ikkinchi bo'g'inda [e] qochqoq tovushi bo'lgan fe'llarda sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar quyidagicha kechadi:

1. **Accent grave (è)** belgisini olish yo'li bilan. Bunga misol qilib **acheter** – sotib olmoq fe'lining tuslanishini keltirishimiz mumkin:

Shaxs	Singulier	Pluriel
1.	J'achète	nous achetons
2.	tu achètes	vous achetez
3.	il achète elle achète	ils achètent elles achètent

Futur simple: **j'achèterai**

## Asosiy va ulardan yasaladigan shakllar jadvali

Asosiy shakllar	Yasaladigan zamonlar
1. Infinitif	Futur simple Futur dans le passé Conditionnel présent
2. Présent de l'indicatif	Imparfait de l'indicatif Subjonctif présent Impératif
3. Passé simple	Imparfait du Subjonctif
4. Participe passé + yordamchi fe'l (barcha qo'shma zamonlar)	Passé composé Plus-que-parfait Passé antérieur Futur antérieur Conditionnel passé Subjonctif passé Subjonctif plus-que-parfait

### HOZIRGI ZAMON DARAK MAYLI PRÉSENT DE L'INDICATIF

Hozirgi zamon (Présent de l'indicatif) hozir, ayni paytda sodir bo'layotgan ish-harakatni ifoda etadi. Fe'llarni bu zamonda tushlash uchun ularning o'zagini topib olamiz va har bir guruh fe'llari uchun xos bo'lgan shaxs-son qo'shimchalarini qo'shamiz.

### FE'LLARNING PRÉSENT DE L'INDICATIF QO'SHIMCHALARI

	1-guruh fe'llari qo'shimchasi		2-guruh fe'llari qo'shimchasi		3-guruh fe'llari qo'shimchasi	
	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
son, shaxs						
1	-e	-ons	-is	-issons	-s	-ons
2	-es	-ez	-is	-issez	-s	-ez
3	-e	-ent	-it	-issent	-t	-ent

**Eslatma:** 1 va 3-guruh fe'llarining birlikdagi qo'shimchalari hamda ko'plikdagi-ent qo'shimchasi o'qilmaydi.

Fe'llarning o'zagi 1-guruh fe'llaridan **-er**, 2-guruh fe'llaridan **-ir**, 3-guruh fe'llaridan esa **-ir**, **-tre**, **-re**, **-er** va boshqa qo'shimchalarni tushirib qoldirish yo'li bilan topiladi.

Shuni eslatib o'tish joizki, 3-guruh fe'llarining o'zaklarida juda ko'p o'ziga xos o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularni faqat yodda saqlab qolish lozimdir. 1, 2-guruh fe'llariga qo'shimchalar qo'shilganda deyarli o'zgarishlar yuz bermaydi.

## 1-GURUH FE'LLARINING HOZIRGI ZAMONDA TUSLANISH NAMUNASI

**parler - «gapirmoq» fe'li**

shaxs	Forme affirmative Bo'lishli forma	Forme négative Bo'lishsiz forma	Forme interrogative So'roq forma
1.	Je parle	Je ne parle pas	Est-ce que je parle?
2.	tu parles	tu ne parles pas	parles-tu?
3.	il parle elle parle	il ne parle pas elle ne parle pas	parle-t-il? parle-t-elle?
1.	nous parlons	nous ne parlons pas	parlons-nous?
2.	vous parlez	vous ne parlez pas	parlez-vous?
3.	ils parlent elles parlent	ils ne parlent pas elles ne parlent pas	parlent-ils? parlent-elles?

Bir qator 1-guruh fe'llari **Présent** zamonida o'ziga xos tuslanishga ega. Bu xoslik bevosita fe'l o'zagiga tegishlidir. Bunday o'zgarishlar oxiridan hisoblaganda ikkinchi bo'g'inda [e] qochqoq tovushi bo'lgan fe'llarda sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar quyidagicha kechadi:

1. **Accent grave (è)** belgisini olish yo'li bilan. Bunga misol qilib **acheter** –sotib olmoq fe'lining tuslanishini keltirishimiz mumkin:

Shaxs	Singulier	Pluriel
1.	J'achète	nous achetons
2.	tu achètes	vous achetez
3.	il achète elle achète	ils achètent elles achètent

Futur simple: **j'achèterai**



**mener**-olib bormoq; **se promener**-sayr qilmoq; **lever**-ko'tarmoq; **se lever**-turmoq, ko'tarilmoq; **enlever**-echmoq; **gêler**-sovqotmoq, yax-lamoq; **dégeler**-erimoq fe'llari yuqoridagi fe'l kabi tuslanadi.

2. Undosh harfning ikkilanishi bilan. Bunga misol qilib **jeter**-tashlamoq, otmoq, uloqtirmoq fe'lining tuslanishini olamiz:

Shaxs	Singulier	Pluriel
1.	je jette	nous jetons
2.	tu jettes	vous jetez
3.	il jette elle jette	ils jettent elles jettent

Futur simple: **je jetterai**

**appeler** – chaqirmoq, atamoq; **s'appeler** – atalmoq, nomlanmoq; **rappeler** – chaqirmoq, qayta chaqirmoq, eslatmoq, yodga solmoq; **se rappeler** – yodda tutmoq, yodda saqlamoq, eslamoq; **se jeter** – tashlanmoq, otilmoq, peshvoz chiqmoq, quyilmoq (daryo); **rejeter** – tashlamoq, rad qilmoq, to'nkamoq, ag'darmoq (ayb, xatoni); **projeter** – namoyish qilmoq (filmni), o'ylamoq, hisoblamoq; **feuilleter** – varaqlamoq, ko'z yugurtirib chiqmoq fe'llari yuqoridagi fe'l kabi tuslanadi.

3. Oxiridan hisoblaganda ikkinchi bo'g'inda é harfi bo'lgan fe'llar tuslanganda é harfi yopiq bo'g'inda è ga o'zgaradi. Ammo bu harf futur simple va conditionnel présent zamonlarida saqlanib qoladi. Bunga misol sifatida **répéter**-takrorlamoq fe'lining tuslanishini keltiramiz:

Shaxs	Singulier	Pluriel
1.	Je répète	nous répétons
2.	tu répètes	vous répétez
3.	il répète elle répète	ils répètent elles répètent

se **répéter** – takrorlanmoq; **céder** *qch à qn* – bo‘shatib bermoq (o‘rmini, navbatini); **céder** *à qch* – yon bermoq; **célébrer** *qch* nishonlamoq, bayram qilmoq; **espérer** *qch* – umid qilmoq, ishonmoq, suyanmoq, orqa qilmoq; **exagérer** *qch* – orttirib yubormoq, bo‘rttirib yubormoq, mubolag‘a qilmoq; **inquiéter** *qn* bezovta qilmoq, tashvishlantirmoq, hayajonlantirmoq; **s’inquiéter** *de qn, de qch, au sujet de qch* – havotirlanmoq, tashvish qilmoq, tashvishlanmoq; **interpréter** *qch* – izohlamoq, ta‘birlamoq, talqin qilmoq, ijro etmoq, (og‘zaki) tarjima qilmoq; **posséder** *qch* – ega bo‘lmoq, egalik qilmoq, molik bo‘lmoq, boshqarmoq, o‘z qo‘lida tutib turmoq; **protéger** *qch, qn* – qo‘riqlamoq, saqlamoq, ehtiyot qilmoq, homiylik qilmoq; **précéder** *qn, qch* – oldinda yurmoq, oldinda bo‘lmoq; **préférer** *qch, qch à qch* – yoqtirmoq, afzal ko‘rmoq; **sécher** – quritmoq, qurimoq, xazon bo‘lmoq kabi fe’llar ham yuqoridagi fe’l kabi tuslanadi.

«-oyer», «-uyer», «-ayer» ga tugovchi fe’llarda y harfi o‘qilmaydigan -e harfi oldida -i ga o‘zgaradi. Masalan, **employer** *qch* – ishlatmoq, qo‘llamoq, foydalanmoq fe’lining tuslanishiga e’tibor bering:

Shaxs	Singulier	Pluriel
1.	J’emploie	nous employons
2.	tu emploies	vous employez
3.	il emploie elle emploie	ils emploient elles emploient

**s’employer** – ishlatilmoq; **aboyer** – vovillamoq, uvillamoq, ukillamoq, hurmoq; **nettoyer** *qch* – tozalamoq; **tutoyer** *qn* – sensiramoq; **se tutoyer** –sensirashmoq; **envoyer** *qn, qch* – yubormoq, jo‘natmoq; **essuer** *qch* – artmoq; **s’essuyer** –artinmoq; **s’appuer** *sur qn, sur qch* – suyanmoq, tayanmoq; **s’appuer** *à (contre) qch* – suyanmoq, tirilmoq; **ennuyer** *qn* – zeriktirmoq, joniga tegmoq; **s’ennuyer** – zerikmoq, zerikish his qilmoq; **s’ennuyer** *de qn* – sog‘inmoq, qo‘msamoq, ichikmoq; **balayer** *qch* – supurmoq; **essayer** *qch* – kiyib ko‘rmoq, o‘lchab ko‘rmoq; **essayer** *de f. qch* – sinab ko‘rmoq, tekshirib ko‘rmoq, tatib ko‘rmoq, biror narsa qilishga harakat qilmoq; **payer** *qch, qn* – to‘lamoq, hisoblashmoq fe’llari ham yuqoridagi fe’l kabi tuslanadi.

## 2-GURUH FE'LLARINING HOZIRGI ZAMONDA TUSLANISH NAMUNASI

**finir** - «tamomlamoq, tugatmoq» fe'li

shaxs	Forme affirmative Bo'lishli forma	Forme négative Bo'lishsiz forma	Forme interrogative So'roq forma
1.	Je finis	Je ne finis pas	Est-ce que je finis?
2.	tu finis	tu ne finis pas	finis-tu?
3.	il finit elle finit	il ne finit pas elle ne finit pas	finit-il? finit-elle?
1.	nous finissons	nous ne finissons pas	finissons-nous?
2.	vous finissez	vous ne finissez pas	finissez-vous?
3.	ils finissent elles finissent	ils ne finissent pas elles ne finissent pas	finissent-ils? finissent-elles?

### 2-guruhga quyidagi fe'llar kiradi:

**finir** – tugatmoq, tamomlamoq, tugamoq, nihoyasiga etmoq

**agir** – harakat qilmoq, ish ko'rmq, ish tutmoq, birgalikda ish tutmoq

**réagir** à qch – sezmoq, ta'sirlanmoq, o'z munosabatini bildirmoq, javob bermoq, fikr bildirmoq

**applaudir** qn – olqishlamoq

**bâtir** qch– qurmoq, bunyod qilmoq

**choisir** qch – tanlamoq

**éclaircir** qch – aniqlamoq, rivojlantirmoq

**s'éclaircir** – oydinlashmoq, oydin bo'lmoq

**établir** qch – o'rnatmoq, tashkil qilmoq

**se retablir** – tuzalmoq

**grandir** – katta bo'lmoq, kattalashmoq

**grossir** – yo'g'onlashmoq, semirmoq

**ralentir** qch – sekinlashtirmoq

**réfléchir** à qch, sur qch – o'ylamoq, fikrlamoq

**réunir** qch, qn – yig'moq, jamlamoq

**se réunir** – yig'ilishmoq, to'planishmoq, jam bo'lmoq

**jouir de** qch – zavqlanmoq, foydalanmoq

**remplir** qch, de qch – to'ldirmoq, to'latmoq

**saisir** qch, qn – tutmoq, o'rab olmoq, chulg'ab olmoq, anglamoq

Bu fe'llardan tashqari 2-guruhga **pâlir** – oqarmoq, **obéir** – quloq solmoq, bo'ysunmoq, **se remplir** – to'lmoq, **se réjouir** – quvonmoq, **punir** – jazolamoq, **rougir** – qizarmoq, **jaunir** – sarg'aymoq, **verdir** – ko'karmoq, **mûrir** – pishmoq, **fleurir** – gullamoq, **blanchir** – oqarmoq, **réfroidir** – sovutmoq, yaxlatmoq, muzlatmoq kabi fe'llar ham kiradi.

### 3-GURUH FE'LLARI

3-guruh fe'llari noto'g'ri tuslanuvchi fe'llardir. Bu guruh fe'llarini tuslashda ma'lum qoida amal qilinib, ularning o'ziga xos shaxs-son qo'shimchalari mavjud bo'lsa ham, 3-guruh fe'llarining tuslanishida qoidaga bo'ysunmaslik holatlari ko'p uchraydi. Shu sababli 3-guruh fe'llarining tuslanishini ma'lum kichik guruhlarga bo'lib o'rganamiz. Eng avvalo yordamchi fe'l hisoblangan «avoir» – ega bo'lmoq hamda «être» – bo'lmoq fe'llarining tuslanishiga e'tiborni qarataylik:

«avoir» – ega bo'lmoq fe'li

shaxs	Forme affirmative Bo'lishli forma	Forme négative Bo'lishsiz forma	Forme interrogative So'roq forma
1.	J'ai	Je n'ai pas	ai-je?
2.	tu as	tu n'as pas	as-tu?
3.	il a elle a	il n'a pas elle n'a pas	a-t-il? a-t-elle?
1.	nous avons	nous n'avons pas	avons-nous?
2.	vous avez	vous n'avez pas	avez-vous?
3.	ils ont elles ont	ils n'ont pas elles n'ont pas	ont-ils? ont-elles?

«être» – bo'lmoq fe'li

shaxs	Forme affirmative Bo'lishli forma	Forme négative Bo'lishsiz forma	Forme interrogative So'roq forma
1.	Je suis	Je ne suis pas	suis-je?
2.	tu es	tu n'es pas	es-tu?
3.	il est elle est	il n'est pas elle n'est pas	est-il? est-elle?
1.	nous sommes	nous ne sommes pas	sommes-nous?
2.	vous êtes	vous n'êtes pas	êtes-vous?
3.	ils sont elles sont	ils ne sont pas elles ne sont pas	sont-ils? sont-elles?

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, 3-guruh fe'llarining hozirgi zamonda tuslanishini kichik guruhlarga bo'lib o'rganamaiz.

### 1. «-endre», «-ondre» bilan tugovchi fe'llar

Bu kichik guruhga **attendre** –kutmoq; **défendre** – himoya qilmoq, mudofaa qilmoq, qo'riqlamoq; **se défendre** – o'zini oqlamoq, aybsizligini isbot qilmoq, himoyalannoq; **dépendre** – bog'liq bo'lmoq, qaram bo'lmoq, tobe bo'lmoq; **descendre** – tushmoq, chiqmoq, to'xtamoq, tushirmoq; **entendre** – eshitmoq, tushunmoq; **entreprendre** – kirishmoq, urinmoq, boshlamoq; **pendre** – osmoq; **prétendre** – da'vogar bo'lmoq; **répandre** – to'kmoq, sochmoq, tarqatmoq; **se répandre** – tarqalmoq; **rendre** – qaytarmoq, bermoq, yordam qilmoq, bironva xizmat ko'rsatmoq; **se rendre** – yo'l olmoq, jo'nab ketmoq; **tendre** – uzatmoq, cho'zmoq; **vendre** – sotmoq; **répondre** – javob bermoq, javobgar bo'lmoq; **confondre** –chalkashtirmoq, chigallashtirmoq, qorishtirib yubormoq; **se confondre** – xijolat bo'lmoq, uyalib ketmoq, **correspondre** – mos kelmoq, muvofiq bo'lmoq, to'g'ri kelmoq, javob bermoq, xat yozishib turmoq fe'llari kiradi. Bu kichik guruh fe'llari quyidagicha tuslanishga egadir:

**répondre** – javob bermoq fe'li

Shaxs	Singulier	Pluriel
1.	Je réponds	nous répondons
2.	tu réponds	vous répondez
3.	il répond elle répond	ils répondent elles répondent

### 2. «-aître» bilan tugovchi fe'llar

Bu kichik guruhga **paraître** – ko'rinmoq, o'xshamoq, tuyulmoq; **apparaître** – ko'rinmoq, ko'zga tashlanmoq; **reparaître** – qayta ko'rinmoq, qayta paydo bo'lmoq; **disparaître** – yo'qolmoq, yashirinmoq, g'oyib bo'lmoq; **connaître** – bilmoq, tanimoq, boshdan o'tkazmoq; **se connaître** – tanish bo'lmoq, bir-birini tanimoq, tushunib olmoq, tushunmoq; **reconnaître** – tanimoq, tan olmoq fe'llarini kiritamiz. Ular quyidagicha tuslanadi:

**connaître** – bilmoq, tanimoq

Shaxs	Singulier	Pluriel
1.	Je connais	nous connaissons
2.	tu connais	vous connaissez
3.	il connaît elle connaît	ils connaissent elles connaissent

### 3. «-frir», «-vrir» bilan tugovchi fe'llar

Bu kichik guruhga **ouvrir** – ochmoq, boshlamoq, ochilmoq; **s'ouvrir** – ochilmoq; **couvrir** – qoplamoq, yopmoq; **se couvrir** – qoplanmoq; **découvrir** – ochmoq, kashf qilmoq, bilib qolmoq; **offrir** – sovg'a qilmoq, keltirib tutmoq, hadya qilmoq; **souffrir** – azoblanmoq, qiynalmoq, aziyat chekmoq, azob-uqubat chekmoq kabi fe'llar kiradi. Bu fe'llar quyidagicha tuslanadi:

**ouvrir** – ochmoq, boshlamoq fe'li

Shaxs	Singulier	Pluriel
1	J'ouvre	nous ouvrons
2	tu ouvres	vous ouvrez
3	il ouvre elle ouvre	ils ouvrent elles ouvrent

### 4. «-uire» bilan tugovchi fe'llar

Bu kichik guruhga **traduire** – tarjima qilmoq; **conduire** – olib bormoq, uzatib bormoq, kuzatib qo'ymoq, boshqarmoq; **se conduire** – o'zini biror tarzda tutmoq; **reconduire** – kuzatmoq, kuzatib qo'ymoq; **construire** – qurmoq, bunyod qilmoq, yaratmoq; **reconstruire** – yangitdan qurmoq, boshqacha qilib qurmoq, boshqacha qilib tuzmoq, qayta qurmoq, **détruire** – buzmoq, vayron qilmoq, xarobaga aylantirmoq; **instruire** – bilim bermoq, ma'rifatli qilmoq, o'qitmoq, yo'l-yo'riq ko'rsatmoq, ko'rsatma bermoq, **s'instruire** – o'qimoq, o'rganmoq; **introduire** – kiritmoq, olib kirmoq, kiritib qo'ymoq; **s'introduire** – ichiga kirmoq, suqilib kirmoq, kirib olmoq; **produire** – ishlab chiqarmoq, tayyorlamoq, keltirib chiqarmoq, qo'zg'amoq, taassurot tug'dirmoq; **se produire** – bo'lib o'tmoq, sodir bo'lmoq, yuz

bermoq, **reproduire** - qayta ishlab chiqarmoq, aks ettirmoq, tasvirlamoq, tiklamoq fe'llarini kiritamiz. Bu fe'llar quyidagicha tuslanadi:

**traduire** –tarjima qilmoq fe'li

Shaxs	Singulier	Pluriel
1.	Je traduis	nous traduisons
2.	tu traduis	vous traduisez
3.	il traduit elle traduit	ils traduisent elles traduisent

5. «- **eindre**», «-**aiendre**», «-**oindre**» bilan tugovchi fe'llar

Bu kichik guruhga **craindre** –qo'rqmoq; **plaindre** – ayamoq, achinmoq, rahm-shafqat qilmoq, rahmi kelmoq; **se plaindre** – shikoyat qilmoq, hasrat qilmoq, zorlanmoq, nolimoq, arz qilmoq; **peindre** – chizmoq, bo'yamoq; **atteindre** – etib bormoq, etib olmoq, erishmoq, tagiga etmoq; **feindre** – o'zini biror kuyga solmoq, mug'ombirlik qilmoq; **éteindre** – o'chirmoq, so'ndirmoq; **s'éteindre** – o'chmoq, so'nmoq; **joindre** – qo'shmoq, birlashtirmoq; **se joindre** – qo'shilmoq, tutashmoq, yondashmoq, yonida turmoq; **rejoindre** - qo'shilmoq, quvib etmoq, etib olmoq, qaytib kelmoq kabi fe'llarni kiritamiz. Ular quyidagicha tuslanadi:

**craindre** –qo'rqmoq fe'li

Shaxs	Singulier	Pluriel
1.	Je crains	nous craignons
2.	tu crains	vous craignez
3.	il craint elle craint	ils craignent elles craignent

6. « **partir** » fe'li kabi tuslanuvchi fe'llar

Bu kichik guruhga **partir** –jo'nab ketmoq, yo'l olmoq; **dormir** – uxlamoq; **endormir** – uxlatmoq, uxlatib qo'yimoq, g'aflatda qoldirmoq, zaharlab o'ldirmoq; **s'endormir** – uxlab qolmoq, uyquga ketmoq; **mentir** – yolg'on gapirmoq, aldamoq; **sentir** – sezmoq, his qilmoq, hidlamoq, iskamoq, is taratmoq, hid chiqarmoq, anqimoq, hidi kelmoq; **se sentir** – o'zini his qilmoq, **pressentir** – oldindan sezmoq, ko'ngilga

kelmoq; **consentir** – rozi bo‘lmoq, rizolik bermoq, qabul qilmoq, qo‘shilmoq; **servir** – taom suzmoq, keltirmoq, tortmoq, xizmat qilmoq, yuramoq, o‘rnak (namuna) bo‘lmoq, ishlamoq, vazifasini bajarmoq, **se servir** – foydalanmoq, o‘ziga suzmoq, o‘ziga quymoq; **sortir** – chiqmoq, odamlarga aralashmoq, tark etmoq, chiqarmoq, aylantirmoq, olib chiqmoq; **se repentir** – achinmoq, afsuslanmoq, pushaymon bo‘lmoq, o‘kinmoq, tavba qilmoq fe‘llari kiradi. Ular quyidagicha tuslanadi:

**partir** –jo‘nab ketmoq, yo‘l olmoq fe‘li

Shaxs	Singulier	Pluriel
1.	Je pars	nous partons
2.	tu pars	vous partez
3.	il part elle part	ils partent elles partent

Ta’kidlab o‘tish joizki, boshqa 3-guruh fe‘llarining deyarli har birining tuslanishini alohida-alohida tarzda o‘rganish va ularni yodda tutib qolish zarur. Bir hil qo‘shimcha bilan tugovchi fe‘llarning har biri alohida tuslanish formasiga ega. Masalan, «**ire**» ga tugaydigan **lire** – o‘qimoq; **dire** – demoq, aytmoq, gapirmoq; **faire** – qilmoq, bajarmoq; **écrire** – yozmoq fe‘llarining hozirgi zamonda tuslanishini bir-biriga qiyoslab ko‘ring:

Shaxs	<b>lire</b>	<b>dire</b>	<b>faire</b>	<b>écrire</b>
	Singulier	Singulier	Singulier	Singulier
1.	je lis	je dis	je fais	j’écris
2.	tu lis	tu dis	tu fais	tu écris
3.	il lit elle lit	il dit elle dit	il fait elle fait	il écrit elle écrit
	Pluriel	Pluriel	Pluriel	Pluriel
1.	nous lisons	nous disons	nous faisons	nous écrivons
2.	vous lisez	vous dites	vous faites	vous écrivez
3.	ils lisent elles lisent	ils disent elles disent	ils font elles font	ils écrivent elles écrivent

**relire**–qayta o‘qimoq; **écrire** – tanlamoq, saylamoq fe‘llari **lire** fe‘li kabi tuslansa, **redire** – qaytarmoq, takrorlamoq, qayta-qayta gapirmoq;



**contredire** – qarshilik ko‘rsatmoq, e‘tiroz bildirmoq, gap qaytarmoq, zid bo‘lmoq, talashmoq; **se contredire** – bir-birini inkor etmoq, zid kelmoq; **interdire** – ta‘qiq qilmoq; **prédire** – oldindan aytib bermoq, bashorat qilmoq fe‘llari **dire** fe‘li kabi tuslanadi. Ammo shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, **interdire**, **contredire**, **prédire** fe‘llari 2-shaxs ko‘plikda –**ez** qo‘shimchasini olib **vous interdisez**, **vous contredisez**, **vous prédisez** ko‘rinishini oladi. **Se faire** – aylanmoq, bo‘lib qolmoq; **refaire** – qaytadan qilmoq, boshqatdan qilmoq, o‘zgartirmoq; **défaire** – yozmoq, ochmoq, echmoq; **se défaire** – xalos bo‘lmoq, qutulmoq; **satisfaire** – qondirmoq, bajo keltirmoq, mos kelmoq, javob bermoq fe‘li **faire** fe‘li kabi tuslansa, **s‘écrire** – yozilmoq, yozishmoq, xat olishmoq; **décrire** – tasvirlamoq, bayon qilmoq; **inscrire** – yozmoq, ustiga yozmoq, orasiga yozmoq, qo‘shib qo‘ymoq fe‘llari **écrire** fe‘li kabi tuslanadi.

«**aller**» – bormoq, yurmoq, mos kelmoq, to‘g‘ri kelmoq; «**venir**» – kelmoq fe‘llarining hozirgi zamon shakli **Futur immédiat** va **Passé immédiat** zamonlarini hosil qilishda yordamchi fe‘l shaklida ishlatiladi. Ularning tuslanishiga e‘tibor bering:

Shaxs	aller		venir	
	Singulier	Pluriel	Singulier	Pluriel
1.	je vais	nous allons	je viens	nous venons
2.	tu vas	vous allez	tu viens	vous venez
3.	il va	ils vont	il vient	ils viennent
	elle va	elles vont	elle vient	elles viennent

**convenir** – iqror bo‘lmoq, bo‘yniga olmoq, e‘tirof etmoq, tan olmoq, rozi bo‘lmoq, unamoq; **devenir** – bo‘lib qolmoq, aylanib qolmoq, yuz bermoq; **intervenir** – aralashmoq, so‘zga chiqmoq; **parvenir** – etib bormoq, etib olmoq, erishmoq, muvaffaqiyat qozonmoq; **prévenir** – ogohlantirmoq, oldindan xabar bermoq; **revenir** – qaytmoq, qaytib kelmoq, o‘ziga kelmoq; **se souvenir** – eslamoq, esda tutmoq, xotirlamoq; **tenir** – tutmoq, egallamoq, so‘zida turmoq; **se tenir** – turmoq, o‘tirmoq, biror holatda qolmoq, o‘zini tutmoq, ushlab olmoq, tayanib turmoq, bo‘lib o‘tmoq, sodir bo‘lmoq; **appartenir** – tegishli bo‘lmoq, biror kimsaga yoki narsaga xos bo‘lmoq; **contenir** – o‘z ichiga olmoq, ega bo‘lmoq, o‘z ichida biror narsa bo‘lmoq; **obtenir** – muvaffaq bo‘lmoq, erishmoq, qozonmoq, olmoq, qo‘lga kiritmoq; **retenir** – ushlab

qolmoq, to‘xtatib qolmoq, tiymoq, bosmoq, o‘zini tutmoq; **soutenir** - qo‘llamoq, dalda bermoq, himoya qilmoq fe’llari **venir** fe’li kabi tuslansa, **s’en aller** – jo‘namoq, jo‘nab ketmoq fe’li **aller** fe’li kabi tuslanadi.

## OLMOSHLI FE’LLAR VERBES PRONOMINAUX

Fransuz tilining o‘ziga xos muhim xususiyatlaridan biri unda juda ko‘p olmoshli fe’llarning mavjudligidir. Boshqacha qilib aytganda, fransuz tilida ikki olmosh bilan tuslanuvchi fe’llar bor. Bunda birinchi olmosh ega, ikkinchi olmosh esa vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib keladi. Ikkala olmosh ham shaxs va sonda o‘zgaradi. Masalan:

**Je me lave** – men yuvinyapman.

**Vous vous reposez** – siz dam olyapsiz.

**Nous nous levons** – biz o‘rnimizdan turyapmiz.

**Vous vous peignez** – siz taranyapsiz.

## OLMOSHLI FE’LLARNING TUSLANISH NAMUNASI

**se lever** – o‘rnidan turmoq fe’li

Présent de l’Indicatif

Forme affirmative	Forme négative	Forme interrogative
je me lève	je ne me lève pas	Est-ce que je me lève?
tu te lèves	tu ne te lèves pas	te lèves-tu?
il se lève	il ne se lève pas	se lève-t-il?
elle se lève	elle ne se lève pas	se lève-t-elle?
nous nous levons	nous ne nous levons pas	nous levons-nous?
vous vous levez	vous ne vous levez pas	vous levez-vous?
ils se lèvent	ils ne se lèvent pas	se lèvent-ils?
elles se lèvent	elles ne se lèvent pas	se lèvent-elles?

**se promener** – sayr qilmoq fe’li

Forme affirmative	Forme négative	Forme interrogative
je me promène	je ne me promène pas	Est-ce que je me promène?
tu te promènes	tu ne te promènes pas	te promènes-tu?
il se promène	il ne se promène pas	se promène-t-il?
elle se promène	elle ne se promène pas	se promène-t-elle?

nous nous promenons vous vous promenez ils se promènent elles se promènent	nous ne nous promenons pas vous ne vous promenez pas ils ne se promènent pas elles ne se promènent pas	nous promenons-nous? vous promenez-vous? se promènent-ils? se promènent-elles?
---	---	---

### s'appeler – atalmoq fe'li

Forme affirmative	Forme négative	Forme interrogative
je m'appelle	je ne m'appelle pas	Est-ce que je m'appelle?
tu t'appelles	tu ne t'appelles pas	t'appelles -tu?
il s'appelle	il ne s'appelle pas	s'appelle -t-il?
elle s'appelle	elle ne s'appelle pas	s'appelle -t-elle?
nous nous appelons	nous ne nous appelons pas	nous appelons-nous?
vous vous appelez	vous ne vous appelez pas	vous appelez-vous?
ils s'appellent	ils ne s'appellent pas	s'appellent -ils?
elles s'appellent	elles ne s'appellent pas	s'appellent -elles?

Olmoshli fe'llar o'zlik va o'zaro o'timli fe'llarga bo'linadi. O'zlik fe'llar (verbes réfléchis) da ega ish-harakatni bajaradi va ish harakat unga qaytib keladi. Masalan:

Marie **se lave**, **se brosse** les dents.

(Marie lave Marie, Marie brosse les dents à Marie).

Fe'l bilan keladigan olmosh vositasiz to'ldiruvchi (**complément direct**) yoki vositali to'ldiruvchi (**complément indirect**) bo'ladi. Masalan:

Elle **se lave**.

qui? – elle-même.

se – complément direct

Elle **se lave** les mains.

à qui? – à elle-même

se – complément indirect.

Quyidagi olmoshli fe'llarni eslab qoling:

**s'intéresser** – qiziqmoq

**s'arrêter** – to'xtamoq

**s'installer** – joy olmoq, o'rnatmoq

**se trouver** – joylashmoq

**se diriger** – yo'nalmoq

**s'appeler** – atalmoq

**se rencontrer** – uchrashmoq

**se lever** – turmoq, ko'tarilmoq

**se coucher** – uxlashga yotmoq

**se réveiller** – uyg'onmoq

**se laver** – yuvimmoq

**s'essuyer** – artinmoq

**se raser** – soqol olmoq

**se peigner** – taranmoq

**se baigner** – cho‘milmoq  
**se réunir** – yigilishmoq  
**se dépêcher** – shoshilmoq  
**s’adresser** – murojaat qilmoq

**s’habiller** – kiyinmoq  
**se déshabiller** – echinmoq  
**s’entraîner** – mashq qilmoq  
**se tromper** – adashmoq

Olmoshli fe‘llar o‘timli ma‘noda (**se tromper** – adashmoq) yoki o‘timsiz fe‘l ma‘nosida (**se souvenir** – eslamoq) kelishi mumkin. Bunday fe‘llarda keluvchi to‘ldiruvchi olmosh hech qanday grammatik vazifani bajarmaydi, u faqat fe‘lning ajralmas bir bo‘lagidir.

Bunday fe‘llarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. 1-guruhga faqat olmoshli formadagi fe‘llarni kiritishi mumkin, masalan: **s’écrier**, **se souvenir**, **se moquer**, **s’enfuir**, **s’envoler**, **s’en aller**, **se méfier**.

2-guruhga ham olmoshli, ham olmoshsiz bo‘la oladigan fe‘llarni kiritish mumkin. Masalan: **jeter** – **se jeter** (otmoq - otilmoq), **douter** – **se douter** (ikkilanmoq - shubhalanmoq), **tromper** – **se tromper** (aldamoq - adashmoq), **promener** – **se promener** (sayr qildirmoq - sayr qilmoq), **passer** – **se passer** (o‘tmoq - sodir bo‘lmoq), **plaindre** – **se plaindre** (achinmoq - shikoyat qilmoq).

O‘zaro o‘timli fe‘llarda (verbes réciproques) ish-harakat egalarning biri tomonidan bajarilib, ikkinchisiga o‘tadi. Ular faqat ko‘plikda yoki ega vazifasida kelgan **on** noaniq olmoshi bilan ishlatiladi. Masalan:

Ils **se battent**.

Ils **se serrent** la main.

**se** – complément direct

**se** – complément indirect

(l’un bat l’autre)

(l’un à l’autre)

Ils se regardent

Ils se sourient.

(l’un l’autre)

(l’un à l’autre)

**Eslatma:** O‘zarolik ma‘nosi **l’un l’autre**, **les uns les autres**, **entre eux** kabi so‘zlar bilan kuchaytirilishi mumkin. Masalan:

Ils ne se quittent plus **l’un l’autre**.

Ular bir-biridan endi ajralmayaptilar.

Elles se disent **l’une à l’autre** toutes leurs pensées.

Ular o‘z fikrlarini bir-birovlariga aytadilar.

Bu kabi olmoshli fe‘llarning o‘tgan zamon sifatdoshi ega bilan ham rodda, ham sonda moslashadi. Masalan:

Ils **se sont souvenus** de leur promesse.

Cette histoire **s’est passée** il y a un an.

Olmoshli fe'llar passiv formada keluvchi fe'llarning vazifasini bajarishi mumkin:

Ce livre se lit avec intérêt. (il est lu, on le lit).

Cette tour se voit de loin. (elle est vue, on la voit).

Bunday fe'llar faqat 3-shaxs birlikda yoki ko'plikda ishlatiladi, ega bo'lib predmetning nomi hisoblanadi, passiv ma'noda qo'llanilayotgan fe'lining Participe passé shakli ega bilan sonda va rodda moslashadi:

Ces livres se sont vendus en un jour.

## FE'LLARNING BUYRUQ SHAKLI L'IMPÉRATIF

Fe'llarning buyruq shaklini hosil qilish uchun ularning 2-shaxs birlik va 1,2-shaxs ko'plik formalarini o'lamiz hamda shaxsni ifodalovchi olmoshlarni tushirib qoldiramiz. 1-guruh fe'llarida va **aller** – bormoq fe'lining 2-shaxs birligida –s harfi tushib qoladi. Masalan:

Fe'ning infinitiv shakli	Buyruq formasi	Buyruq formasining bo'lishsiz shakli
parler	parle! parlons! parlez!	ne parle pas! ne parlons pas! ne parlez pas!
finir	finis! finissons! finissez!	ne finis pas! ne finissons pas! ne finissez pas!
lire	lis! lisons! lisez!	ne lis pas! ne lisons pas! ne lisez pas!
aller	va! allons! allez!	ne va pas! n'allons pas! n'allez pas!

Bir qator fe'llarning buyruq shakli o'ziga xos usulda yasaladi. Ularni yodda saqlab qolish zarur. Masalan:

Fe'ning infinitiv shakli	Buyruq formasi	Buyruq formasining bo'lishsiz shakli
avoir	aie! ayons! ayez!	n'aie pas! n'ayons pas! n'ayez pas!

être	sois! soyons! soyez!	ne sois pas! ne soyons pas! ne soyez pas!
ouvrir	ouvre! ouvrons! ouvrez!	n'ouvre pas! n'ouvrons pas! n'ouvrez pas!
savoir	sache! sachons! sachez!	ne sache pas! ne sachons pas! ne sachez pas!
vouloir	veille! veillons! veillez!	ne veille pas! ne veillons pas! ne veuillez pas!

Olmoshli fe'llarning buyruq mayli quyidagicha bo'ladi:

**Lève-toi!**

**levons-nous!**

**levez-vous!**

**Promène-toi!**

**promenons-nous!**

**promenez-vous!**

**Appelle-toi!**

**appelons-nous!**

**appelez-vous!** va hokazo.

## O'TGAN QO'SHMA ZAMON LE PASSÉ COMPOSÉ

O'tgan qo'shma zamon tugallangan ish-harakatni ifodalaydi va u matbuotda, og'zaki va yozma nutqda keng qo'llaniladi. Bu zamoni hosil qilishda «avoir» yoki «être» yordamchi fe'llarining hozirgi zamon shaklini hamda tuslanuvchi fe'ning **Participe passé** – o'tgan zamon sifatdoshi shaklini olamiz. Masalan:

parler – gapirmoq		entrer – kirmoq	
Forme affirmative			
J'ai parlé	nous avons parlé	Je suis entré	nous sommes entrés
tu as parlé	vous avez parlé	tu es entré	vous êtes entrés
il a parlé    elle	ils ont parlé	il est entré	ils sont entrés
a parlé	elles ont parlé	elle est entrée	elles sont entrées

Forme négative			
Je n'ai pas parlé tu n'as pas parlé il n'a pas parlé elle n'a pas parlé	nous n'avons pas parlé vous n'avez pas parlé ils n'ont pas parlé elles n'ont pas parlé	Je ne suis pas entré tu n'es pas entré il n'est pas entré elle n'est pas entrée	nous ne sommes pas entrés vous n'êtes pas entrés ils ne sont pas entrés elles ne sont pas entrées
Forme interrogative			
Ai-je parlé? as-tu parlé? a-t-il parlé? a-t-elle parlé?	avons-nous parlé? avez-vous parlé? ont-ils parlé? ont-elles parlé?	suis-je entré? es-tu entré? est-il entré? est-elle entrée?	sommes-nous entrés? êtes-vous entrés? sont-ils entrés? sont-elles entrées?

**Eslatma:** «être» yordamida tuslanuvchi fe'llarning **Participe passé** shakli ega bilan sonda va rodga moslashadi.

-er bilan tugovchi fe'llarning **Participe passé** shakli -é bilan, 2-guruh fe'llarining **Participe passé** shakli -i bilan tugaydi. 3-guruh fe'llarining **Participe passé** shakli esa turli qo'shimchalarga tugaydi. Shuning uchun ham ularning **Participe passé** shaklini yodlab olish zarur. Masalan:

- 1-guruh :parler – parlé, entrer – entré, interroger – interrogé;
- 2-guruh: finir – fini – choisir – choisi, rougir – rougi;
- 3-guruh: attendre – attendu, apercevoir – aperçu, asseoir – assis, sortir – sorti, venir – venu, apprendre – appris, descendre – descendu, naître – né, mourir – mort, pouvoir – pu, vouloir – voulu, dire – dit, lire – lu va hokazo.

Fe'llarning asosiy qismi **Passé composé** zamonida «avoir» fe'li yordamida tuslanadi. Quyidagi fe'llar va barcha olmoshli fe'llar «être» fe'li yordamida tuslanadi. Ularni yodda saqlab qolish lozim:

**aller – venir (revenir, devenir)**

**arriver – partir**

**entrer – sortir**

**rester – tomber**

**monter – descendre**

**naître – mourir**

Shuningdek, «être» fe'li yordamida tuslanadigan fe'llar qatoriga **choir – qulamoq, yiqilmoq; kulfatda qoldirmoq, tashlab ketmoq** va

**déchoir** – nasib bo'lmoq, muyassar bo'lmoq; tegmoq, chiqmoq, tushmoq; o'tmoq, to'lmoq, tamom bo'lmoq, tugamoq, bitmoq fe'llarini ham kiritamiz. **Déchoir** – og'ir ahvolga tushmoq, tanazzulga yuz tutmoq, past ketmoq, inqirozga uchramoq fe'li esa **Passé composé** zamonida ham «avoir», ham «être» fe'llari yordamida tuslanadi.

## OLMOSHLI FE'LLARNING O'TGAN QO'SHMA ZAMONDA TUSLANISH NAMUNASI

**se reposer – dam olmoq fe'li**

Forme affirmative	
Je me suis reposé tu t'es reposé il s'est reposé elle s'est reposée	nous nous sommes reposés vous vous êtes reposés ils se sont reposés elles se sont reposées
Forme négative	
Je ne me suis pas reposé tu ne t'es pas reposé il ne s'est pas reposé elle ne s'est pas reposée	nous ne nous sommes pas reposés vous ne vous êtes pas reposés ils ne se sont pas reposés elles ne se sont pas reposées
Forme interrogative	
Je me suis reposé tu t'es reposé il s'est reposé elle s'est reposée	nous nous sommes reposés vous vous êtes reposés ils se sont reposés elles se sont reposées

«Avoir» va «être» fe'llari ham **Passé composé** zamonida «avoir» fe'li yordamida tuslanadi:

«avoir» – ega bo'lmoq		«être» – bo'lmoq	
J'ai eu	nous avons eu	J'ai été	nous avons été
tu as eu	vous avez eu	tu as été	vous avez été
il a eu	ils ont eu	il a été	ils ont été
elle a eu	elles ont eu	elle a été	elles ont été



## O'TGAN ZAMONDA RAVISHLARNING O'RNI

O'tgan zamonda **bien** – yaxshi, **déjà** – allaqachon, **beaucoup** – ko'p, **mal** – yomon, **peu** – kam, oz, **jamais** – hech qachon, **encore** – yana, **assez** – etarli, **aussi** - ham, **souvent** – ko'pincha, tez-tez kabi ravishlari yordamchi fe'l bilan o'tgan zamon sifatdoshining o'rtasiga qo'yiladi. Masalan:

Il est **déjà** parti.

Je n'ai pas **encore** fait ce travail.

Ammo o'rin-payt va holat ravishlari fe'ldan yoki o'tgan zamon sifatdoshidan keyin qo'yiladi. Masalan:

Il est rentré **tard**.

Je l'ai rencontré **hier**.

Il m'a écouté **attentivement**.

## FE'LOLDI KISHILIK OLMOSHLARINING O'TGAN ZAMONDAGI O'RNI

Fe'loldi kishilik olmoshlari o'tgan zamonda yordamchi fe'ldan oldin qo'yiladi:

Il l'a lu.

Il ne **lui** a pas parlé.

**Leur** a-t-il écrit?

Je ne l'ai pas vu.

O'tgan zamonda olmoshli fe'lning sifatdoshi (**participe passé**) vositasiz to'ldiruvchi olmosh bilan moslashadi. Agar olmosh vositali to'ldiruvchi bo'lsa, sifatdosh moslashmaydi. Masalan:

Elle s'est lavée. (**se** - complément direct)

Elle s'est lavé les mains (**se** - complément indirect).

## O'TGAN ZAMON DAVOM FE'LI IMPARFAIT DE L'INDICATIF

O'tgan zamon davom fe'li o'tgan zamonda tugallanmagan, davom etib turgan ish-harakatni ifoda etadi. Masalan:

*Il lisait beaucoup dans son enfance.* U bolaligida ko'p o'qir edi.

**Imparfait** zamoni og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham ko'p ishlatiladi. Fe'llarni bu zamonda tushlash uchun, tushlanayotgan fe'lni hozirgi zamon 1-shaxs ko'plik shaklini olib, uning - qo'shimchasini olib tashlaymiz va shu tariqa topilgan o'zakka quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shamiz:

Birlik	Ko'plik
1-shaxs – ais	- ions
2-shaxs – ais	- iez
3-shaxs - ait	- aient

Yuqoridagi qo'shimchalar uchala guruh fe'llari uchun bir xil, faqat «être» fe'lining o'zagi o'zgaradi.

### FE'LLARNING TUSLANISH NAMUNALARI

1-guruh	2-guruh	3-guruh	
		avoir	être
je parlais	je finissais	j'avais	j'étais
tu parlais	tu finissais	tu avais	tu étais
il parlait	il finissait	il avait	il était
elle parlait	elle finissais	elle avait	elle était
nous parlions	nous finissions	nous avions	nous étions
vous parliez	vous finissiez	vous aviez	vous étiez
ils parlaient	ils finissaient	ils avaient	ils étaient
elles parlaient	elles finissaient	elles avaient	elles étaient

#### Eslatma:

1. **-cer** qo'shimchasi bilan tugovchi fe'llar **Imparfaitda** tushlanganda uchala shaxs birlik va 3-shaxs ko'plikda **-ç** shaklini oladi: *je commençais, tu commençais, il (elle) commençait, ils (elles) commençaient.*

2. **-ger** qo'shimchasi bilan tugovchi fe'llar **Imparfaitda** tushlanganda uchala shaxs birlik va 3-shaxs ko'plikda **a** harfidan oldin, **g** harfidan keyin talaffuz qilinmaydigan **e** harfini oladi: *je mangeais, tu mangeais, il (elle) mangeait, ils (elles) mangeaient.*

3. **-guer** qo'shimchasi bilan tugovchi fe'llarda **u** harfi saqlanib qoladi: *je conjuguais, tu conjuguais, nous conjuguaions.*

4. O'zakda i harfi bo'lgan fe'llar (**crier, copier** kabi) **Imparfait**da tushlanganda i harfi hamma shaxslarda saqlanib qoladi: *je copiaais, tu copiaais, il (elle) copiaait, nous copiaions, vous copiaiez, ils (elles) copiaient.*

**Imparfait** zamoni quyidagi ish harakatlarni ifodalash uchun keng qo'llaniladi:

1. **Imparfait** odatda ish-harakatning bo'lib o'tganligini yoki takrorlanib turganligini ifoda etadi:

*En été je me levais à 8 heures (chaque jour, souvent, toujours, d'habitude, rarement).* Yozda men (har kuni, ko'pincha, har doim, odatda, ba'zan) soat 8 da turar edim.

2. **Imparfait** o'tgan zamondagi tasvirni ifodalashda ishlatiladi:

*Son père était de haute taille. Il avait les cheveux noirs et les yeux bleus.* Uning otasi baland bo'yli edi. Uning sochlari qora va ko'zlari ko'k edi.

*C'était l'été. Le ciel était bleu. Il faisait bien chaud.* Yoz edi. Osmon ko'm-ko'k edi. Havo ancha issiq edi.

3. **Imparfait** ish-harakatning tugallangan ish-harakat bilan bir vaqtda bajarilishini ifodalaydi:

*Je me reposais, quand mon ami a sonné à la porte.* Do'stim eshik qo'ng'iroqini bosib chaqirganda, men dam olayotgan edim.

4. **Imparfait** bo'lib o'tgan ikkita ish-harakatning bir paytda bajarilishini ifodalaydi:

*Pendant que le professeur expliquait cette règle, elle prenait des notes.* O'qituvchi bu qoidani tushuntirayotgan paytda, u konspekt olayotgan edi.

## O'TGAN SODDA ZAMON PASSÉ SIMPLE

O'tgan sodda zamon tugallangan, natijasi hozirgi zamonga bog'liq bo'lmagan ish-harakatni ifodalaydi. U og'zaki nutqda deyarli ishlatilmaydi, yozma nutqda esa bayonni va tasvirni ifodalashda qo'llaniladigan zamondir. Shuningdek, bu zamon gazeta maqolalarida **Passé composé** zamoni bilan bir qatorda ishlatiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, **Passé composé** zamoni hozirgi zamon bilan bog'liq ish-harakatni ifoda etsa, **Passé simple** zamoni ifodalagan ish-harakat hozirgi zamon bilan bog'liq bo'lmaydi. Masalan:

*Je ne veux pas prendre ce journal, je l'ai déjà lu.*

Men bu gazetani olishni xohlamayman, men uni o'qiganman.  
**Pouchkine mourut en 1837.**  
 Pushkin 1837 yilda vafot etgan.

O'tgan sodda zamon quyidagilarni ifodalash uchun qo'llaniladi:

1. Tugallangan ish-harakatni:

**Le Championnat du Monde eut lieu en 2012.**

Jahon chempionati 2012 yilda bo'ldi.

2. O'tgan va tugallangan ish-harakatni:

**En 1930 elle arriva dans la capitale, loua une modeste chambre d'étudiante et commença à suivre les cours.**

U 1930 yilda poytaxtga keldi, oddiygina arzon xonani ijaraga oldi va darslarga qatnay boshladi.

3. Muddati chegaralangan bo'lib o'tgan ish-harakatni:

**Moscou redevient la capitale depuis 1918.**

Moskva 1918 yildan boshlab poytaxtga aylandi.

**La Commune de Paris exista pendant 72 jours.**

Parij Kommunasasi 72 kun yashadi.

Fe'llarni o'tgan sodda zamonda tushlash uchun fe'l o'zagiga har bir guruh uchun xos bo'lgan quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shamiz:

Shaxs	1-guruh		2-guruh		3-guruh		
	-ai	-âmes	-is	-îmes	-is	-îmes	-us -ûmes
1	-ai	-âmes	-is	-îmes	-is	-îmes	-us -ûmes
2	-as	-âtes	-is	-îtes	-is	-îtes	-us -ûtes
3	-a	-èrent	-it	-irent	-it	-irent	-ut -urent

### FE'LLARNING PASSE SIMPLE ZAMONIDA TUSLANISH NAMUNALARI

parler	finir	dire	lire	faire
je parlai tu parlais il parla elle parla	je finis tu finis il finit elle finit	je dis tu dis il dit elle dit	je lus tu lus il lut elle lut	je fis tu fis il fit elle fit
nous parlâmes vous parlâtes ils parlèrent elles parlèrent	nous finîmes vous finîtes ils finirent elles finirent	nous dûmes vous dîtes ils dirent elles dirent	nous lûmes vous lûtes ils lurent elles lurent	nous fîmes vous fîtes ils firent elles firent

## O'ZAGINI O'ZGARTIRADIGAN 3-GURUH FE'LLARI

<b>avoir</b>	<b>être</b>	<b>recevoir</b>	<b>savoir</b>	<b>traduire</b>
je eus tu eus il eut elle eut	je fus tu fus il fut elle fut	je reçus tu reçus il reçut elle reçut	je sus tu sus il sut elle sut	je traduisis tu traduisis il traduisit elle traduisit
nous eûmes vous eûtes ils eurent elles eurent	nous fûmes vous fûtes ils furent elles furent	nous reçûmes vous reçûtes ils reçurent elles reçurent	nous sûmes vous sûtes ils surent elles surent	nous traduisîmes vous traduisîtes ils traduisirent elles traduisirent
<b>vivre</b>	<b>devoir</b>	<b>pouvoir</b>	<b>écrire</b>	<b>venir</b>
je vécus tu vécus il vécut elle vécut	je dus tu dus il dut elle dut	je pus tu pus il put elle put	j'écrivis tu écrivis il écrivit elle écrivit	je vins tu vins il vint elle vint
nous vécûmes vous vécûtes ils vécurent elles vécurent	nous dûmes vous dûtes ils durent elles durent	nous pûmes vous pûtes ils purent elles purent	nous écrivîmes vous écrivîtes ils écrivirent elles écrivirent	nous vînmes vous vîntes ils vinrent elles vinrent

### Eslatma:

a) 3-guruh fe'llaridan **aller, envoyer** fe'llari 1-guruh fe'llari kabi tuslanadi.

b) quyidagi fe'llar **Passé simple** zamonida u unlisini oladilar: *avoir, boire, connaître, courir, devoir, lire, mourir, plaire, pouvoir, recevoir, savoir, vivre, vouloir, falloir, pleuvoir, être.*

v) quyidagi fe'llar **Passé simple** zamonida i unlisini oladilar: *attendre, atteindre, battre, écrire, dire, mettre, ouvrir, prendre, rire, sortir, suivre, traduire, faire.*

### UZOQ O'TGAN ZAMON PLUS-QUE-PARFAIT

Fe'llarni uzoq o'tgan zamonda tushlash uchun **avoir** yoki **être** yordamchi fe'llarini **Imparfait** zamonida olamiz va unga tuslanayotgan fe'llning **Participe passé** (o'tgan zamon sifatdoshi) shaklini qo'shamiz.

## FE'LLARNING TUSLANISH NAMUNALARI

parler	finir	avoir	être
j'avais parlé tu avais parlé il avait parlé elle avait parlé	j'avais fini tu avais fini il avait fini elle avait fini	j'avais eu tu avais eu il avait eu elle avait eu	j'avais été tu avais été il avait été elle avait été
nous avions parlé vous aviez parlé ils avaient parlé elles avaient parlé	nous avions fini vous aviez fini ils avaient fini elles avaient fini	nous avions eu vous aviez eu ils avaient eu elles avaient eu	nous avions été vous aviez été ils avaient été elles avaient été
se laver	partir	venir	naître
je m'étais lavé(e) tu t'étais lavé(e) il s'était lavé elle s'était lavée	j'étais parti(e) tu étais parti(e) il était parti elle était partie	j'étais venu(e) tu étais venu(e) il était venu elle était venue	j'étais né(e) tu étais né(e) il était né elle était née
nous nous étions lavés vous vous étiez lavés ils s'étaient lavés elles s'étaient lavées	nous étions partis vous étiez partis ils étaient partis elles étaient parties	nous étions venus vous étiez venus ils étaient venus elles étaient venues	nous étions nés vous étiez nés ils étaient nés elles étaient nées

**Plus-que-parfait** zamoni o'tgan ish-harakatdan oldinroq sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi. Bu zamon og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham qo'llaniladi. U quyidagi hollarda ishlatiladi:

1). Ergashgan gaplarda, qachonki bosh gapdagi fe'l o'tgan zamonda bo'lsa. Masalan:

*Ils virent le film, dont ils avaient entendu beaucoup parler.*

Ular u haqida o'zlari ko'p eshitgan filمنى ko'rdilar.

*Nous avons admiré les nouvelles maisons qu'on avait construites à Tachkent.*

Biz Toshkentda yangi qurilgan uylarni zavqlanib tomosha qildik.

*Il se sentait mal, parce qu'il avait froid.*

U o'zini yomon his qilar edi, chunki shamollab qolgan edi.

2). Oldin bo'lib o'tgan ish-harakatni ifodalash uchun mustaqil gaplarda ishlatiladi:

*Karim devint étudiant, l'année passé il était entré à l'Université.*

Karim talaba bo'ldi, u o'tgan yili universitetga kirgan edi.

*Tout le monde était à sa place. On avait sonné pour la troisième fois.*

Hamma joyida edi, 3-marta qo'ng'iroq chalindi.

## KELASI ZAMON FUTUR SIMPLE

Kelasi zamon fe'li ish-harakatning kelajakda bajarilishini bildiradi. Fe'llarni **Futur simple** zamonida tushlash uchun ularning bo'lishsiz (infinitif) shakliga quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shamiz: **-ai, -as, -a; -ons, -ez, -ent.**

### FE'LLARNING FUTUR SIMPLE ZAMONIDA TUSLANISH NAMUNALARI

1-GURUH <b>parler</b>	2-GURUH <b>finir</b>	3-GURUH <b>écrire</b>
je parlerai tu parleras il parlera elle parlera	je finirai tu finiras il finira elle finira	j'écirai tu écriras il écrira elle écrira
nous parlerons vous parlerez ils parleront elles parleront	nous finirons vous finirez ils finiront elles finiront	nous écrivons vous écrirez ils écriront elles écriront

Umumiy qoidadan mustasno bo'lgan bir qator 3-guruh fe'llari borki, ular **Futur simple** zamonida butunlay boshqacha ko'rinishga ega buladilar. Masalan:

<b>avoir</b>	<b>être</b>	<b>aller</b>	<b>venir</b>	<b>faire</b>
j'aurai tu auras il aura	je serai tu seras il sera	j'irai tu iras il ira	je viendrai tu viendras il viendra	je ferai tu feras il fera

elle aura	elle sera	elle ira	elle viendra	elle fera
nous aurons	nous serons	nous irons	nous viendrons	nous ferons
vous aurez	vous serez	vous irez	vous viendrez	vous ferez
ils auront	ils seront	ils iront	ils viendront	ils feront
elles auront	elles seront	elles iront	elles viendront	elles feront

Quydagi fe'llarning **Futur simple** zamonida birlik shaklini yod oling:

acquérir – *j'acquerrai*  
 apercevoir – *j'apercevrai*  
 choir – *il cherra*  
 courir – *je courrai*  
 déchoir – *je décherrai*  
 défaillir – *je défaudrai, je défaillirai*  
 devoir – *je devrai*  
 échoir – *il écherra, il échoira*  
 envoyer – *j'enverrai*  
 falloir – *il faudra*  
 mourir – *je mourrai*  
 ouïr – *j'oirai*  
 pleuvoir – *il pleuvra*  
 pouvoir – *je pourrai*  
 recevoir – *je recevrai*  
 savoir – *je saurai*  
 tenir – *je tiendrai*  
 valoir – *je vaudrai*  
 voir – *je verrai*  
 vouloir – *je voudrai*

Diqqat! *envoyer, voir, pouvoir, courir, mourir* fe'llari Futur simple zamonida ikkita r harfini oladilar: *je verrai, je pourrai, je courrai, je mourrai*.

### YAQIN KELASI ZAMON FUTUR IMMEDIAT

Bu zamon ifoda etgan ish-harakat yaqin kelajakda, tez orada bajariladi va tugaydi. O'zbek tiliga «*hozir*», «*hozirgina*» ravishlari orqali tarjima qilinadi. Masalan:



*Je vais vous expliquer la règle* – Men sizga hozir qoidani tushuntiraman.

*Je vais manger ce que j'avais* – Mendagi narsalarni hozir eyman.

Fe'llarni yaqin kelasi zamon (**Futur immédiat**)da tushlash uchun «*aller*» – bormoq fe'lini hozirgi zamonda tushlab olamiz va unga asosiy fe'lning noaniq shaklini qo'shamiz.

### FE'LLARNING TUSLANISH NAMUNALARI

parler – gapirmoq		lire – o'qimoq	
je vais parler tu vas parler il va parler elle va parler	je ne vais pas parler tu ne vas pas parler il ne va pas parler elle ne va pas parler	je vais lire tu vas lire il va lire elle va lire	je ne vais pas lire tu ne vas pas lire il ne va pas lire elle ne va pas lire
nous allons parler vous allez parler ils vont parler elles vont parler	nous n'allons pas parler vous n'allez pas parler ils ne vont pas parler elles ne vont pas parler	nous allons lire vous allez lire ils vont lire elles vont lire	nous n'allons pas lire vous n'allez pas lire ils ne vont pas lire elles ne vont pas lire

Agar gapda payt holi bo'lsa, unda **Futur immédiat** «niyat qilmoq + infinitif» so'zlari bilan tarjima qilinadi. Masalan:

*Qu'allez-vous faire après le déjeuner?*

Nonushtadan so'ng nima qilmoqchisiz? (qanday niyatdasiz?)

Gapda vositasiz va vositali to'ldiruvchilar fe'lning bo'lishsiz formasidan oldin qo'yiladi. Masalan:

*Je vais le lui expliquer.* Mun hozir buni unga tushuntiraman.

*Vous allez voir mon ami, il va venir.* Mening do'stimni hozir ko'rasiz, u hoziroq keladi.

*Tu vas lui dire ce que nous pensons de lui.* Biz u haqida nima o'ylayotganimizni sen unga hoziroq aytasan.

*Nous allons nous asseoir sur ce banc.* Biz hozir bu skameykaga o'tiramiz.

*Je vais le vous apporter.* Men hoziroq uni sizga olib kelaman.

**O'TGAN KELASI ZAMON  
FUTUR DANS LE PASSÉ  
(CONDITIONNEL PRÉSENT)**

O'tgan kelasi va hozirgi shart mayli zamonlari bir xil shaxs-son qo'shimchalariga ega zamonlardir. Boshqacha qilib aytganda, har ikki zamon bir xil tuslanishga egadir. Bu zamonlar fe'ining noaniq shakliga birlikda **-ais, -ais, -ait**, ko'plikda **-ions, -iez, -aient** qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan yasaladi. 3-tuslanish fe'llarining ayrimlari bu zamonlarda **Futur simple** zamoniga o'xshab o'z o'zagini o'zgartiradi.

**FE'LLARNING TUSLANISH NAMUNALARI**

parler	finir	lire	aller
je parlerais	je finirais	je lirais	j'irais
tu parlerais	tu finirais	tu lirais	tu irais
il parlerait	il finirait	il lirait	il irait
elle parlerait	elle finirait	elle lirait	elle irait
nous parlerions	nous finirions	nous lirions	nous irions
vous parleriez	vous finiriez	vous liriez	vous iriez
ils parleraient	ils finiraient	ils liraient	ils iraient
elles parleraient	elles finiraient	elles liraient	elles iraient

**Eslatma:** 3-guruh fe'llarining o'zagi bu zamonda xuddi **Futur simple** zamonidagidek bo'ladi. Masalan: *je viendrai – je viendrais, tu feras – tu ferais, il aura – il aurait, il sera – il serait.*

**Futur dans le passé** zamoni biror o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakatga nisbatan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan:

*Il a dit qu'il reviendrait dans une heure.*

U bir soatdan keyin qaytib kelishini aytdi.

**HOZIRGI ISTAK MAYLI ZAMONI  
SUBJONCTIF PRÉSENT**

**Subjonctif présent** zamonini yasash uchun tuslanuvchi fe'lni hozirgi zamon (**Présent de l'Indicatif**) 3-shaxs ko'plik shaklini olamiz

va uning shaxs-son qo'shimchasini tushirib qoldirib, o'zakka quyidagi qo'shimchalarni qo'shamiz:

Birlik	Ko'plik
1-shaxs -e	-ions
2-shaxs -es	-iez
3-shaxs -e	-ent

Fe'llarning **Subjonctif présent** zamonida tuslanish namunalari

1-guruh	2-guruh	3-guruh
<b>parler</b>	<b>finir</b>	<b>lire</b>
que je parle que tu parles qu'il parle qu'elle parle	que je finisse que tu finisses qu'il finisse qu'elle finisse	que je lise que tu lises qu'il lise qu'elle lise
que nous parlions que vous parliez qu'ils parlent qu'elles parlent	que nous finissions que vous finissiez qu'ils finissent qu'elles finissent	que nous lisions que vous lisiez qu'ils lisent qu'elles lisent

Quyidagi fe'llar **Subjonctif présent** zamonida alohida o'zakka egadirlar:

Noaniq shakli	Subjonctif présent	
	1-shaxs birlik	1-shaxs ko'plik
faire	que je fasse	que nous fassions
pouvoir	que je puisse	que nous puissions
savoir	que je sache	que nous sachions

Bir qator fe'llar borki, ular **Subjonctif présent** zamonida ikkita o'zakka egadirlar. Birinchi o'zak 1,2,3-shaxs birlik va 3-shaxs ko'plik shakllarini yasash uchun xizmat qilsa, 2-o'zak 1, 2-shaxs ko'plik shaklini hosil qilishda ishlatiladi. Bu fe'llarning 1, 2-shaxs ko'plik shakli **Présent de l'Indicatif**ning 1-shaxs ko'plik shaklidan yasaladi. Bular quyidagi fe'llardir:

Noaniq shakli	Subjonctif présent	
	1-shaxs birlik	1-shaxs ko'plik
<b>aller</b>	que j'aille	que nous allions que vous alliez
<b>prendre</b> (va bu kichik guruh fe'llari)	que je prenne	que nous prenions que vous preniez
<b>recevoir</b> (va bu kichik guruh fe'llari)	que je reçoive	que nous recevions que vous receviez
<b>venir (tenir)</b>	que je vienne	que nous venions que vous veniez
<b>vouloir</b>	que je veuille	que nous voulions que vous vouliez

### O'TGAN ZAMON DAVOM FE'LI ISTAK MAYLI IMPARFAIT DU SUBJONCTIF ZAMONI

**Imparfait du Subjonctif** zamonida **Passé simple** zamonining 2-shaxs birlik shakliga **-se, -ses, -t, -sions, -siez, -sent** qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan yasaladi. 3-shaxs birlikda **Passé simple** shaklidagi **-s** harfi tushirib qoldiriladi va oxirgi unli ustiga **accent circonflexe** belgisi qo'yiladi.

Fe'llarning **Imparfait du Subjonctif** zamonida tuslanish namunalari

1-guruh	2-guruh	3-guruh
<b>parler</b>	<b>finir</b>	<b>lire</b>
que je parlasse que tu parlasses qu'il parlât qu'elle parlât	que je finisse que tu finisses qu'il finît qu'elle finît	que je lusse que tu lusses qu'il lût qu'elle lût
que nous parlussions que vous parlassiez qu'ils parlissent qu'elles parlissent	que nous finissions que vous finissiez qu'ils finissent qu'elles finissent	que nous lussions que vous lussiez qu'ils lussent qu'elles lussent

## O‘TGAN ZAMON SIFATDOSHI (PARTICIPE PASSÉ) YORDAMIDA YASALADIGAN ZAMONLAR

Fransuz tilida bir qator zamonlar borki, ular tuslanuvchi asosiy fe‘lning o‘tgan zamon sifatdoshi (**Participe passé**) shakli va **avoir** yoki **être** yordamchi fe‘llarining biror zamondagi shakli yordamida hosil qilinadi. Bular **Passé composé**, **Plus-que-parfait**, **Passé antérieur**, **Futur antérieur**, **Conditinnel passé**, **Subjonctif passé**, **Plusque-parfait du Subjonctif** zamonlaridir. Biz **Passé composé**, **Plus-que-parfait** zamonlarining hosil qilinishi haqida ilgari so‘z yuritganmiz, hozir **Passé antérieur**, **Futur antérieur**, **Conditinnel passé**, **Subjonctif passé**, **Plusque-parfait du Subjonctif** zamonlarining yasalishi haqida alohida to‘xtalamiz.

### Passé antérieur zamoni

**Passé antérieur** zamoni **avoir** yoki **être** yordamchi fe‘llarining **Passé simple** zamonidagi shakli va tuslanuvchi asosiy fe‘lning **Participe passé** shakli yordamida yasaladi. **Être** fe‘li yordamida tuslanuvchi fe‘llarning **Participe passé** shakli ega bilan rodde va sonda moslashadi.

### Fe‘llarning tuslanish namunasi

parler – gapirmoq		partir – jo‘nab ketmoq	
J’eus parlé tu eus parlé il eut parlé elle eut parlé	nous eûmes parlé vous eûtes parlé ils eurent parlé elles eurent parlé	Je fus parti(e) tu fus parti(e) il fut parti elle fut partie	nous fûmes parti(es) vous fûtes parti(es) ils furent partis elles furent parties

### Futur antérieur zamoni

**Futur antérieur** zamoni **avoir** yoki **être** yordamchi fe‘llarining **Futur simple** zamonidagi shakli va tuslanuvchi asosiy fe‘lning **Participe passé** shakli yordamida yasaladi. **Être** fe‘li yordamida tuslanuvchi fe‘llarning **Participe passé** shakli ega bilan rodde va sonda moslashadi.

## Fe'llarning tuslanish namunasi

parler – gapirmoq		partir – jo'nab ketmoq	
J'aurai parlé	nous aurons parlé	Je serai parti(e)	nous serons parti(es)
tu auras parlé	vous aurez parlé	tu seras parti(e)	vous serez parti(es)
il aura parlé	ils auront parlé	il sera parti	ils seront partis
elle aura parlé	elles auront parlé	elle sera partie	elles seront parties

### Conditionnel passé zamoni

**Conditionnel passé** zamoni **avoir** yoki **être** yordamchi fe'llarining **Conditionnel présent** zamonidagi shakli va tuslanuvchi asosiy fe'lning **Participe passé** shakli yordamida yasaladi. **Être** fe'li yordamida tuslanuvchi fe'llarning **Participe passé** shakli ega bilan rodda va sonda moslashadi.

## Fe'llarning tuslanish namunasi

parler – gapirmoq		partir – jo'nab ketmoq	
J'aurai parlé	nous aurons parlé	Je serai parti(e)	nous serons parti(es)
tu auras parlé	vous aurez parlé	tu seras parti(e)	vous serez parti(es)
il aura parlé	ils auront parlé	il sera parti	ils seront partis
elle aura parlé	elles auront parlé	elle sera partie	elles seront parties

### Subjonctif passé zamoni

**Subjonctif passé** zamoni **avoir** yoki **être** yordamchi fe'llarining **Subjonctif présent** zamonidagi shakli va tuslanuvchi asosiy fe'lning **Participe passé** shakli yordamida yasaladi. **Être** fe'li yordamida tuslanuvchi fe'llarning **Participe passé** shakli ega bilan rodda va sonda moslashadi.

## Fe'llarning tuslanish namunasi

parler – gapirmoq	partir – jo'nab ketmoq
Que j'aie parlé	Que je sois parti(e)
que tu aies parlé	que tu sois parti(e)
qu'il ait parlé	qu'il soit parti
qu'elle ait parlé	qu'elle soit partie

que nous ayons parlé que vous ayez parlé qu'ils aient parlé qu'elles aient parlé	que nous soyons parti(es) que vous soyez parti(es) qu'ils soient partis qu'elles soient parties
---	--

### Plus-que-Parfait du Subjonctif zamoni

**Plus-que-Parfait du Subjonctif zamoni avoir yoki être yordamchi** fe'llarining **Imparfait du Subjonctif** zamonidagi shakli va tuslanuvchi asosiy fe'lining **Participe passé** shakli yordamida yasaladi. **Être** fe'li yordamida tuslanuvchi fe'llarning **Participe passé** shakli ega bilan rodva va sonda moslashadi.

### Fe'llarning tuslanish namunasi

<b>parler – gapirmoq</b>	<b>partir – jo'nab ketmoq</b>
Que j'eusse parlé que tu eusses parlé qu'il eût parlé qu'elle eût parlé	Que je fusse parti(e) que tu fusses parti(e) qu'il fût parti qu'elle fût partie
que nous eussions parlé que vous eussiez parlé qu'ils eussent parlé qu'elles eussent parlé	que nous fussions parti(es) que vous fussiez parti(es) qu'ils fussent partis qu'elles fussent parties

### SHAXSSIZ FE'LLAR VERBES IMPERSONNELS

Fransuz tilida shaxssiz fe'llar faqat 3-shaxs birlikda keladi: *il pleut* (pleuvoir), *il neige* (neiger), *il faut* (falloir), *il grêle* (grêler), *il bruine* (bruiner).

Shaxssiz fe'llar buyruq maylidan tashqari barcha mayllarda va zamonlarda ishlatiladi. Masalan:

*Il pleut, il a plu, il pleuvait, il vient de pleuvoir, il pleuvra, il va pleuvoir; il neige, il a neigé, il neigeait, il va neiger, etc.*

**Faire** fe'li bilan hosil qilingan shaxssiz iboralar tabiat hodisalarini ifoda etadi. Masalan:

*Il fait chaud* – issiq  
*il fait froid* – sovuq  
*il fait clair* – yorug‘  
*il fait jour* – kun yorug‘  
*il fait du vent* – shamol esyapti  
*il fait du soleil* - quyosh qizdiryapti  
*il fait beau (temps)* – ob-havo yaxshi  
*il fait mauvais (temps)* – ob-havo yomon  
*il fait 10 degrés au dessus du zéro* – 10 daraja issiq  
*il fait 10 degrés au dessous du zéro* – 10 daraja sovuq

Etre fe’li bilan kelgan shaxssiz iboralar quyidagi xususiyatlarni bildiradi:

a) *modallik xususiyatlarini:*

*il est nécessaire* – zarur, lozim, kerak;

*il est possible* – ehtimol, mumkin;

*il est utile* – foydali;

b) *vaqt munosabatlarini:*

*il est tôt, il est tard, il est temps, il est 6 heures.*

Avoir fe’li il y a shaxssiz ibora tarkibiga kirib, quyidagi xususiyatlarni bildiradi:

a) *mavjudlikni, borlikni:*

*Ici il y a trois livres;*

b) *vaqt munosabatlarini:*

*Il est parti il y a une semaine* - U bir hafta burun jo‘nab ketdi.

## DARAK MAYLI ZAMONLARINING QO‘LLANILISHI (MODE INDICATIF)

### Présent de l’indicatif zamoni

Présent de l’indicatif o‘zbek va rus tillaridagi hozirgi zamonga o‘xshab qo‘llaniladi.



Présent de l'indicatif gapda quyidagilarni ifodalash uchun ishlatiladi:				
1	2	3		4
Gap borayotgan vaqtda sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalashda	Takrorlanib turuvchi yoki odatiy holga aylanib qolgan ish-harakatni ifodalashda	hikoyaga jonlilik bag'ishlash uchun a)kelajakda sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalashda		b) o'tgan ish-harakatni ifodalashda
Nous <i>lisons</i> un texte français.	En automne <i>il pleut</i> souvent. Chaque jour <i>je me lève</i> à 7 heures.	Ce soir <i>je vais</i> au théâtre. Nous <i>partons</i> demain.	Nous <i>étions</i> en classe, nous <i>lisons</i> . Tout à coup la porte <i>s'ouvre</i> et le directeur <i>entre</i> .	Si tu viens demain, nous <i>irons</i> au cinéma.

### Passé composé va Passé simple zamonlari

**Passé composé** va **Passé simple** zamonlari o'zbek va rus tillaridagi o'tgan tugallangan zamonlarga to'g'ri keladi. Bu ikki zamonlar qo'llanilishining juda ko'p o'xshash va farq qiluvchi tomonlari mavjud.

**Passé composé** va **Passé simple** zamonlari o'tgan zamonda bo'lib o'tgan va tugallangan ish-harakatni ifoda etadi.

Passé composé va Passé simple gapda quyidagilarni ifodalash uchun ishlatiladi:	
1. Uzoq vaqt davom etgan, ammo vaqt bilan chegaralangan ish-harakatni ifodalashda (eslatmaga qarang)	<p><i>Il a vécu</i> longtemps dans cette ville. <i>Il vécut</i> longtemps dans cette ville.</p> <p><i>Nous avons passé</i> trois mois dans ce village. <i>Nous passâmes</i> trois mois dans ce village.</p>

2. Takrorlanib turuvchi, ammo vaqt bilan chegaralangan ish-harakatni ifodalashda	<p><i>Il a répété plusieurs fois sa question.</i>  <i>Il répéta plusieurs fois sa question.</i></p> <p>Sardor <i>a sauté</i> deux fois.  Sardor <i>sauta</i> deux fois.</p>
3. Biri ikkinchisidan keyin sodir bo'layotgan ish-harakatni ifodalashda	<p><i>Il s'est levé, a pris son chapeau et il est sorti.</i>  <i>Il se leva, prit son chapeau et sortit.</i></p>
4. Ish-harakatning boshlanishini ifodalashda	<p>Ayant entendu ces mots l'enfant <i>a pleuré.</i>  Ayant entendu ces mots l'enfant <i>pleura.</i></p>

**Eslatma:** **Passé composé** va **Passé simple** zamonlarini o'zbek va rus tillariga tugallangan tur zamonlari va tugallanmagan tur zamonlari tarzida tarjima qilish mumkin.

Vaqt bilan chegaralanganlik *longtemps, trois mois, plusieurs fois, de fois* kabi so'zlar bilan ifoda qilingan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, **Passé composé** va **Passé simple** zamonlarining bir-biridan farqlanuvchi jihatlari ham mavjud. Bu farqlar quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

**Passé composé** zamoni hozirgi zamon bilan bog'liq bo'lgan, hozirgi zamondagi ish-harakatdan oldin sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalashda:

*Je ne veux prendre ce journal, je l'ai déjà lu.*

Men bu gazetani olishni xohlamayman, men uni o'qiganman.

**Passé composé** zamoni og'zaki nutqda, gazeta xabarlarida, xatlarda va publisistik asarlarda qo'llaniladi.

**Passé simple** zamoni hozirgi zamon bilan bog'liq bo'lmagan ish-harakatni ifodalaydi:

Maupassant *mourut* en 1893.

**Passé simple** zamoni yozma (kitobiy) nutqda qo'llaniladi. Hozirgi fransuz tilida gazeta maqolalarida **Passé composé** zamoni bilan bir qatorda qo'llaniladi.

## IMPARFAIT ZAMONI

**Imparfait** zamoni boshlanishi va oxiri ko'rsatilmagan tugallanmagan ish-harakatni ifoda etadi va shuning uchun ham voqealarni tasvirlashda, bayon qilishda ko'p ishlatiladi. Imparfait zamoni o'zbek va rus tillaridagi fe'llarning tugallanmagan tur zamoniga mos keladi.

*Pierre habitait chez ses parents.*

*Il faisait beau temps. Le soleil brillait. Les champs étaient verts.*

Imparfait zamoni quyidagilarni ifodalash uchun ishlatiladi:	Eslatma
1. Takrorlanib turuvchi odatiy ish-harakatni ifodalash uchun:	<p><i>Chaque jour il se levait à huit heures, faisait de la gymnastique, se lavait, s'habillait, déjeunait et allait à l'Université.</i></p> <p>Har kuni u soat 8 da o'rnidan turardi, yuvinardi, nonushta qilardi va Universitetga borardi.</p>
<p>2. Quyidagi hollarda:</p> <p>a) bir-vaqtda, parallel tarzda sodir bo'layotgan ish-harakatni ifodalash uchun:</p> <p>b) boshqa ish-harakat boshlanadigan paytda davom etib turgan ish-harakatni ifodalashda</p>	<p>a) <i>Pendant que l'enfant dormait, sa mère préparait le déjeuner.</i></p> <p>Bola uxlayotgan paytda, onasi nonushta tayyorlardi.</p> <p>b) <i>Nous étions dans la classe quand le directeur est entré.</i></p> <p>Direktor kirganida biz sinfda edik.</p> <p><i>La voiture était près de la gare, quand Jean arriva.</i></p> <p>Jan kelganida mashina vokzalda turardi.</p>

3. Shart maylida si bog'lovchisidan keyin <b>Conditionnel présent</b> zamoni o'rnida:	<i>Nous ferions du ski, s'il faisait beau temps.</i> Agar havo yaxshi bo'lsa, biz chang'i uchamiz.
---	---

O'zlashtirma gaplarda bosh gapning fe'li o'tgan zamonda ishlatilgan bo'lsa, **Imparfait** zamoni ko'chirma gapdagi **Présent** zamoni o'rnida qo'llaniladi.

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
Il raconta: " <i>J'habite cette maison.</i> " U dedi: "Men shu uyda yashayman". <b>Elle demanda:</b> " <i>Où est ta règle ?</i> " U so'radi: "Chizg'iching qaerda?"	<i>Il raconta qu'il habitait cette maison.</i> U shu uyda yashayotganini aytdi. <i>Elle demanda où était sa règle.</i> U uning chizg'ichi qaerdaligini so'radi.

### PLUS-QUE-PARFAIT ZAMONI

**Plus-que-parfait** zamoni o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakatdan oldin yuz bergan ish-harakatni ifodalaydi.

**Plus-que-parfait** zamoni mustaqil, bosh gaplarda va ergash gaplarda qo'llanilishi mumkin. O'zbek va rus tillariga **Plus-que-parfait** zamoni o'tgan tugallangan zamon yoki o'tgan tugallanmagan zamon fe'li shaklida tarjima qilinadi.

Ish-harakat o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakatdan oldin yuz beradi:

*Quand il rentra de l'usine ma sœur était déjà partie.* (Bosh gapda)  
U zavoddan qaytganida singlim jo'nab ketgan edi.

*Il leur parla du film qu'il avait vu.* (Ergash gapda)

U o'zi ko'rgan film haqida ularga gapirib berdi.

Ish-harakat butun bir davrdan oldin sodir bo'lgan ish-harakatdan oldin yuz beradi:

*Le 12 avril 1961 a été effectué le premier vol dans le Cosmos.*

1961 yil 12 aprel kuni kosmosga birinchi bor parvoz qilindi.

*Le grand savant Tsiolkovsky avait prévu cet événement.* (Mustaqil gapda)

Buyuk olim Siolkovskiy bu voqeani oldindan ko‘ra bilgan edi.

**Plus-que-parfait** zamoni si bog‘lovchisidan keyin **Conditionnel passé** zamoni o‘rnida qo‘llaniladi:

*Il nous aurait prévenus hier s’il nous avait vus.*

Agar u bizni kecha ko‘rganida edi, bizni ogohlantirgan bo‘lardi.

O‘zlashtirma gaplarda bosh gapning fe‘li o‘tgan zamonda qo‘yilgan bo‘lsa, **Plus-que-parfait** zamoni ko‘chirma gapdagi **Passé composé** zamonining o‘rnini egallaydi:

Ko‘chirma gap	O‘zlashtirma gap
<i>Elle raconta: "J'ai été au musée et j'y ai vu de beaux tableaux".</i>	<i>Elle raconta qu'elle avait été au musée et qu'elle y avait vu de beaux tableaux.</i>
U dedi: "Men muzeyda bo‘ldim va u erda chiroyli kartinalarni ko‘rdim".	U muzeyda bo‘lganini va u erda chiroyli kartinalarni ko‘rganini aytdi.

## PASSÉ ANTÉRIEUR ZAMONI

**Passé antérieur** zamonı bevosita o‘tgan zamondagi ish-harakatdan oldin o‘tgan zamonda yuz bergan tugallangan ish-harakatni ifoda etadi.

**Passé antérieur** zamonı faqat yozma nutqda, *lorsque, quand* (vaqtda, paytda), *dès que, aussitôt que* (...dan boshlab, shu zahoti), *après que* (...dan keyin, ...dan so‘ng), *à peine que* (bilanoq, bilan, hamono, zahoti) kabi bog‘lovchilar bilan boshlanadigan ergash gaplarda qo‘llaniladi.

Bunda bosh gapdagi ish-harakat **Passé simple** zamonida ifodalanadi. Rus va o‘zbek tillarida bu zamonning muqobili yo‘q, u tugallangan zamon tarzida tarjima qilinadi. Fe‘llarni **Passé antérieur** zamonida tushlash uchun **avoir va être** fe‘llarining **Passé simple** shakli va tuslanuvchi asosiy fe‘lning **Participe passé** shakli olinadi. **Être** fe‘li yordamida tuslanuvchi fe‘llarning **Participe passé** shakli ega bilan sonda va rodga moslashadi.

### Fe‘llarning tuslanish namunasi

parler – gapirmoq		partir – jo‘nab ketmoq	
j’eus parlé	nous eûmes parlé	je fus parti(e)	nous fûmes parti(es)

tu eus parlé	vous eûtes parlé	tu fus parti(e)	vous fûtes parti(es)
il eut parlé	ils eurent parlé	il fut parti	ils furent partis
elle eut parlé	elles eurent parlé	elle fut partie	elles furent parties

## PASSÉ IMMÉDIAT ZAMONI

**Passé immédiat** zamoni yaqindagina sodir bo‘lgan, tugallangan ish-harakatni ifoda etadi.

**Passé immédiat** zamonini hosil qilish uchun **venir** fe‘lining **Présent**dagi shaklini va tuslanuvchi asosiy fe‘ning noaniq shaklini olamiz. **Venir** fe‘li bilan tuslanuvchi fe‘ning infinitiv shakli o‘rtasiga **de** predlogi qo‘yiladi.

### Fe‘llarning tuslanish namunasi

<b>parler</b> – gapirmoq	<b>aller</b> – bormoq
je viens de parler	je viens d’aller
tu viens de parler	tu viens d’aller
il vient de parler	il vient d’aller
elle vient de parler	elle vient d’aller
nous venons de parler	nous venons d’aller
vous venez de parler	vous venez d’aller
ils viennent de parler	ils viennent d’aller
elles viennent de parler	elles viennent d’aller

O‘zbek va rus tillarida bu zamonga mos keladigan zamon mavjud emas. U fe‘ning tugallangan turi sifatida **“hozirgina”** so‘zini qo‘shish yo‘li bilan tarjima qilinadi:

*Je viens de le rencontrer dans la rue.*

Men uni hozirgina ko‘chada uchratdim.

*Aziza vient de faire un rapport.*

Aziza hozirgina dokladi qildi.

## PASSÉ IMMÉDIAT DANS LE PASSÉ ZAMONI

**Passé immédiat dans le passé** zamoni yaqindagina sodir bo‘lgan, tugallangan ish-harakatni ifoda etadi.

**Passé immédiat dans le passé** zamonini hosil qilish uchun **venir** fe'lining **Imparfait**dagi shaklini va tuslanuvchi asosiy fe'ning noaniq shaklini olamiz. **Venir** fe'li bilan tuslanuvchi asosiy fe'ning infinitiv shakli o'rtasiga **de** predlogi qo'yiladi.

### Fe'llarning tuslanish namunasi

<b>parler – gapirmoq</b>	<b>aller – bormoq</b>
je venais de parler tu venais de parler il venait de parler elle venait de parler	je venais d'aller tu venais d'aller il venait d'aller elle venait d'aller
nous venions de parler vous veniez de parler ils venaient de parler elles venaient de parler	nous venions d'aller vous veniez d'aller ils venaient d'aller elles venaient d'aller

O'zbek va rus tillarida bu zamonga mos keladigan zamon mavjud emas. U fe'ning tugallangan turi sifatida "**hozirgina**" so'zini qo'shish yo'li bilan tarjima qilinadi:

*Hier nous venions de rentrer de l'institut, quand nos amis sont arrivés.*

Kecha do'stlarimiz kelganida biz hozirgina institutdan qaytgan edik.

O'zlashtirma gaplarda bosh gapning fe'li o'tgan zamonda ifodalangan bo'lsa, **Passé immédiat dans le passé** zamoni ko'chirma gapdagi **Passé immédiat** zamonining o'rnini egallaydi:

<b>Ko'chirma gap</b>	<b>O'zlashtirma gap</b>
Il a dit: " <i>Je viens de prévenir mon ami</i> ".	Il a dit qu' <i>elle avait été</i> au musée et qu' <i>elle y avait vu</i> de beaux tableaux.
U dedi: "Men muzeyda bo'ldim va u yerda chiroyli kartinalarni ko'rdim".	U muzeyda bo'lganini va u erda chiroyli kartinalarni ko'rganini aytdi.

### FUTUR DANS LE PASSÉ ZAMONI

**Futur dans le passé** zamoni o'tgan zamonga nisbatan kelasi zamonda sodir bo'ladigan ish-harakatni ifoda etadi.

Bu zamon odatda agar bosh gapning ish-harakati o'tgan zamonda ishlatilgan bo'lsa, ergash gaplarda qo'llaniladi. O'zbek va rus tillarida unga mos keladigan zamon mavjud emas.

*On décida qu'on dînerait ensemble.*

Birgalikda tushlik qilishga qaror qilishdi.

*Anvar savait qu'elle ne viendrait pas.*

Anvar uning kelmasligini bilar edi.

O'zlashtirma gaplarda bosh gapning fe'li o'tgan zamonda ifodalangan bo'lsa, **Futur dans le passé** zamoni ko'chirma gapdagi **Futur simple** zamonining o'rni egallaydi:

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
Il a dit: "Je resterai à la maison".	Il a dit qu'il resterait à la maison.
U dedi: "Men uyda qolaman".	U uyda qolishini aytdi.

### FUTUR IMMÉDIAT DANS LE PASSÉ ZAMONI

**Futur immédiat dans le passé** zamoni o'tgan zamonda bajarilgan ish- harakatdan keyin kelajakda sodir bo'lishi nazarda tutilgan ish-harakatni ifoda etadi.

**Futur immédiat dans le passé** zamoni **aller** fe'lining **Imparfait** zamoni va tuslanuvchi asosiy fe'ning noaniq shakli yordamida yasaladi.

O'zlashtirma gaplarda bosh gapning fe'li o'tgan zamonda ifodalangan bo'lsa, **Futur immédiat dans le passé** zamoni ko'chirma gapdagi **Futur immédiat** zamonining o'rni egallaydi:

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
« Ils vont venir », déclara-t-il.	Il déclara qu'ils allaient venir.
"Ular hozir kelishadi" – dedi u.	U ularning hozir kelishlarini aytdi.

### Fe'llarning tuslanish namunasi

parler – gapirmoq		partir – jo'nab ketmoq	
J'allais parler	nous allions parler	J'allais partir	nous allions partir
tu allais parler	vous alliez parler	tu allais partir	vous alliez partir



il allait parler elle allait parler	ils allaient parler elles allaient parler	il allait partir elle allait partir	ils allaient partir elles allaient partir
--	--	--	--

## ZAMONLARNING MOSLASHUVI CONCORDANCE DES TEMPS

Fransuz tilida, qo'shma gaplarda ergashgan gapning zamoni bosh gapning zamonga bog'liq bo'ladi. Ergashgan gapning ish-harakati bosh gapning ish-harakatiga nisbatan bir vaqtda (**simultanée**), oldinroq (**antérieure**) yoki keyinroq (**postérieure**) bajarilishi mumkin. Ish-harakatning bir vaqtda bajarilishiga (**la simultanéité**), oldinroq bajarilishiga (**l'antériorité**) va keyinroq bajarilishiga (**la postériorité**) qarab, zamonlar 2 ta planda (**Plan du présent, Plan du passé**) moslashadi.

### PLAN DU PRÉSENT

Agar bosh gapning kesimi hozirgi zamonda bo'lsa ergash gapda quyidagi zamonlar qo'llaniladi:

a) ish-harakatning bir vaqtda sodir bo'lganligini ifodalash uchun hozirgi (**Présent de l'indicatif**) zamon:

*Je sais qu'il étudie le français.*

b) ish-harakatning oldin sodir bo'lganligini ifodalash uchun o'tgan (**Passé composé, Passé immédiat, Imparfait**) zamonlari:

*Je sais qu'il a étudié le français.*

*Je sais qu'il étudiait le français.*

c) ish-harakatning keyin sodir bo'lishini ifodalash uchun kelasi (**Futur simple, Futur immédiat**) zamonlari:

*Je sais qu'il étudiera le français.*

*Elle dit qu'elle va partir.*

### PLAN DU PASSÉ

Agar bosh gapdagi fe'l biror o'tgan zamonda kelsa, ergashgan gapda quyidagi zamonlar qo'llaniladi:

a) ish-harakatning bir vaqtda sodir bo'lganligini ifodalash uchun o'tgan zamon davom fe'li (**Imparfait**):

*Je savais (j'ai su, je sus) qu'il étudiait le français.*

b) ish-harakatning oldin sodir bo'lganligini ifodalash uchun uzoq o'tgan (**Plus-que-parfait**) zamoni:

*Je savais (j'ai su, je sus) qu'il avait étudié le français.*

*Je sais qu'il étudiait le français.*

c) ish-harakatning keyin sodir bo'lishini ifodalash uchun o'tgan kelasi (**Futur dans le passé**) zamoni:

*Je savais (j'ai su, je sus) qu'il étudierait le français.*

Zamonlar moslashuvini yodda saqlab qolish uchun quyidagi jadvalni e'tiboringizga havola qilamiz:

### Concordance des temps Zamonlar moslashuvi jadvali

Plan (temps de la principale)	Rapports temporels (temps de la subordonnée)		
	simultanéité	Antériorité	postériorité
<u>Plan du présent</u> Présent	Présent	1. Passé composé 2. Imparfait 3. Passé immédiat	1. Futur simple 2. Futur immédiat
Ex: Il dit qu'	il travaille	il a travaillé il travaillait il vient de travailler	il travaillera il va travailler
<u>Plan du passé</u> 1. Passé simple 2. Passé composé 3. Imparfait	Imparfait	Plus-que-parfait	Futur dans le passé
Ex: Il dit (a dit, disait) qu'	il travaillait	il avait travaillé	il travaillerait

### SHART MAYLI ZAMONLARINING QO'LLANILISHI (MODE CONDITIONNEL)

**Conditionnel** amalga oshirsa bo'ladigan, ro'yobga chiqadigan, taxmin, faraz qilingan, chamalangan, mo'ljallangan, istalgan, orzu qilingan, kutilgan, ko'ngildagi ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi.

Maylning shart mayli deb atalishiga sabab shundan iboratki, ko‘pincha bu ish-harakatning amalga oshish imkoniyati qandaydir shartlarga bog‘liq bo‘ladi.

Conditionnel quyidagilarni ifodalash uchun ishlatiladi:	
<p>1. Mustaqil gaplarda:</p> <p>a) istak va xohishni</p> <p>b) taxmin, faraz, gumonni</p> <p>v) boadab iltimosni</p>	<p><i>Je voudrais visiter cette exposition.</i> Men bu ko‘rgazmani borib ko‘rmoqchi edim.</p> <p><i>Il pourrait être à la réunion.</i> U yig‘ilishda bo‘lsa kerak.</p> <p><i>Voudriez-vous me passez le sel ?</i> Menga tuzni uzatib yubora olmaysizmi?</p>
<p>2. Qo‘shma gaplarda (faqat bosh gapda) amalga oshishi biror-bir shart bilan bog‘liq bo‘lgan taxminiy, faraziy ish-harakatni. Ergash gapda si bog‘lovchisidan keyin darak mayli qo‘llaniladi.</p>	<p><i>Il irait au stade s’il avait le billet.</i></p>

**Conditionnel** ikkita zamonga ega: **Conditionnel présent** va **Conditionnel passé**. Har ikkala zamon ham o‘zbek va rus tillariga shart maylining bir shakli tarzida tarjima qilinadi.

Shart mayli zamonlarining ishlatilish jadvali

Ish-harakat tegishli	Shart mayli zamoni	Misollar
<p>1. a) hozirgi zamonga</p> <p>b) kelasi zamonga</p>	Conditionnel présent	<p>a) <i>S’il était libre à présent, il vous aiderait.</i> Agar u hozir bo‘sh bo‘lganida, sizga yordam berardi.</p> <p>b) <i>S’il était libre demain, il vous aiderait.</i> Agar u ertaga bo‘sh bo‘lganida, sizga yordam berardi.</p>

2. o'tgan zamonga	Conditionnel passé	<i>S'il avait été libre hier, il vous aiderait.</i> Agar u kecha bo'sh bo'lganida, sizga yordam berardi.
-------------------	-----------------------	---

## ISTAK MAYLI ZAMONLARINING QO'LLANILISHI (MODE SUBJONCTIF)

**Subjonctif** odatda ergash gaplarda ishlatiladi. Ammo ba'zida mustaqil gaplarda ham kelishi mumkin.

### Subjonctifning mustaqil gaplarda qo'llanilishi

**Subjonctif** mustaqil gaplarda qo'llanilganida istak, xohish, irodani, buyruq, farmon, amrni, tilak, talab, taklifni, taqiqni ifodalaydi. Bunda u faqat 3-shaxs birlik yoki 3-shaxs ko'plikdagina ishlatiladi va buyruq maylining o'rini egallaydi:

*Qu'ils répondent!*

Ular javob berishsin!

*Qu'il entre!*

U kirsin!

*Qu'on lise plus haut!*

Balandroq o'qishsin!

### Subjonctifning to'ldiruvchi ergash gaplarda qo'llanilishi

**Subjonctif que** bog'lovchisi bilan kiritiladigan to'ldiruvchi ergash gaplarda ishlatiladi:

1) agar bosh gapda istak, xohish, iroda, buyruq, farmon, amr, tilak, talab, taklif, iltimos, iltijo, taqiq ifodalangan bo'lsa:

a) quyidagi fe'llardan keyin:

<i>vouloir</i>	istamoq, xohlamoq, tusamoq, ixtiyor, azm etmoq
<i>désirer</i>	tilamoq, xohlamoq, istamoq, orzu qilmoq
<i>souhaiter</i>	istamoq, xohlamoq, tilak qilmoq, niyat qilmoq
<i>prier</i>	yolvormoq, o'tinmoq, yalinmoq, iltijo qilmoq
<i>commander</i>	buyruq bermoq, amr etmoq
<i>ordonner</i>	buyurmoq, buyruq bermoq, farmoyish bermoq
<i>permettre</i>	ruxsat bermoq, ijozat bermoq, yo'l qo'yimoq
<i>défendre</i>	taqiqlamoq, man qilmoq, ta'qiqlab qo'yimoq

- b) quyidagi shaxssiz oborotlardan keyin:  
*il faut* kerak, zarur, darkor, lozim  
*il est nécessaire* kerak, zarur, darkor, lozim

Je veux *que* vous l'*aidiez*.

Men sizning unga yordamlashishingizni xohlayman.

Tu désires *qu'elle vienne* te voir.

Sen uning seni ko'rgani kelishini istayapsan.

Le père défend *qu'il aille* au cinéma.

Ota uning kinoga borishini taqiqlayapti.

Il faut *que* cet artiste *prenne part* à notre fête.

Bu artist bizning bayramimizda qatnashishi lozim.

Ba'zan istak yoki buyruq *dire, écrire, crier* fe'llari yordamida ifodalangan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda bu fe'llardan keyin **Subjonctif** qo'yiladi. Ergash gapdagi *que* esa rus tiliga *чтобы* bog'lovchisi kabi tarjima qilinadi.

Agar yuqoridagi fe'llar buyruq yoki istakni ifoda etmasalar, Indicatif ishlatiladi; ergash gapdagi *que* esa rus tiliga *что* bog'lovchisi kabi tarjima qilinadi.

#### Qiyoslang:

Dis-lui *qu'il lise* plus haut! Скажи ему, чтобы он читал громче.  
Unga ayt, balandroq o'qisin.

Dis-lui *qu'il lit* trop haut. Скажи ему, что он читает громко.  
Unga ayt, u baland o'qiyapti.

2) agar bosh gapda shubha, ishonchsizlik, gumon, jur'atsizlik ifodalangan bo'lsa:

a) quyidagi fe'llardan keyin:

*douter* – shubhalanmoq, shubha, gumon qilmoq, gumonsiramoq

*ignorer* – bilmaslik, g'aflatda bo'lmoq, e'tiborsiz qoldirmoq, nazar-pisand qilmaslik

Je doute *qu'ils arrivent* à temps.

Men ularning vaqtida kelishlariga shubhalanyapman.

Ils ignorent *qu'ils aient reçu* une lettre.

Ular xat olganlarini bilmaydilar.

b) *il semble* (ehtimol, shekilli, go‘yo), *il est possible* (mumkin, imkoni bor) shaxssiz oborotlaridan keyin:

**Il est possible** *que nous visitons* ce musée.

Biz bu muzeyni borib ko‘rishimiz mumkin.

c) *penser* (o‘ylamoq), *croire* (o‘ylamoq, hisoblamoq) fe‘llarining bo‘lishsiz va so‘roq formalaridan keyin (chunki ular bu holda shubhani, gumonni ifodalaydilar):

Je ne **pense** pas *que* cette affaire *réussite*.

Men bu ish amalga oshadi deb o‘ylamayman.

**Croyez-vous** *qu’elle dise* la vérité?

U haqiqatni gapiryapti deb o‘ylayapsizmi?

**Ammo:** Mon oncle pense *qu’elle peut* vous aider. (**Indicatif**)

Amakim u sizga yordam bera oladi deb o‘ylaydi.

2. Agar bosh gapda biror xis-tuyg‘u ifodalangan bo‘lsa, quyidagi fe‘llardan keyin **Subjonctif** qo‘yiladi:

*craindre* qo‘rqmoq, cho‘chimoq, xavotirlanmoq, tashvishlanmoq

*avoir peur* qo‘rqmoq

*s’étonner* hayratda qolmoq, hayron qolmoq, hayron bo‘lmoq

*se fâcher* jahli chiqmoq, hafa bo‘lmoq

*s’indigner* achchiqlanmoq, qahri kelmoq, g‘azabi qaynamoq

*se réjouir* xursand, shod bo‘lmoq, sevinmoq, quvonmoq

*être heureux* baxtli bo‘lmoq

Le professeur est **étonné** *que* tant d’étudiants *manquent*.

O‘qituvchi shuncha talabalarning yo‘qligidan ajablandi.

Ta mère **se fâche** *que* tu ne sois pas *attentif*.

Onang seni e‘tiborsizligingdan hafa bo‘lyapti.

Je **me réjouis** *qu’il soit rentré*.

Men uning qaytganidan quvonayapman.

**Eslatma:** *craindre* (qo‘rqmoq) va *avoir peur* (qo‘rqmoq) fe‘llaridan keyin tasdiq gaplarda **ne** yuklamasi ishlatiladi, ammo u o‘zbek va rus tillariga tarjima qilinmaydi. Qiyoslang:

Je crains qu'il ne vienne.  
Je crains qu'il ne vienne pas.

Men u keladi deb qo'rqaman.  
Men u kelmaydi deb qo'rqaman.

### Subjonctifning hol ergash gaplarda qo'llanilishi

**Subjonctif** hol ergash gaplarda ayrim qo'shma bog'lovchilardan keyin ishlatiladi.

1) **maqsad ergash gaplarda:**

*Pour que, afin que* - uchun, maqsadida kabi bog'lovchilardan keyin:  
Je t'expliquerai tout pour que *tu sois tranquille*.  
Hotirjam bo'lishing uchun senga hammasini tushuntirib beraman.

Il fera tout afin que *tu puisses* préparer ton rapport.  
Sen ma'ruzangni tayyorlashing uchun u hamma narsani qiladi.

2) **payt ergash gaplarda:**

*Jusqu'à ce que* - qadar, -guncha, -gacha, to, *avant que* -gacha, -ga qadar, -dan oldin, burun, avval, ilgari bog'lovchilaridan keyin:  
Je vous attendrai jusqu'à ce qu'*il fasse* sombre.  
Ne partez pas avant que *je revienne*.

3) **to'siqsiz ergash gaplarda:**

*Quoique, bien que* - qaramay, garchi, -sa ham bog'lovchilaridan keyin:  
Quoiqu'*il soit* encore très jeune, il est déjà un grand savant.  
Bien qu'*il pleuve*, nous irons à la campagne.

### Subjonctifning aniqlovchi ergash gaplarda qo'llanilishi

**Subjonctif** nisbiy olmoshlar bilan kiritiladigan aniqlovchi ergash gaplarda quyidagi hollarda ishlatiladi:

1) orttirma darajadan keyin va *le seul* (yagona), *l'unique* (yagona), *le premier* (birinchi), *le dernier* (oxirgi) so'zlaridan keyin:  
C'est le plus grand écrivain que *nous connaissons*.  
Bu biz tanigan eng buyuk olim.

C'est *la seule* étudiante qui *n'ait pas préparé* son devoir.  
Bu o'z vazifasini bajarmagan yagona toliba.

2) *personne, rien, quelque chose, quelqu'un* noaniq olmoshlaridan keyin:

Il n'ya *personne* qui *puisse* l'aider.

Unga yordam bera oladigan hech kim yo'q.

Je ne vois *rien* que vous *convienne*.

Men sizga to'g'ri keladigan hech narsani ko'rmayapman.

## SUBJONCTIF ZAMONLARI

Subjonctifning to'rtta zamoni bor – ikkita sodda va ikkita qo'shma:

1. Subjonctif présent
2. Subjonctif passé
3. Subjonctif imparfait
4. Subjonctif plus-que-parfait

## SUBJONCTIF ZAMONLARINING MOSLASHUVI

Bosh gap		Ergash gap	
		Bir vaqtda va keyin sodir bo'lgan	Oldin sodir bo'lgan
Hozirgi yoki kelasi zamon	Présent de l'Indicatif yoki Futur simple	Subjonctif présent	Subjonctif passé
	Ils sont heureux Ils seront heureux	que leur père vienne	que leur soit venu
O'tgan zamon	Passé composé Passé simple Imparfait Plus-que-parfait	Subjonctif imparfait	Subjonctif plus-que-parfait
	Ils ont été heureux Ils furent heureux Ils étaient heureux Ils avaient été heureux	que leur père vînt	fût venu

5. Eslatma: og'zaki tilda (garchi bosh gapning fe'li o'tgan zamonda turgan bo'lsa ham) Subjonctifning ikkita zamoni - Subjonctif présent va Subjonctif passé shakllari qo'llaniladi. Masalan:



Il a été heureux *qu'il vienne*.

Il a été heureux *que son père soit venu*.

## FE'LNING SHAXSSIZ FORMALARI

Fransuz tilida fe'ning quyidagi shaxssiz formalari mavjud:

1. *Infinitif* noaniq shakli
2. *Participe* (présent, passé) sifatdosh
3. *Gérondif* ravishdosh

### Fe'ning noaniq (*infinitiv*) shakli

Fe'ning noaniq shakli ish-harakatning nomini bildiradi, ammo uning shaxsi va sonini ko'rsatmaydi:

**Faire** – qilmoq, bajarmoq, **partir** – jo'nab ketmoq, **répondre** – javob bermoq, **lire** – o'qimoq va hokazo.

**Infinitiv** quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

aniq	<b>habiller</b>	kiyintirmoq
majhul	<b>être habillé</b>	kiyingan bo'lmoq
olmoshli	<b>s'habiller</b>	kiyinmoq

**Infinitivning** ikki xil zamon shakli mavjud – sodda va qo'shma:

**Infinitif présent:** parler, entrer, se coucher

**Infinitif passé:** avoir parlé, être entré, s'être couché

**Infinitif passé** yordamchi fe'ning **Infinitif présent** shaklidan va tuslanuvchi fe'ning **Participe passé** shaklidan yasaladi.

**Infinitif présent** hozirgi, o'tgan yoki kelasi zamonga nisbatan bir vaqtda sodir bo'lgan ish-harakatni ifoda etadi:

**Il veut terminer ce travail.**

U bu ishni tugatishni xohlayapti.

**Il voudra terminer ce travail.**

U bu ishni tugatishni xohlaydi.

**Il a voulu terminer ce travail.**

U bu ishni tugatishni xohladi.

**Il voulait terminer ce travail.**

U bu ishni tugatishni xohlardi.

**Infinitif passé** esa hozirgi, o'tgan yoki kelasi zamonda sodir bo'lgan ish-harakatdan oldin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifoda etadi:

***Après avoir passé ses examens il part à son village natal.***

Imtihonlarini topshirib bo'lgach, u o'z ona qishlog'iga jo'nab ketyapti.

***Après avoir passé ses examens il partira à son village natal.***

Imtihonlarini topshirib bo'lgach, u o'z ona qishlog'iga jo'nab ketadi.

***Après avoir passé ses examens il est parti à son village natal.***

Imtihonlarini topshirib bo'lgach, u o'z ona qishlog'iga jo'nab ketdi.

## INFINITIVNING QO'LLANILISHI

Fe'ning to'ldiruvchisi bo'lgan **infinitiv** quyidagicha ishlatiladi:

**1) predlogsiz:**

a) ***Devoir, pouvoir, vouloir, falloir, savoir*** fe'llaridan keyin:

Je ***veux*** visiter ce musée.

Il ***peut*** lire sans fautes.

Il ne ***savait*** ni lire, ni écrire.

b) *mulohaza, o'y, fikrni ifodalovchi penser, croire, désirer* kabi fe'llardan keyin:

Je ***pense*** partir demain.

**2) à, de predloglari bilan:**

Elle apprend ***à danser***.

Je vous conseille ***de visiter*** cette exposition.

(Bu predloglar bilan ishlatiladigan fe'llar ro'yxati keltirilgan ilovaga qarang).

**3) boshqa predloglar bilan:**

a) ***après*** predlogi bilan faqat *Infinitif passé* ishlatiladi hamda o'zbek tiliga tugallangan tur ravishdoshining bo'lishli shakli sifatida tarjima qilinadi:

***Après avoir fini*** son travail il alla au cinéma.

Ishini tugatgach, u kinoga bordi

***Après être arrivé*** au stade il commença à s'entraîner.

Stadionga kelgach, u shug'ullanishni boshladi.

b) *Avant de* predlogi *Infinitif présent* va *Infinitif passé* oldin, avval (прежде чем) soʻzlari yordamida rus tiliga feʼlning noaniq shakli yoki tuslangan shakli tarzida tarjima qilinadi:

***Avant de partir il fait ses adieu à tout le monde.***

Прежде чем уехать, он простился со всеми.

Joʻnab ketishdan oldin u hamma bilan xayrlashdi.

***Avant d'être parti il fait ses adieu à tout le monde.***

Прежде чем он уехал, он простился со всеми.

U joʻnab ketmasidan avval hamma bilan xayrlashdi.

c) *Pour* predlogi bilan *Infinitif présent* uchun tarzida, *Infinitif passé* chunki, negaki tarzida tarjima qilinadi:

***Il prend ce livre pour le traduire.***

U bu kitobni tarjima qilish uchun olyapti.

***Il est puni pour avoir manqué la classe.***

U darslarni qoldirganligi uchun jazolandi.

d) *Sans* predlogi bilan *Infinitif présent* ravishdoshning tugallanmagan turi inkor shaklida, *Infinitif passé* esa ravishdoshning tugallangan turi inkor shaklida tarjima qilinadi:

***Il est sorti sans me regarder.***

U menga qaramay turib chiqib ketdi.

***Il est sorti sans m'avoir regardé.***

U menga qaramasdan chiqib ketdi.

## INFINITIVNING GAPDAGI VAZIFALARI

**Infinitiv** gapda ot bajargan vazifalarni ham, yoki feʼl bajargan vazifalarni ham ado etib kelishi mumkin. **Infinitiv** gapda quyidagi vazifalarda keladi:

1) *ega vazifasida*:

***Vivre, c'est travailler.***

Yashash – mehnat qilish demakdir.

2) *ot kesim vazifasida:*

**Ton devoir est de bien apprendre.**

Sening burching – yaxshi o‘qish.

3) *so‘roq gapda kesim vazifasida:*

**Que faire?**

Nima qilish kerak?

4) *vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida:*

**Il pense partir demain.**

U ertaga ketishni o‘ylayapti.

5) *vositali to‘ldiruvchi vazifasida:*

**Il consent à m’accompagner.**

U menga hamroh bo‘lishga rozi bo‘lyapti.

6) *hol vazifasida:*

**Il est parti sans avoir répondu.**

U javob bermasdan ketib qoldi.

## INFINITIVDAN OLDIN KELGAN FAIRE VA LAISSER FE‘LLARI

**Infinitivdan oldin kelgan «faire»** fe‘li biror ishni bajarishga undamoq, buyurmoq ma’nolarini ifoda etadi. Masalan:

**Elle fait écrire ses enfants.**

U o‘z bolalarini yozishga majbur etyapti.

**Elle fait écrire à ses enfants une dictée.**

U o‘z bolalariga diktant yozdiryapti.

**Elle leur fait écrire une dictée.**

U ularga diktant yozdiryapti.

**Infinitivdan oldin kelgan «laisser»** fe‘li biror ishni bajarishga imkon bermoq, ruxsat etmoq, yo‘l qo‘ymoq ma’nolarini ifoda etadi. Masalan:

**Elle laisse jouer ses enfants dans le jardin (elle les laisse jouer ses enfants dans le jardin).**

U o‘z bolalarini hovlida o‘ynashga yo‘l qo‘yadi (U ularni hovlida o‘ynashga yo‘l qo‘yadi).

*quyidagi birikmalarni yodda saqlab qoling:*

**faire asseoir** – o'tirg'izmoq

**faire tomber** – tushirib yubormoq

**faire faire** – buyurmoq

**faire venir** – kelishga majbur etmoq

**faire entrer** – kiritmoq, kirishga undamoq

**faire savoir** – ma'lumot bermoq, o'rgatmoq

**laisser passer** – o'tkazib yubormoq

**laisser entrer** – kiritmoq

**laisser parler** – gapirishga yo'l qo'yimoq

**laisser tomber** – bilmasdan tushirib yubormoq

**laisser partir** – jo'natib yubormoq, jo'nab ketishga ruxsat etmoq

**Faire** va **laisser** fe'llari **infinitiv** bilan birgalikda gapda fe'lli murakkab kesimni hosil qiladi.

Masalan :

Je le **laisse entrer** dans la chambre.

Chaque jour le père faisait lire son enfant.

### **Participe présent**

#### **Hozirgi zamon sifatdoshi**

**Participe présent** fe'lining **Présent de l'Indicatif** 1-shaxs ko'plikdagi o'zagiga –**ant** suffiksini qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi:

nous march-**ons**

nous finiss-**ons**

nous lis-**ons**

**march-ant**

**finiss-ant**

**lis-ant**

Uchta fe'l – **avoir, être, savoir** fe'llari **Participe présent**da alohida – **ayant, étant, sachant** shakllarga ega.

**Participe présent** fe'l va sifat xususiyatlariga ega.

a) Fe'lga o'xshab **Participe présent** ish-harakatni ifodalaydi. Bu ish-harakat mazmun jihatidan bog'langan va hozirgi, o'tgan yoki kelasi zamonda boshqa ish-harakat bilan bir vaqtda sodir bo'ladigan ish-harakat bir vaqtda amalga oshadi:

**Je vois le train arrivant à la gare.**

Men vokzalga kelayotgan poezdni ko'rayapman.

**J'ai vu le train arrivant à la gare.**

Men vokzalga kelgan poezdni ko'rdim.

**Je verrai le train arrivant à la gare.**

Men vokzalga keladigan poezdni ko'raman.

Fe'lga o'xshab **Participe présent** to'ldiruvchi va holga ega bo'lishi mumkin:

**Je connais un jeune homme parlant trois langues.**

Men uchta tilda gapiradigan yigitchani taniyman.

**Les enfants jouant dans la cours étaient très capricieux.**

Hovlida o'ynagan bolalar juda injiq edilar.

b) sifatga o'xshab **Participe présent** predmetning sifatini ifodalaydi va gapda aniqlovchi vazifasini bajaradi. Sifatdan farqli ravishda u hech qachon o'zi aniqlab kelayotgan ot bilan rodde va sonda moslashmaydi:

**Cette jeune fille aimant beaucoup la musique va souvent aux concerts.**

Musiqani sevadigan bu qizcha tez-tez konsertga borib turadi.

**Je vois les étudiants revenant de l'institut.**

Men institutdan qaytayotgan talabalarni ko'rayapman.

**Participe présent** o'ziga tegishli so'zlar bilan birgalikda aniqlovchi ergash gap bilan almashtirilishi mumkin:

**Je vois les garçons jouant aux échecs.**

**Je vois les garçons qui jouent aux échecs.**

Men shaxmat o'ynayotgan bolalarni ko'rayapman.

**Participe présent** o'zbek va rus tillariga gapning mazmuniga qarab hozirgi zamon yoki o'tgan zamon sifatdoshi tarzida tarjima qilinadi:

**Je rencontre des ouvriers allant à leur travail.**

Men ishiga borayotgan ishchilarni uchratayapman.

**J'ai rencontré des ouvriers allant à leur travail.**

Men ishiga borgan ishchilarni uchratdim.

### **Participe passé**

#### **O'tgan zamon sifatdoshi**

**Participe passé** – o'tgan zamon sifatdoshi **Participe présent** – hozirgi zamon sifatdoshi kabi fe'l va sifat xususiyatlariga ega.

**Participe passé** quyidagicha qo'llaniladi:

1) **avoir** va **être** yordamchi fe'llari bilan fe'llarning qo'shma zamonlarini hosil qilishda:

**Il a répondu.**

**Ils sont descendus.**

2) predmetning belgisini bildirish uchun mustaqil ravishda (yordamchi fe'llarsiz). Bu holda uning qo'llanilishi sifat kabi bo'ladi va u aniqlovchi vazifasini bajarib, o'zi aniqlab kelayotgan so'zdan keyin keladi va bu so'z bilan sonda va rodda moslashadi:

**Le texte étudié.**

**Les lettres écrites.**

O'timli fe'llarning **Participe passé** shakli gapning mazmuniga qarab o'tgan va hozirgi zamon sifatdoshi majhul nisbati ma'nosiga, o'timsiz fe'llarning **Participe passé** shakli esa gapning mazmuniga qarab o'tgan va hozirgi zamon sifatdoshi aniq nisbati ma'nosiga ega bo'ladi. Qiyoslang:

**Les lettres envoyées par avion arrivent toujours vite.** (o'timli fe'l)

Samolyot bilan jo'natilayotgan xatlar har doim tez keladi.

**Les lettres envoyées par avion sont arrivées à temps.** (o'timli fe'l)

Samolyot bilan jo'natilgan xatlar vaqtida keldi.

**Voici le voyageur arrivé ce matin.** (o'timli fe'l)

Mana bugun ertalab kelgan sayohatchi.

### **Participe passéning moslashuvi**

1) **Être** yordamchi fe'li bilan ishlatilgan fe'llarning **Participe passé** shakli ega bilan rodda va sonda moslashadi:

**L'institutrice est entrée.**

**Ils sont tombés.**

**Ces cahiers sont corrigés.**

2) **Avoir** yordamchi fe'li bilan ishlatilgan fe'llarning **Participe passé** shakli ega bilan rodda va sonda maslashmaydi, ammo u fe'ldan oldin turgan vositasiz to'ldiruvchi bilan sonda va rodda moslashadi. Qiyoslang:

To'ldiruvchi fe'ldan oldin (moslashuv yo'q) Il a vu cette pièce. Avez-vous vu ces tableaux ? J'ai visité une belle ville.	To'ldiruvchi fe'ldan keyin (moslashuv mavjud) Il parle de la pièce qu'il a vue. Oui, je les ai vus. Quelle ville avez-vous visités ?
---	--

### Participe passé composé

**Participe passé composé** yordamchi fe'ning **Participe présent** shakli hamda tuslanuvchi fe'ning **Participe passé** shakli yordamida yasaladi:

ayant parlé	étant arrivé
ayant fini	étant parti
ayant écrit	étant tombé

**Eslatma:** *être* fe'li yordamida tuslanuvchi (olmoshli fe'llardan tashqari) fe'llarda **étant** shakli qo'yilmasligi mumkin.

**Participe passé composé** hozirgi, o'tgan yoki kelasi zamon bilan ifoda qilinishi mumkin bo'lgan ish-harakatdan oldin yuz bergan ish-harakatni bildiradi:

***N'ayant rien compris il ne peut pas répondre.***

Hech narsani tushunmay, u javob bera olmayapti.

***N'ayant rien compris il ne pouvait pas répondre.***

Hech narsani tushunmay, u javob bera olmasdi.

***N'ayant rien compris il ne put pas répondre.***

Hech narsani tushunmay, u javob bera olmadi.

***N'ayant rien compris il ne pourra pas répondre.***

Hech narsani tushunmay, u javob bera olmaydi.

### Participe passé composéning qo'llanilishi

**Participe passé composé** gaplarda quyidagi vazifalarda keladi:

1) *hol vazifasida*:

***Ayant lu ce livre, il apprit beaucoup de choses intéressantes.***

Bu kitobni o'qib, u juda ko'p qiziqarli narsalarni bilib oldi.



**Étant né en Crimée, il aimait beaucoup la mer.**  
Qrimda tug'ilib (tug'ilganligi uchun), u dengizni juda sevardi.

2) vaqt yoki sabab ergash gap o'rini egallab, *absolyut sifatdashli oborot vazifasida*:

**Son camarade n'ayant rien répondu à sa lettre, il fut obligé de lui envoyer un télégramme.**

Uning o'rtog'i xatiga hech qanday javob qaytarmaganligi sababli, u unga telegramma jo'natishga majbur bo'ldi.

**Le professeur (étant) entré dans la classe, la leçon commença.**  
O'qituvchi sinfga kirganidan so'ng dars boshlandi.

## GÉRONDIF RAVISHDOSH

**Gérondif** ham fe'l, ham ravish xususiyatiga ega bo'lib, ish-harakatni va ayni vaqtda uning belgisini bildirib keladi.

**Gérondif** xuddi **Participe présent** shakliga ega, ammo uning oldiga **en** yuklamasi qo'yiladi:

**en dansant, en finissant, en se reposant**

**Eslatma:** **en** yuklamasi **avoir** va **être** fe'llarining **Gérondif** shakli oldida qo'llanilmaydi. Ba'zan esa bu yuklama boshqa fe'llar oldida ham tushirib qoldirilishi mumkin.

**Gérondif** fe'lning o'zgarma shakli bo'lib, o'zbek va rus tillaridagi ravishdoshlarning tugallanmagan turiga mos keladi hamda hozirgi, o'tgan yoki kelasi zamonga aloqador bo'lgan ish-harakat bilan bir vaqtda sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi. Ravishdosh o'zi tegishli bo'lgan fe'l bilan bitta egaga bo'ysunadi:

**Elle tricote en chantant.** U kuylab turib to'qiyapti.

**Elle tricotait en chantant.** U kuylab turib to'qirdi.

**Elle tricotera en chantant.** U kuylab turib to'qiydi.

**Gérondif** xuddi **Participe**ga o'xshab to'ldiruvchi va holga ega bo'lishi mumkin; fe'loldi kishilik olmoshlari **en** yuklamasi va fe'llarning **Gérondif** shakli o'rtasiga qo'yiladi:

**En copiant ce texte ne faites pas de fautes.**

Bu tekstni ko'chirayotib xato qilmang.

**En le copiant ne faites pas de fautes.**

Uni ko'chirayotib xato qilmang.

**Gérondif har** doim fe'lga taalluqli bo'ladi va gapda hol (payt holi yoki ravish holi) vazifasini bajarib keladi.

**Gérondifdan** oldin ba'zida **tout** ravishi kelishi mumkin, u ish-harakatning davomiyligini ko'rsatadi. **Qiyoslang:**

**Tout en mangeant**, il lisait.

Пока он ел, он читал.

U eb turib o'qirdi.

## RAVISH ADVERBE

Ravish mustaqil, o'zgarmaydigan so'z turkumi bo'lib, harakat va holatning, sifatning yoki boshqa ravishning belgisini, shuningdek belgining belgisini bildiradi. Ba'zan ravish otga ham bog'lanib keladi. Masalan:

**Je vis *distinctement* au font de la chambre une ombre immobile.**

**Je fus *très ému* par ses paroles.**

**J'entendais *très bien* une certaine ironie dans ces paroles.**

***Beaucoup* de livres français sont traduits en ouzbek.**

Quyidagi ravishlar yordamchi so'zlar hisoblanadi:

1) ***plus, moins, aussi*** ravishlari darajalarni hosil qilishda qo'llanilganda:

**Il est *plus* attentif que son frère.**

**Il est *aussi* attentif que son frère.**

**Il est *moins* attentif que son frère.**

2) ***ne ... pas, point, plus, guère, jamais*** inkor ravishlari:

**Il n'*écoute pas*.**

**Il n'*écoute point*.**

**Il n'*écoute plus*.**

**Il n'*écoute guère*.**

**Il n'*écoute jamais*.**

3) *si, très* ravishlari hamda *ne ... que* cheklov ravishi:

**Il est *si* paresseux!**

**Je me sens si heureux!**

**Sardor est *très* intelligent.**

**De tous les fruits il *ne* mange *que* des pommes.**

## RAVISHLARNING TURLARI

Fransuz tilidagi ravishlar o'zlarining ma'nosiga qarab quyidagi turkumlarga bo'linadi:

### 1) *Payt ravishlari*

<b>alors</b>	vaqtda, unda, u chog'da
<b>après</b>	keyin, o'tgach, so'ngra
<b>aujourd'hui</b>	bugun, hozir, hozirgi paytda, endilikda
<b>avant</b>	-guncha, -gunga qadar; oldin, ilgari, avval; dastlab
<b>bientôt</b>	tezda, yaqinda
<b>demain</b>	erta, ertaga; ertangi kun
<b>déjà</b>	endi, allaqachon, oldin ham, ilgari ham
<b>encore</b>	yana, tag'in, qo'shimcha ravishda, qo'shimcha qilib
<b>enfin</b>	nihoyat, oxiri; mana endi; oxirida, qisqasi
<b>hier</b>	kecha, kuni kecha
<b>jamais</b>	hech, hech qachon, hech vaqt, aslo, sira
<b>longtemps</b>	uzoq, uzoq vaqt, ancha vaqtgacha
<b>maintenant</b>	endi, hozir, endilikda, hozirgi paytda, shu kundan boshlab, hozirdan e'tiboran, bundan buyon
<b>parfois</b>	ba'zan, ba'zida, ba'zi vaqtda, goho, gohida, goh-goh, onda-sonda, a'yon-ahyonda, ora-sira
<b>quand</b>	ba'zan, goh, gohida, qachon bo'lmasin, qachondir
<b>rarement</b>	kamdan-kam
<b>souvent</b>	tez-tez, ko'p, ko'pincha, ko'p marta
<b>tard</b>	kech, bemahal
<b>tôt</b>	erta, ertaroq, vaqtli, vaqtiliroq, tezda, tezroq, avval, avvalroq, oldin, oldinroq
<b>toujours</b>	doim, doimo, har doim, hamisha

### 2) *O'rin ravishlari*

<b>ici</b>	bu erda, joyda, yoqda, shu erda, bunda
<b>là</b>	u erda, usha erda, o'sha joyda, unda

<b>en</b>	u erdan, o'sha joydan, tomondan, yoqdan
<b>en bas</b>	tagida, ostida
<b>au-dessous</b>	ostida, tagida
<b>en haut</b>	ustida
<b>au-dessus</b>	ustida
<b>loin</b>	ancha uzoqda, olisda, yiroqda
<b>près</b>	yaqinda, yaqin joyda, yaqinida, yonida, yonma-yon
<b>partout</b>	hamma joyda, hamma yoqda, har erda
<b>dedans</b>	ichkarida, ichkariga
<b>dehors</b>	tashqari, tashqarida, bo'lak
<b>devant</b>	oldda, oldinda, olddan, oldida
<b>derrière</b>	orqasida, orqa tomonda, keyin, orqaga, tashqarida

### 3) *Holat ravishlari*

<b>ainsi</b>	shunday qilib, shunday
<b>bien</b>	yaxshi, yoqimli
<b>mal</b>	yomon, yaxshi emas, beodob
<b>ensemble</b>	birga, birgalikda, bir paytda
<b>debout</b>	tikka, tik turib
<b>vite</b>	tez, ildam, chaqqon, jadal
<b>comme</b>	qanchalik, qanday

### 4) *Miqdor ravishlari*

<b>beaucoup</b>	ko'p
<b>plus</b>	ko'proq, ortiqcharoq
<b>moins</b>	ozroq, kamroq
<b>assez</b>	juda, juda ham, ko'p, etarli
<b>peu</b>	oz, kam; kamgina, ozgina narsa; etarli emas
<b>un peu</b>	ozgina, jindak
<b>trop</b>	mo'l-ko'l, juda ko'p, nihoyatda, juda
<b>tant</b>	shunchalar; ko'p, bir necha, qanchalar; qancha, shuncha
<b>si</b>	shu darajada, shunchalar, shuncha

### 5) *So'roq ravishlari*

<b>comment</b>	qanday, qanaqa, qaysi, qanday qilib
<b>quand</b>	qachon, qay vaqtda
<b>où</b>	qaerga, qaerda
<b>d'où</b>	qaerdan
<b>combien</b>	qanchalik, nechog'lik ko'p, qancha, necha, ozmunchami

**pourquoi** nega, nima maqsadda; nima uchun, qanday maqsadda

**6) Tasdiq ravishlari**

<b>oui</b>	ha, ha shunday, xuddi shunday
<b>si</b>	ha, ha shunday, xuddi shunday
<b>certes</b>	albatta, qat'iy, shubhasiz, so'zsiz
<b>certainement</b>	aniq, ravshan, shubhasiz

**7) Inkor ravishlari**

<b>non</b>	yo'q, bo'lmaydi
<b>ne ... pas</b>	yo'q
<b>ne ... point</b>	aslo, butunlay, umuman
<b>ne ... guère</b>	aslo, butunlay, umuman

**8) Cheklov ravishlari**

<b>seulement</b>	faqat
<b>ne ... que</b>	faqat

## RAVISHLARNING YASALISHI FORMATION DES ADVERBES

Fransuz tilidagi ravishlar, boshqa tillarda bo'lgani kabi, *sodda*, *murakkab*, *asliy va nisbiy* ravishlarga bo'linadi.

*Sodda ravishlar* lotin tilidagi ravishlardan kelib chiqadi, masalan, **bien** (lotincha – bene) – yaxshi, **mal** (lotincha – male) – yomon va hokazo.

*Murakkab ravishlar* esa fransuz tilining o'zida turli usullar bilan paydo bo'lgan. Masalan:

1. *sifat va otlarning qo'shilishi orqali:*

**beaucoup** (beau + coup) – ko'p

**longtemps** (long + temps) – uzoq

2. *predlog, ot yoki olmoshlarning qo'shilishi orqali:*

**enfin** (en + fin) – nihoyat

**partout** (par + tout) – hamma erda

3. *turli elementlardan:*

**dedans** – ichida  
**aujourd'hui** – bugun

Bu guruhga **locutions adverbiales** – ravishli iboralarni ham kiritish mumkin. Ular turli elementlardan tashkil topgan va bir biriga birikib ketmaydigan soʻzlardan iboratdir. Masalan:

**quelque part** – qaerdadir  
**d'ailleurs** – lekin, ammo, biroq

**Yasama (nisbiy) ravishlar** esa sifatlarga qoʻshimchalar qoʻshish yoʻli bilan hosil qilinadi.

Ravishlarni yasash uchun sifatni jenskiy rodda olib, unga **-ment** suffiksini qoʻshamiz. Quyidagi jadvalga eʼtibor bering:

Adjectifs		suffixe	adverbes
masculin	féminin		
courageux	courageuse	<b>- ment</b>	<b>courageusement</b>
actif	active		<b>activement</b>
léger	légère		<b>légerement</b>

**Eslatma:**

1. Agar mujskoy rodda sifat unli bilan tugasa, **-ment** suffiksi shu mujskoy roddagi sifatga qoʻshiladi. Masalan:

**poli** – **poliment**, **facile** – **facilement**, **vrai** – **vraiment**, **absolu** – **absolument**.

2. Agar sifatlar **-ent**, **-ant** qoʻshimchalari bilan tugasa, unda ravishlar **-emment**, **-amment** qoʻshimchalarini qoʻshish yoʻli bilan yasaladi. Masalan:

**récent** – **récemment**, **violent** – **violemment**, **constant** – **constamment**, **courant** – **conrammant**.

3. Bir qator sifatlardan ravishlar oʻziga xos usulda yasaladi. Masalan:

**gai** – **gaiement**, **bref** – **brièvement**, **commode** – **commodément**, **aveugle** – **aveuglément**, **profond** – **profondément**, **précis** – **précisément**, **gentil** – **gentiment**, **grave** – **grèvement** (**gravement**)

## Sifatlarning ravish ma'nosida qo'llanilishi

Bir qator sifatlar fe'llar bilan ravish ma'nosida ishlatiladi.

Masalan:

<b>parler français</b>	fransuzcha gapirmoq
<b>parler ouzbek</b>	o'zbekcha gapirmoq
<b>parler haut</b>	baland gapirmoq
<b>parler bas</b>	sekin gapirmoq
<b>acheter cher</b>	qimmat sotib olmoq
<b>vendre cher</b>	qimmat sotmoq
<b>coûter cher</b>	qimmat turmoq
<b>aller droit</b>	to'g'ri bormoq
<b>se tenir droit</b>	g'oz turmoq
<b>courir droit</b>	to'g'ri yugurmoq

## RAVISH DARAJALARI DEGRÈS DE COMPARAISONS DES ADVERBES

Sifatlar kabi ravishlar qam uch xil darajaga ega: oddiy - **positif**, qiyosiy – **comparatif** va orttirma - **superlatif**.

Positif	Pierre marche vite.
Comparatif	Pierre marche <i>plus vite que</i> Paul.(de supériorité–ortiq) Pierre marche <i>moins vite que</i> Paul.( d'infériorité–kam) Pierre marche <i>aussi vite que</i> Paul.( d'égalité – teng)
Superlatif	Pierre marche <i>le plus vite</i> . Pierre marche <i>le moins vite</i> .

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ravishlarning qiyosiy darajasi ham sifatlar kabi **aussi**, **plus**, **moins** ravishlari yordamida yasilib, ular doimo ravishdan oldin, **que** bog'lovchisi esa ravishdan keyin qo'yiladi.

**Bien**, **mal**, **beaucoup**, **peu** ravishlari qiyosiy va orttirma darajalarda o'ziga xos formaga egadirlar:

Positif	Comparatif	Superlatif
bien	mieux (que)	le mieux

mal	pis (que)	le pis
	plus mal (que)	le plus mal
beaucoup	plus (que)	le plus
peu	moins (que)	le moins

Masalan:

**Karim travaille bien. Zokir travaille *mieux que* Karim.**

**Akbar travaille *le mieux de* tous.**

**Rose parle peu. Michel parle *moins*. Anne parle *le moins de* tous.**

**Karim chante mal. Zokir chante *pis* et Akbar chante *le pis de* tous. Karim travaille beaucoup. Zokir travaille *plus*. Akbar travaille *le plus de* notre groupe.**

### RAVISHLARNING GAPDAGI O'RNI VA VAZIFASI

Ravishlar gapda hol (*o'rin holi, payt holi, holat holi*), **aniqlovchi**, ot **kesim** vazifasini bajarib keladi. Ravishning o'rni u qaysi so'zga taalluqli ekanligi bilan belgilanadi.

1. *Holat holi* vazifasida kelganda ravish fe'ldan keyin qo'yiladi.

Masalan:

**Christophe se taisait *obstinément*.**

Eslatma:

a) Agar ravish sodda zamondagi fe'l bilan ishlatilsa, u odatda fe'ldan keyin qo'yiladi:

**Le vieux leva la tête et regarda *attentivement*.**

b) Agar ravish qo'shma zamondagi fe'l bilan ishlatilsa, u odatda fe'lning participe passé shaklidan keyin qo'yiladi:

**Natalie était entrée *silencieusement* dans la pièce.**

c) Quyidagi ravishlar qo'shma zamonlarda yordamchi fe'l bilan participe passé o'rtasiga qo'yiladi:

<b>ainsi</b>	<b>jamais</b>
<b>assez</b>	<b>longtemps</b>
<b>beaucoup</b>	<b>mal</b>
<b>bien</b>	<b>même</b>
<b>déjà</b>	<b>peu</b>



encore  
enfin

souvent  
vite

Masalan:

Elle a *mal* lu.

L'avion est *déjà* parti.

C'était un ami de jeunesse que j'avais *beaucoup* aimé.

Elle mentait, Monsieur, elle a *souvent* menti.

2. O'rin va *payt ravishlari* gapning boshida, o'rtasida yoki oxirida qo'yilishi mumkin:

J'aime *mieux* rester ici.

*Le lendemain*, Christophe vint prendre Olivier, pour faire une promenade dans Paris.

*Aujourd'hui* nous avons cinq leçons.

Nous avons cinq leçons *aujourd'hui*.

Nous avons *aujourd'hui* cinq leçons.

3. Belgining belgisini bildirib kelgan ravish sifatdan yoki otdan oldin qo'yiladi:

*Ce que vous faites est si intéressant.*

*Il travaille très bien.*

4. *Aniqlovchi* vazifasida qo'llanilgan ravish o'zi aniqlab kelayotgan so'zdan oldin yoki keyin qo'yiladi:

*Le journal d'aujourd'hui est très intéressant.*

*Dans cette salle il y a beaucoup d'étudiants.*

*Donnez-moi le journal d'aujourd'hui.*

5. Ravish gapda *ot kesim* vazifasida ham keladi. Bunda u bog'lovchi fe'ldan keyin qo'yiladi:

*C'est bien.*

### Ayrim ravishlar qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari

Otdan oldin qo'llanilgan miqdor anglatuvchi ravishlar o'zidan keyin *de* predlogini talab qiladi:

Nous faisons *beaucoup de* traductions pendant la leçon de français.

Il a *peu d'amour-propre*.

*Beaucoup* “ko‘p” ravishi boshqa biror ravish bilan kuchaytirilishi mumkin emas:

<b>beaucoup</b>	juda ko‘p
<b>trop</b>	haddan tashqari ko‘p
<b>tant</b>	shu daraja ko‘pki

*Très* “juda” ravishi hech qachon fe’lga taalluqli bo‘lmaydi, u faqat sifatlar yoki ravishlar oldidagina qo‘llanilishi mumkin:

Il est *très curieux*.

Elle habite *très loin*.

*Aussi* “ham” ravishi faqat tasdiq gaplardagina ishlatiladi:

Il a vu ce film. Moi *aussi*, je l’ai vu.

Inkor gaplarda *aussi* ravishi *non plus* (ham) ravishi bilan almashtiriladi:

Il n’a pas été à Paris, moi *non plus*.

*Tout* ravishi “juda, butunlay” ma’nosini bildiradi. U otga yoki ravishga tegishli bo‘lishi mumkin va ulardan oldin keladi. *Tout* – o‘zgarmas so‘z turkumi.

L’enfant était *tout pâle*.

La rue était *tout étroite*.

Jenskiy roddagi undosh harf bilan yoki *h aspiré* bilan boshlanuvchi sifatlar oldida *tout* aniqlanmish bilan rodda va sonda moslashadi:

La neige était *toute blanche*.

Les fillettes étaient *toutes joyeuses*.

*Oui* so‘roq gapga tasdiq javobi sifatida qo‘llaniladi:

Avez-vous *une montre*?

*Oui, j’en ai une*.

Inkor qilinayotgan faktning tasdig‘i sifatida inkor gaplarning javobida esa *si* “yo‘q, aksincha” ravishi ishlatiladi:

**Vous n'avez pas préparé votre leçon?**

**Si, je l'ai préparée.**

*Ne ... que* cheklash yuklamasi fransuz tilidagi «*seulement*» (faqat) ravishiga mos keladi. *Ne* har doim kesim oldida, *que* esa cheklash taalluqli bo'lgan so'z oldida keladi. Masalan:

**Il ne parle que français.**

**Il parle seulement français.**

U faqat fransuzcha gapiradi.

**Aujourd'hui nous n'avons que deux leçons de français.**

Bugun bizda faqat ikki soat fransuz tili darsi bor.

**Il n'est que six heures dix.**

Soat endi 6 dan 10 daqiqa o'tdi.

**Nous ne sommes que sept dans notre groupe.**

Biz guruhda faqat etti kishimiz.

**Dans cette salle il n'y a qu'une fenêtre.**

Bu zalda faqat bitta deraza bor.

## PREDLOGLAR PREPOSITIONS

Predloglar o'zgarmas so'z turkumi bo'lib, gapda so'zlarning bog'lanishiga xizmat qiladi va so'zlar orasidagi turli munosabatlarni bildiradi. Fransuz tilida predloglarning roli rus tilidagi predloglarnikiga qaraganda ancha kattadir, chunki fransuz tilida kelishik qo'shimchalari mavjud bo'lmaganligi sababli, ular o'zbek va rus tillaridagi kelishik qo'shimchalari o'rnini egallaydi va ko'pincha ular o'zbek va rus tillariga tarjima qilinmaydi. Masalan:

**C'est la porte de l'école.**

Bu maktabning eshigi.

**Il passe le pain à son père.**

U otasiga nonni uzatayapti.

Fransuz tilidagi bitta predlogning o'zi o'zbek va rus tillaridagi turli kelishik qo'shimchalarini ifodalashi mumkin:

**Il donne son crayon à Paul.**

U qalamini Polga berayapti.

**Il est à Tachkent.**

U Toshkentda.

Ba'zan bitta kelishik fransuz tilida turli predloglar yordamida ifoda qilinishi mumkin:

**Il pense à son père.**  
**Il parle de son père.**

U otasi haqida o‘ylayapti.  
U otasi haqida gapirayapti.

Fransuz tilida sodda predloglar va qo‘shma predloglar mavjud.

### Sodda predloglar:

<b>à</b>	-ga, -da, -gacha
<b>après</b>	so‘ng, keyin; ketma-ket, birin-ketin, navbatma-navbat
<b>avant</b>	-gacha, -ga qadar, -dan oldin, burun, avval, ilgari
<b>avec</b>	bilan, bilan birga; -dan, -ga qarshi, yordamida, sababli
